Kirish. Turkiy xalqlar tili juda qadim davrlardan buyon O'rta Osiyoda azaldan yashab kelgan eroniy tillar bilan aloqada bo'lib kelgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, O'rta Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston hududida turkiy tilda gaplashuvchi aholi ham qadimdan yashagan. So'nggi davr tadqiqotlarida "o'zbeklar ikki xil tilda so'zlashuvchi – sharqiy eroniy va turkiy qabila va elatlarning qorishuvidan tarkib topgan etnosdir", – deya ta'kidlanadi [1]. Shunday ekan, hozirgi turkiy tillar va o'zbek tilida uchrovchi so'g'd, xorazmiy tillari elementlari qadimiy davrlarda yuz bergan tillararo aloqalar natijasi deb qaralmog'i kerak.

Eroniy tillarning izlari, ayniqsa, Xorazm shevalari leksikasida juda sezilarlidir. Prof. O.Madrahimovning qayd qilishicha, "eroniy tillar o'zagiga aloqador bo'lgan leksik qatlam Xorazmdagi o'g'uz shevalari leksikasining organik qismiga aylanib ketgan. Ular kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan zarur va muhim tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir [2]". Ular sheva vakillari tiliga shu darajada singib ketganki, hatto, bu elementlar boshqa til oilasiga mansub ekanligini payqash ham ancha mushkul. Buning asosiy sababi,

Sh.Shoaabdurahmonov qayd qilganidek, "forsiy so'zlar o'zbek tili va shevalariga adabiyot orqali kirmadi, balki xalqlarning asrlar davomida birga, hamkor hayot kechirgani, bevosita munosabatida o'zaro bo'lgan zarurat tufayli kirgan [3]".

Og'zaki dostonlar tili ko'proq so'zlashuv tiliga yaqin bo'lganligi sababli, ularda ham shevaga xos xususiyatlar to'la saqlangan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, onomastik birliklar ham garchi boshqa tillardan o'tgan bo'lsa-da, mavjud sheva vakillari tiliga to'liq moslashgan. Quyida dostonlar onomastik tizimida uchraydigan eroniy tillarga xos nomlar haqida to'xtalamiz.

Gul. Ushbu forsiy tillarga mansub onomastik birlik mustaqil antroponimning asosi yoki komponenti sifatida kishi nomlari hosil qilishda juda ham faol bo'lib, dostonlar onomastik tizimidagi ko'plagan nomlar tarkibida uchraydi: Gulasal ("Yusuf va Ahmad" dostoni, 23-bet), Gulrux, Gulruxpari, Gulruxsor ("Avaz uylangan" dostoni, 99, 101-betlar), Gulandom ("Go'ro'g'li" dostoni, 31-bet), Gulshirin ("Arab tang'an" dostoni, 143-bet), Gulxiromon ("Xirmondali" dostoni, 273-bet), Gulshan ("Xirmondali"

dostoni, 310-bet), Guljon, Gulqiz, Gulnoz ("Gulqizoy" dostoni, 144-bet), Guljamila ("Hurliqo va Hamro" dostoni, 107-bet), Gulsarvi ("Edigo" dostoni, 243-bet), Gulchehra ("Oshiq Albani" dostoni, 147-bet), Gulchaman ("Oshiq Najab" dostoni, 95-bet), Gulsutun ("Shahriyor" dostoni, 343-bet) va boshqalar.

O'rta Osiyo xalqlarining deyarli barcha tillarida uchraydigan ushbu element nomning asosi bo'lib kelishi, shuningdek, ismga qo'shilib ham kelishi mumkin: Donogul ("Donogul"), Ko'kgul ("Edigo"), Lolagul ("Gul va Sanobar"), Novgul ("Sayyod va Hamro"), Oygul ("Avaz"), Oqchagul ("Yunus va Misqol"), Olmagul ("Zulfizar"), Sarvigul ("Xandon botir"), To'tigul ("Go'ro'g'li") va boshqalar. Mazkur onomastik birlik hozirgi kunda, asosan, ayollar ismiga qo'shilib keladi. Bu xususiyat uning gender jihatdan xususiyatlashganligini bildiradi. Ammo, "Edigo" dostonida Ko'kgul shaklida erkak kishining ismi tarkibida qo'llangan: "...Ammo, Ko'kgul degan bola tamomi o'g'lonlarning ushqolarni utdi [4]..."

Xorazm shevalari antroponimlarini kuzatar ekanmiz, hozir ham Gulmon, Gulimmat, Gulmirza kabi erkak kishilarning ismlarini uchratamiz. Demak, bu element bir vaqtlar erkak ismlarini yasashda ham qatnashgan. Gul elementi nomlar tarkibida "chechak, chiroyli, xushro'y" kabi ma'nolarni anglatadi. Qiyos qiling:

Gulandom – gulga o'xshash bo'y, gulday kabi qomat;
Gulora – gullar bilan bezangan;
Gulasal – gurning asali (gulday go'zal, asalday shirin);
Guljamol – gulday ochilgan, go'zal yuz, mukammal;
Guljahon – dunyoning guli, go'zallikda dunyoda

yagona;

Gulizar – gulyuzli (gul + arabcha izar "yuz, oraz");
Gulniso – ayollarning go'zali;
Gulnigor – gul yuzli, gulchehra;
Gulnor – anor guli;
Gulnoz – nozli gul va shu kabilar.

Bonu. Ushbu eroniy tillarga xos bo'lgan onomastik birlik dastlab grammatik ma'no ifodalagan. Ma'lumki, eroniy tillarda turkiy tillardagi kabi jins ifodalovchi grammatik ko'rsatkich yo'q. Shu sababli, jins ma'nosi leksik usulda, ya'ni so'zlar yordamida ifodalangan. Jumladan, qadimgi Eronida davlat boshqaruvchi, hukmdor xshatradora so'zi bilan yuritilgan. Xshatra qadimgi fors tilida "davlat, hokimiyat" degan ma'noni bildirgan. (yangi fors tilidagi shaxr "shahar" so'zi ham ushbu o'zak bilan bog'liq). Dora (yangi fors tilida – "dor") "egallovchi" (rus. oblatatel) demakdir. Shunday ekan, xshatradora "hokimiyat egasi" degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik, hozirgi fors tilida shahriyor shakliga kelgan, bu so'z ayni vaqtda unvon ma'nosida ham qo'llangan. "Shahriyor"ning xotini esa "Shahribonu" maqomini olgan. Qishloq hokimi katxudo deb yuritilgan, uning xotini katbonu yoki kadbonu, ya'ni "qishloq bekasi" (aynan, uy bekasi) deb atalgan. Umuman, dastlab bonu elementi mustaqil qo'llanmagan, u ayollar ismini hosil qilish uchun xizmat qilgan. Masalan, eroniyalarda Gavhar ismi erkak kishilar nomi sifatida mavjud bo'lgan, unga bonu komponenti qo'shilgach ayol nomi Gavharbonu hosil bo'lgan. Dastlab bonu elementi yuqori tabaqa ayollari ismigagina qo'shilgan, keyinchalik barcha toifa vakillari nomiga qo'shib ishlatish odat tusiga kirgan.

Ushbu komponent Xorazm dostonlarida ham qo'llanilgan. "Xiromon pari", "Sayyodxon va Hamro" dostonlarida Bonu so'zi mustaqil holda nom sifatida qo'llangan: "...Ammo qizlarning ichida ikki kaniz bor erdi, birining oti Bonu, yana birining oti Lizon erdi [5]... Mazkur element "Malikai Zavriyo" dostonida Shahribonu shaklida qo'llanilgan: "...So'najonning bir kanizi bor erdi. Oti'ga Shahribonu der erdilar [4]..."

Xorazm o'guz shevalarida nomning fonetik tarkibi o'zgarib "Sharvon" shakliga kelib qolganligini ham qayd qilib qo'yish lozim. Lekin, bu kabi antroponimlar bugungi kunga kelib ma'lum darajada arxaiklashish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Umuman, eroniy asosli nomlar haqida so'z borar ekan, ular dostonlar onomastikasida uchraydigan eng qadimgi nomlar sifatida qayd qilinishi lozim deb hisoblaymiz. Bunday nomlarning ayrimlari Avesto yodgorligi matnlarida, Firdavsiyning "Shohnoma" asari kabi qadimeroniy manbalarda ham uchraydi.

Xisrav/Xusrav. "Hurliqo va Hamro" dostonida uchraydi: "...Misr viloyatida bir podsho bor erdi. Oning otini Xisrav der erdilar [4]... "Oshiqnoma" turkumiga qarashli dostonlarda uchraydigan Xisrav nomi "Avesto" yodgorligida – Kavay Xavsarava, yoxud Kavay Xavsaravangxa, pahlaviyda – Kay Xisrav, forsiyda – Kayxusrav shakllarida qo'llanilishi manbalarda qayd etib o'tilgan.

Eron afsonalarida Siyovush va Farangisdan tug'ilgan bolaning nomi. Kovus va Afrosiyobning nabirasi. U eron adabiyotida botir, qo'rqmas va mashhur hukmdorlardan biri sifatida ta'riflanadi. Kayxusrav Eron va Hind adabiyoti uchun mushtarak timsollardan biridir. Mazkur nom tarkibidagi ikkinchi komponent Xusrav forsiy tilda podshoh, hukmdor ma'nolarini ham anglatadi [7]. Bu ma'no hozirgi fors tilida muayyan darajada arxaiklashgan.

Xorazm dostonlari tilida uchraydigan forsiy qatlamga oid ko'pgina kishi nomlari o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan nomlar bilan umumiylik kasb etishi tekshirishlardan ma'lum bo'ladi. Bu holatni folklor asarlari va badiiy asarlar yuzasida tadqiqotlar olib borgan ko'plagan olimlar ham tasdiqlashadi. Chunki, folklor asarlari badiiy adabiyot uchun zamin yasaydi. Badiiy adabiyot hamisha folklor asarlaridan oziqlanadi, ulardagi tasvir usullari-yu, sujetni shakllantirishda muhim ro'l o'ynovchi obrazlardan ununimli foydalanib kelinadi.

Ushbu holatni nafaqat xalq dostonlari orasida, balki yozma adabiyotga taalluqli asarlar, xususan Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan nomlar orasida ham kuzatish mumkin. Ma'lumki, o'zbek xalqi juda katta yozma va og'zaki adabiy merosga ega. Buning ichida hajm va mazmun jihatidan o'ziga xos o'rinni, albatta, Navoiy ijodi egallaydi. Yozma va og'zaki manbalarga oid nomlarning qo'llanishi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularni yetarli darajada deb hisoblash unchalik ham to'g'ri bo'lmaydi.

Alisher Navoiy asarlari va dostonlar tiliga mansub manbalardagi nomlarning umumiy jihatlarini tekshirish juda qiziqarli ma'lumotlarni yuzaga chiqaradi. Bunday umumiylikning ham o'ziga xos sabablari mavjud. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yozma adabiyotning vujudga kelishida xalq og'zaki ijodiga mansub asarlar zamin vazifasini o'tagan. Shunday ekan, folklor asarlari va yozma adabiyot o'rtasiga ma'lum darajada yaqinlik, o'xshashlik va umumiyliklar mavjud bo'lishi tabiiy holatdir. Mavjud umumiylik ulardagi atoqli otlar tizimida ham yaqqol aks etadi.

Xorazm dostonlari tili va Navoiy asarlari tiliga xos onomastik tizimida birdek qo'llanuvchi nomlar orasida eng katta ulushni kishi nomlari (antroponimlar) tashkil etadi. Dostonlar tili va Navoiy asarlari xos umumiylikka ega kishi nomlari orasida ham katta foizi diniy qarashlar bilan bog'liq bo'lgan: Bahovaddin (Balogardon), Sulton Uvays, Dovud, Masiho va shu kabi nomlardir. Diniy xarakterga ega bo'lgan nomlardan yozma adabiyot va og'zaki ijod namunalari payg'ambarlar va Ollohning sifatlarini ifodalovchi onomastik birliklar ancha faol qo'llanilishi bilan xarakterlidir.

Alisher Navoiyning yashagan hududi va u yashagan zamon nuqtayi nazaridan qaraganimizda, uning asarlari tilini forsiy tillarga xos birliklarsiz, shu jumladan, onomastik

birliklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shunday ekan, qadimeroniy manbalar tilida, xususan, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida uchraydigan ko'plagan mashhur qahramonlar timsollariga Navoiy ham murojaat etadi, ular asosida ajoyib talmehlar qo'llaydi.

Dostonlar tili va Navoiy asarlari leksikasida tarixda yashab o'tgan tarixiy shaxslar, mashhur asarlarning qahramonlari hisoblanadigan: Jamshid, Suhrob, Taxmuras, Faridun, Doro kabi eroniy tillarga aloqador kishi nomlari ham o'ziga xos umumiyliklarni yuzaga chiqaruvchi nomlardan hisoblanadi.

Masalan, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan olingan quyidagi parchada eroniy tillarga oid bir qancha kishi nomlari qo'llanilganini ko'ramiz:

Necha ming xum nihon qilg'on Faridun,
Vale har biur nechukkim xumi gardun [8] ..., yoki:

...Qani Tahmuras-u, Jamshid-u, Zahhok,
Ki har biri oldi olam mulkini pok [8]...

Parchda keltirilgan Faridun nomini "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi "Zulfizar" dostoniga qarashli "...Jamshid Faridunman, Zol-u, Rustam zar" misralarida qo'llanilganinin yuqorida ko'rib o'tgan edik.

Faridun haqida manbalarda bir qancha ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, nomning ilmiy-badiiy matnlarda Afridun shakli ham mavjud. Qadimgi Erondagi peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh nomi sifatida talqin etiladi. Navoiyning "Tarixi muluki ajam" asarida yozishicha, Faridun ba'zi manblarda Jamshidning nabirasi, boshqalarida esa, Taxmuras avlodidan deb talqin qilinadi. Faridun zolim va odamxo'r shoh hisoblangan Zahhokka qarshi kurashib, uni o'ldiradi. Navoiy uni "yaxshi axloqli va odil" edi deya ta'riflaydi. Faridun o'zining xazina boyliklari bilan mashhur.

ADABIYOTLAR

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –Toshkent: Universitet, 2007. – B.235.
2. Madrahimov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi. Toshkent, "Fan", 1973. – B. 49.
3. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. Toshkent, "Fan", 1962. – B.222.
4. Oshiqnoma. 1-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.
5. Oshiqnoma. 2-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.
6. Navoiy, Mukammal asarlar to'plami, 9-jild, Toshkent, 1992. – B.327.
7. Персидско-русский словарь. –М. 1983, I tom. –С.553.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 8-jild. –Toshkent: Fan, 1991. – B. 162.



UDK:800.81

Shahnoza ATABAYEVA,
Urganch Innovatsion Universiteti magistranti
E-mail:shixnazarmadiyorov@gmail.com

PhD D. Niyazmetova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SIFAT KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING TILGA NISBATAN KOMMUNIKATIV MAQSADLARI VA FUNKSIYALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli frazeologizmlarning tilga nisbatan kommunikativ maqsadlari va funksiyalari tahlil qilinadi. Maqolada frazeologizmlarning umumiy ta'rifi, ularning kommunikativ vazifalari va tilga bog'liq funksiyalari yoritilgan. Sifat komponentli frazeologizmlar tilning informativ, ijtimoiy, madaniy, stilistik va motivatsion funksiyalarini amalga oshiradi.

Kalit so'zlar: Frazeologizm, sifat komponentli frazeologizmlar, ingliz tili, o'zbek tili, kommunikativ maqsad, informativ funksiya, stilistik funksiya, ijtimoiy funksiya, madaniy funksiya, tasvirlash, nutq jarayoni.

COMMUNICATIVE PURPOSES AND FUNCTIONS OF ADJECTIVE-COMPONENT PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the communicative purposes and functions of adjective-component phraseological units in relation to language in English and Uzbek. It provides a general definition of phraseological units, discusses their communicative roles and language-bound functions. Adjective-component phraseological units serve various linguistic functions, including informative, social, cultural, stylistic, and motivational roles.

Key words: Phraseological unit, adjective-component phraseological units, English language, Uzbek language, communicative purpose, informative function, stylistic function, social function, cultural function, description, speech process.

КОММУНИКАТИВНЫЕ ЦЕЛИ И ФУНКЦИИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ПРИЛАГАТЕЛЬНЫМ КОМПОНЕНТОМ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются коммуникативные цели и функции фразеологических единиц с компонентом прилагательного в английском и узбекском языках. Приведено общее определение фразеологизмов, раскрыты их коммуникативные задачи и функции, связанные с языком. Фразеологизмы с компонентом прилагательного выполняют информационные, социальные, культурные, стилистические и мотивационные функции.

Ключевые слова: Фразеологизм, фразеологические единицы с компонентом прилагательного, английский язык, узбекский язык, коммуникативная цель, информационная функция, стилистическая функция, социальная функция, культурная функция, описание, речевой процесс.

Kirish. Frazeologizm (yunoncha phrasis — «so'z» va logos — «ta'rif») - ma'lum bir ma'noni ifodalovchi, lekin o'ziga xos struktura va grammatik tuzilishga ega bo'lgan, asosan bir butun bo'lib ishlatiladigan turg'un iboralardir. Frazeologizmlar tilning eng muhim ifodaviy vositalaridan biri bo'lib, ular nafaqat tilda ma'lum bir ma'noni ifodalovchi belgilar bo'lib, balki aniq kommunikativ vazifalarni bajaradi.

O'zbek va ingliz tillarida sifat komponentli frazeologizmlar keng tarqalgan va ular turli kommunikativ maqsadlar va funksiyalarni amalga oshiradi. Ushbu frazeologizmning tilga nisbatan qanday kommunikativ maqsadlar va funksiyalarni bajarishini tahlil qilish, tilshunoslikdagi eng muhim masalalardan biridir.

Bu borada ingliz olimlari F.R.Palmer frazeologizmning til tizimidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. U frazeologizmlarni "tulkiy so'zlar" deb ataydi, chunki ular o'zgaruvchan va ma'lum bir ijtimoiy guruhlar va madaniyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Unga ko'ra, frazeologizmlar tilni boyitadi va nutq jarayonida informatsion, hissiy va stilistik funksiyalarni bajaradi. M.A.K.Halliday frazeologizmi tilning "diskurs" qismiga kiradigan element sifatida ko'rib, ularning kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishda yordam

berishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, frazeologizmlar til orqali ma'lumot uzatish va hissiy holatlarni aks ettirishda keng qo'llaniladi. John Sinclair frazeologizmlar tilning jiddiy kommunikativ vositalari ekanligini ta'kidlaydi. U frazeologizmlarni "o'ziga xos, aniq ma'nolarga ega bo'lgan ifodalar" deb ataydi va ularning tildagi kommunikativ vazifalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratadi. A.A. SHermatov frazeologizmlarni tilning yanada boy va rang-barang qatlamlaridan biri sifatida izohlaydi. U frazeologizmlarning kommunikativ funksiyalarini ko'rib chiqib, ularning tilda ma'lumot uzatish, baholash va his-tuyg'ularni ifodalashda ishlatilishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosi X. S. A'zamov frazeologizmlar haqida shunday fikr bildiradi: "Frazeologizmlar xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribalarini aks ettiradi, ular xalqning fikrlash usulini va tilni qo'llash tarzini belgilaydi". Uning fikriga ko'ra, frazeologizmlar tilda xulq-atvor va emotsional holatlarni tasvirlashda katta ahamiyatga ega.

A.M.Qodirov frazeologizmlarni o'zbek tilining asosiy ifodaviy vositalaridan biri sifatida ta'kidlaydi. U frazeologizmlarning kommunikativ funksiyalarini tahlil qilganda, ularning nafaqat tilni boyitishda, balki

kommunikativ vazifalarni bajarishda muhim rol o'ynashini aytadi. Ingliz va o'zbek olimlarining fikriga ko'ra, frazeologizmlar tilning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, ularning kommunikativ maqsadlari va funksiyalari nutq jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilshunoslari frazeologizmlarni tilning kommunikativ va stilistik vositalari sifatida ko'rib, ularning ma'lumot uzatish, his-tuyg'ularni ifodalash va ijtimoiy baholarni aks ettirishdagi rolini ta'kidlaydi. O'zbek tilshunoslari esa frazeologizmlarni xalqning madaniy va tarixiy merosini aks ettiruvchi, tilni boyituvchi vosita sifatida ko'rib, ularning kommunikativ vazifalarini chuqur tahlil qiladilar.

Pragmalingvistika til birliklarining muloqotdagi ishlatilishini, ya'ni gapiruvchining niyati, kontekst, va tinglovchining tushunchasini o'rganadi. Sifat komponentli frazeologizmlar esa, o'zining obrazlilik va ko'p ma'nolilig bilan, aynan shu pragmatik jihatlarni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Pragmalingvistik jihatlarni sifatida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Illokutsion kuch: Frazeologizmlar gapiruvchining niyatini kuchaytiradi. Masalan, ingliz tilidagi "as stubborn as a mule" iborasi shaxsning qaysarligini kuchli tarzda ifodalaydi. O'zbek tilida Eshakdek qaysar – Bu frazeologizm shaxsning o'ta qaysarligini ifodalaydi. Gapiruvchi bu ibora orqali shaxsning qaysarligini kuchli tarzda baholaydi. Kontekstual moslashuv: Bu birliklar kontekstga mos ravishda turlicha ma'no kasb etadi. Masalan, "yuragi toshdek" iborasi turli holatlarda turlicha baholanadi. ingliz tilida kontekstual moslashuvga ega bo'lgan frazeologik birliklar mavjud. Bu degani, bitta idiomani ma'nosi yoki ta'siri u ishlatilgan kontekstga qarab o'zgarishi mumkin. Misol: "Break the ice" Asosiy ma'nosi: Yangi yoki noqulay vaziyatda muloqotni boshlash, muhitni yumshatish. Kontekstual moslashuv: Ijtimoiy vaziyatda: Yangi tanishuvda yoki yig'ilishda suhbatni boshlash uchun ishlatiladi. Misol: "To break the ice at the party, I told a joke". Biznes kontekstida: Yig'ilish yoki muzokarlarda rasmiy muhitni yumshatish uchun qo'llaniladi. Misol: "He broke the ice with a light-hearted comment before the serious discussion began". Bu ibora turli kontekstlarda ishlatilganda, uning ta'siri va maqsadi o'zgaradi, bu esa uning kontekstual moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Pragmalingvistik tadqiqotlar frazeologizmlarning muloqotdagi rolini chuqur o'rganadi. Masalan, Alimova Feruza Askarjanovna o'zining maqolasida zamonaviy ingliz frazeologizmlarining pragmatik funksiyalarini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotlar frazeologizmlarning muloqotdagi ahamiyatini yoritadi.

Kommunikativ funksiya tilning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u axborot uzatish, fikr almashish, his-tuyg'ularni ifodalash kabi jarayonlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu funksiya tilning ijtimoiy va pragmatik jihatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, til orqali insonlar o'z fikrlarini bildiradi, savollar beradi, buyruqlar beradi yoki his-tuyg'ularini ifodalaydi. Bu jarayonlar tilning kommunikativ funksiyasi orqali amalga oshiriladi. Kommunikativ maqsad esa nutq egasining muloqotdagi aniq niyatini bildiradi. Bu maqsadlar quyidagilar bo'lishi mumkin: Axborot berish (informativ maqsad), Emotsional holatni ifodalash (affektiv maqsad), Buyruq yoki iltimos bildirish (imperativ maqsad), Savol berish (interrogativ maqsad, Nutq egasi o'zining kommunikativ maqsadiga erishish uchun tilning turli vositalaridan foydalanadi. Masalan, savol berish uchun so'roq gaplar, buyruq berish uchun buyruq gaplar ishlatiladi.

Sifat komponentli frazeologizmlarning tilga nisbatan kommunikativ maqsadlari – bu so'z birliklarining muayyan vazifalarini ifodalash uchun ishlatilgan va nutq jarayonida belgilangan til resurslarini anglatadi. Sifat komponentli

frazeologizmlar ko'pincha quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

Tushuncha va tasvirlash maqsadi Ingliz va o'zbek tillarida sifat komponentli frazeologizmlar ko'pincha kishining xulqi, tashqi ko'rinishi yoki holatini tasvirlashda ishlatiladi. Masalan:

O'zbek tilida: "Boshi garang bo'ldi" (foydalanilgan sifat — "garang"),

Ingliz tilida: "A bad apple" (foydalanilgan sifat — "bad").

O'zbek tilida: "ko'ngli ochiq" – samimiy va mehmondo'st odamni tasvirlaydi.

Ingliz tilida: "bright-eyed and bushy-tailed" – tetik va faol holatni ifodalaydi.

Bu frazeologizmlar kishining ijtimoiy holatini yoki xatti-harakatini tasvirlaydi va auditoriyani shakllantiradi.

b) Emotsional va baholash maqsadi Frazeologizm sifatida ishlatilgan iboralar ko'pincha biror narsaga nisbatan baho berish yoki emotsional munosabat bildirish maqsadida ham ishlatiladi. Ingliz tilidagi "On cloud nine" (yukori kayfiyatda) yoki o'zbek tilidagi "Yuragi otning kallasi" kabi frazeologizmlar shunday kommunikativ maqsadni ko'zda tutadi. Frazeologizmlar orqali shaxs yoki hodisaga ijobiy yoki salbiy baho beriladi. Masalan: Ingliz tilida: "cheap and nasty" – sifatsiz va arzon narsani bildiradi. O'zbek tilida: "yuzsiz odam" – uyatsiz yoki beandisha shaxsga nisbatan ishlatiladi.

c) Munosabat bildirish maqsadi. Sifat komponentli frazeologizmlar ko'pincha nutq jarayonida ma'lum bir fikrni, his-tuyg'uni yoki munosabatni ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday iboralar ko'pincha o'z nuqtai nazarini bildirishda, yoki kimningdir gapiga javob berishda qo'llaniladi. Sifat komponentli frazeologizmlarning munosabat bildirish maqsadida ishlatilishi ingliz va o'zbek tillarida keng qo'llaniladi. Bu frazeologik birliklar orqali so'zlovchi o'zining bahosi, hissiyoti yoki ijtimoiy munosabatini ifodalaydi. Quyida har ikki tildagi ayrim misollarni ko'rib chiqamiz: As sly as a fox – "Tulkidek ayyor" Bu ibora orqali shaxsning hiylakor yoki ayyorligini ta'kidlaydi. As stubborn as a mule – "Eshakdek qaysar" Shaxsning o'ta qaysarligini ifodalaydi.

Shuningdek, bu frazeologizmlar milliy madaniyat va mentalitetni aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilidagi "Ko'ngli ochiq" iborasi mehmondo'stlik va saxiylikni qadrlashni ko'rsatadi, bu esa o'zbek xalqining madaniyatiga xos xususiyatdir.

Sifat komponentli frazeologizmlar tilning turli funksiyalarini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Ular quyidagi asosiy funksiyalarga ega:

a) Informativ funksiya. Frazeologizmlar tilning eng muhim funksiyalaridan biri sifatida ma'lumot uzatish vazifasini bajaradi. Sifat komponentli frazeologizm orqali so'zlovchi o'z nutqida aniq ma'lumotlarni etkazishga harakat qiladi. Sifat komponentli frazeologizmlar orqali so'zlovchi ma'lum bir holat, xususiyat yoki vaziyat haqida aniq axborot beradi. Misol uchun Ingliz tilida: as clear as day – "aniq, ravshan". O'zbek tilida: kundek ravshan – "aniq, tushunarli". Bu iboralar orqali so'zlovchi ma'lum bir holatning ravshanligini ta'kidlaydi.

b) Ijtimoiy va madaniy funksiya. Sifat komponentli frazeologizmlar, ayniqsa, ma'lum bir madaniyat va an'analar bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni ifodalashda ishlatiladi. Bu frazeologizmlar ma'lum bir xalqning umumiy tasavvurlari, urf-odatlar va qadriyatlarini aks ettiradi. Misol uchun, o'zbek xalqida "ko'ngli ochiq" kabi frazeologizm insonning ijtimoiy jihatdan yuqori baholanadigan sifatlarini anglatadi. Ingliz tilida: as American as apple pie – "Amerikaga xos, milliy".

c) Stilistik funksiya. Frazeologizmlarning yana bir muhim funksiyasi – bu tilni stilistik jihatdan boyitishdir. Sifat

komponentli frazeologizmlar nutqni jonlantiradi, unga rang-baranglik va ta'sirchanlik kiritadi. Bunday frazeologizmlar ko'pincha adabiy asarlarda, she'riy nutqda yoki rasmiy bo'lmagan muloqotda ishlatiladi. Misol: "It's as clear as day" (Ingliz) yoki "Oydek kundek ravshan" (O'zbek). Frazeologizmlar nutqni boyitadi, unga obrazlilik va ta'sirchanlik kiritadi. Ingliz tilida: as brave as a lion – "jasur". O'zbek tilida: yuragi otning kallasi – "qo'rqmas, jasur". Bu iboralar adabiy asarlarda, she'riyatda yoki rasmiy bo'lmagan muloqotda ishlatiladi.

d) Motivatsion funksiya. Sifat komponentli frazeologizmlar ko'pincha biror amalni yoki xatti-harakatni qo'llab-quvvatlash yoki unga qarshi chiqish uchun ishlatiladi. Ular, shuningdek, auditoriyani qandaydir bir fikrga yoki qarorga undashda ham yordam beradi. Bunday frazeologizmlar ko'pincha maslahatlardir: "Don't judge a book by its cover" (Ingliz), "Suvni ko'rmasdan turib etik yechma" (O'zbek). Frazeologizmlar orqali so'zlovchi tinglovchini harakatga undaydi yoki maslahat beradi. Ingliz tilida: don't judge a book by its cover – "tashqi ko'rinishiga qarab baho bermang". O'zbek tilida: suvni ko'rmasdan etik yechma – "shoshilmang, avval o'ylab ko'ring". Bu frazeologizmlar orqali so'zlovchi tinglovchiga maslahat beradi yoki uni ogohlantiradi.

e) Baholovchi (evaluativ) funksiya. Frazeologizmlar orqali shaxs yoki hodisaga nisbatan baho beriladi. Ingliz tilida: as stubborn as a mule – "o'ta qaysar". O'zbek tilida: yuragi toshdek – "rahmsiz, sovuqqon". Bu iboralar orqali shaxsning salbiy yoki ijobiy xususiyatlari baholanadi.

Xulosa qilib aytganda Ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli frazeologizmlar har ikki tilning tilshunoslik xususiyatlarini aks ettiradi. Ular nafaqat tilning ma'lum bir semantik qirralarini yoritishda, balki nutq jarayonida aniq kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Frazeologizmlar tilni boyitadi, ularni til va madaniyatni anglashda, shuningdek, muloqotda keng qo'llashda samarali vositalar sifatida qarash mumkin. Bu frazeologizmlar ko'pincha ma'lumot berish, ijtimoiy va madaniy baholarni ifodalash, stilistik maqsadlarni amalga oshirish, hamda motivatsiya yaratishda ishlatiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli frazeologizmlar tilning turli funksiyalarini bajaradi. Ular orqali so'zlovchi axborot beradi, baho beradi, hissiy holatini ifodalaydi, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiradi, nutqni boyitadi va tinglovchini harakatga undaydi. Bu frazeologik birliklar tilning boyligi va uning madaniyati haqida chuqur ma'lumot beradi.

ADABIYOTLAR

1. Halliday, M.A.K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. London: Edward Arnold. 1978
2. Mahmudov, N. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. Toshkent: O'zME. 2006
3. Shermatov, G.S. O'zbek tilining frazeologik tizimi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2005
4. Shodmonov, A.M. O'zbek tilining frazeologik boyligi va uning kommunikativ funksiyalari. Toshkent: Fan. 2012
5. Sinclair, J. How to Use Corpora in Language Teaching. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company. 2004



UDK:821.161.1

Дилдор БАЗАРОВА,
Доцента университета Экономики и Педагогики
E-mail: bazarova.dildor@gmail.com

Рецензент д.ф.н Н.Юлдошева

POWER AND FREEDOM IN MIKHAIL BULGAKOV'S NOVEL THE "MASTER AND MARGARITA"

Annotation

The article analyzes the categories of power and freedom in Mikhail Bulgakov's novel *The Master and Margarita*, focusing on how these philosophical concepts are represented within the two parallel plotlines of the work. The study employs hermeneutic, semiotic, and philosophical-cultural approaches. Particular attention is given to the metaphysical nature of power embodied in the character of Woland, as well as to the protagonists' spiritual freedom, which is revealed through love and self-sacrifice. The analysis concludes that, within the novel's artistic framework, power is not equated with a political concept, and freedom is not limited to external independence. Instead, both are interpreted as spiritual and existential categories.

Key words: Bulgakov, *The Master and Margarita*, power, freedom, Woland, Pontius Pilate, Yeshua, the Master, Margarita, philosophy, totalitarianism, moral choice, inner freedom, metaphysics, artistic world.

ВЛАСТЬ И СВОБОДА В РОМАНЕ МИХАИЛА БУЛГАКОВА «МАСТЕР И МАРГАРИТА»

Аннотация

В статье рассматриваются категории власти и свободы в романе Михаила Булгакова «Мастер и Маргарита», а также то, как они выражены как философские понятия в двух параллельных сюжетных линиях произведения. Исследование основано на герменевтическом, семиотическом и философско-культурологическом подходах. Особое внимание уделяется метафизической природе власти, воплощённой в образе Воланда, а также духовной свободе героев, проявляющейся через любовь и самоотверженность. В результате анализа делается вывод, что в художественной системе романа власть не отождествляется с политическим понятием, а свобода не ограничивается внешней независимостью. Эти категории интерпретируются как духовные и онтологические явления.

Ключевые слова: Булгаков, Мастер и Маргарита, власть, свобода, Воланд, Понтий Пилат, Иешуа, Мастер, Маргарита, философия, тоталитаризм, нравственный выбор, внутренняя свобода, метафизика, художественный мир.

MIXAIL BULGAKOVNING "USTA VA MARGARITA" ROMANIDA HUKMRONLIK VA ERKINLIK KATEGORIYASI

Annotatsiya

Maqolada Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita" romanida hukmronlik va erkinlik kategoriyalari, ularning falsafiy tushuncha sifatida asarning ikki parallel syujet chizig'ida qanday ifodalangani tahlil qilingan. Tadqiqot geremenevtik, semiotik va falsafiy-madaniy yondashuvlarga asoslanadi, ayniqsa, Voland obrazi orqali ifodalangan hukmronlikning metafizik tabiati, shuningdek, qahramonlarning sevgi va fidoyilik orqali namoyon bo'lgan ma'naviy erkinligiga alohida e'tibor qaratilgan. Tahlil natijasida roman badiiy tizimida hukmronlik siyosiy tushunchaga tenglashtirilmaydi, erkinlik esa tashqi mustaqillik bilan cheklanmaydi, ular ma'naviy va mavjudlik kategoriyalari sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Bulgakov, Usta va Margarita, hukmronlik, erkinlik, Voland, Pontiy Pilat, Iyeshu, Usta, Margarita, falsafa, totalitarizm, axloqiy tanlov, ichki erkinlik, metafizika, badiiy olam.

Введение. Роман Михаила Афанасьевича Булгакова «Мастер и Маргарита» — произведение многослойное, полифоническое и глубоко философское. Центральными темами романа выступают борьба добра и зла, истина и ложь, любовь и предательство. Однако особое место в его художественном мире занимают понятия власти и свободы. Через сложную систему образов, аллюзий, интертекстуальных связей Булгаков исследует, что значит быть свободным и кто обладает настоящей властью — не только над другими, но и над собой. Проблема власти и свободы в романе проявляется на нескольких уровнях: религиозном (отношения Иешуа и Понтия Пилата), социально-политическом (советская Москва), метафизическом (действия Воланда и его свиты) и личностном (судьбы Мастера и Маргариты). Эти категории не поддаются однозначной трактовке: в рамках одного произведения власть может как угнетать, так и

защищать, а свобода — быть желанной и вместе с тем разрушительной.

Актуальность данной темы обусловлена тем, что роман Булгакова остается востребованным для читателя XXI века: вопросы личной свободы, манипуляции, сопротивления системе, нравственного выбора не потеряли своей силы и значимости. Современные социокультурные контексты требуют нового взгляда на булгаковское понимание власти — и прежде всего — свободы как духовной категории.

Методология исследования. В методологической основе данной статьи лежит междисциплинарный подход, сочетающий литературоведческий, философский и культурологический анализ. Используются следующие основные методы:

1. Герменевтический анализ. Этот метод позволяет проникнуть в смысловые глубины текста, интерпретируя его не как линейный нарратив, а как сложную систему

символов и аллюзий. Герменевтика позволяет рассматривать фигуру Воланда как воплощение метафизической власти, а Маргариту — как носителя духовной свободы.

2. Семиотический подход. Применяется для анализа символических структур произведения. Власть как символическая категория проявляется через архитектуру (Кремль, психиатрическая клиника, подземелье Пилата), пространство (Иерусалим vs Москва), образы животных и стихий (например, кот Бегемот, огонь, полёт).

3. Философская критика. Позволяет рассматривать роман в контексте идейных влияний — как восточной (Григорий Сковорода, религиозная философия), так и западной (Бердяев, Камю, Ницше) философской традиции. Особое внимание уделяется категориям свободы в экзистенциальной парадигме.

4. Историко-культурный метод. Привлекается для установления связи между темой власти в романе и реальными условиями советской действительности 1930-х годов: тоталитаризм, страх перед государственным репрессивным аппаратом, цензура и самоцензура, изоляция художника.

5. Сравнительно-типологический анализ. Используется для сопоставления булгаковской интерпретации власти и свободы с образами из мировой литературы и философии: Христа, Фауста, Мефистофеля, Сократа.

Таким образом, методологическая база исследования позволяет рассматривать роман как сложный философско-художественный текст, где власть и свобода выступают не только как социальные и политические категории, но и как духовные универсалии.

Анализ и результаты исследования. 1. Власть и свобода в библейской линии (Иешуа и Понтий Пилат) Роман Булгакова содержит два параллельных повествования, и первое из них — «евангельская» линия, в которой представлены персонажи Иешуа Га-Ноцри и прокуратор Иудеи Понтий Пилат. Эта сюжетная линия иллюстрирует глубинное философское столкновение: внешняя власть и внутренняя свобода. Пилат представляет собой образ человека, обладающего формальной, имперской властью, но при этом глубоко несвободного в своем внутреннем мире. Он боится доноса, опасается императора Тиберия, действует из страха, а не из убеждений. Его слабость — не в отсутствии власти, а в неспособности реализовать волевое решение. Он хочет спасти Иешуа, но не решается.

«Он был трус, и это самое страшное, что может быть на свете». Эта фраза становится центральным обвинением, которое разрушает его как человека. Страх перед системой, политической властью, общественным мнением делает Пилата заключённым — в отличие от Иешуа, который предстаёт как абсолютно свободная личность, даже в момент смерти. Свобода Иешуа — внутренняя, духовная. Его способность прощать, говорить правду, оставаться спокойным перед лицом страха — вот настоящий символ власти духа.

Таким образом, Булгаков демонстрирует: истинная власть — не политическая, а духовная, а подлинная свобода — не в независимости от обстоятельств, а в верности собственному нравственному выбору.

2. Власть и свобода в московской линии. Вторая сюжетная линия романа — события в Москве 1930-х годов, представляет собой сатирическое изображение тоталитарного режима. Здесь власть — абсурдна, репрессивна, карикатурна. Она выражается в цензуре (литературный критик Латунский, правление

МАССОЛИТа), в страхе, в самоограничении. Мастер оказывается жертвой этой системы. Он пишет роман об Иешуа и сталкивается с неприятием со стороны литературного истеблишмента. Его творчество, его внутренний голос — опасны для системы, поскольку выходят за рамки дозволенного. Отказ от борьбы, страх, утрата воли — всё это ведёт Мастера в клинику, к самоизоляции. Его имя символично отсутствует — он безымянен, как и все несвободные в обществе. Маргарита — символ личной свободы. Маргарита, напротив, делает осознанный выбор. Её любовь к Мастеру и её решимость освободить его делают её подлинно свободной. В сцене превращения в ведьму, в полёте, в отказе от прежней жизни (мужа, социального положения) она перешагивает границы условностей. Она не боится власти Воланда, вступает в договор с ним — но не ради выгоды, а ради любви.

«Я бы за него пошла и к Воланду, и к дьяволу, и в ад...»

Маргарита — образ человека, способного выбирать, даже в условиях сверхъестественного давления. В сцене бала Сатаны она сохраняет достоинство, отказывается от награды. Тем самым она утверждает свободу — и заслуживает милость: она получает «покой» вместе с Мастером.

3. Воланд и его свита: метафизика власти. Воланд и его спутники — особая форма власти. Это не сатанизм в классическом понимании, а функция восстановления справедливости, баланса. Воланд не карает без причины. Его власть избирательна, иронична, иногда жестока, но всегда логична. Его сила — в знании, в наблюдении, в способности распознать истинное.

Он не нарушает свободу воли: он предлагает, но не навязывает. Мастер и Маргарита сами делают выбор. Он не спасает, но награждает — в пределах заслуженного. В этом плане Воланд противоположен государственной власти в Москве: он не строит тоталитарной системы, а даёт каждому по делам его.

«Каждому будет дано по вере его...»

Таким образом, Воланд — аллегория высшей власти, но не деспотической, а нравственной, восстанавливающей порядок. Его власть — вне политических систем, и это приближает её к христианской концепции Божественного Суда.

4. Мастер и Маргарита: свобода как гармония духа. Свобода в романе не тождественна жизни. Мастер и Маргарита не возвращаются к прежнему существованию, не получают бессмертия — они получают «покой». Булгаков осознанно избегает глупого хэппи-энда: его герои не обретают земного счастья, но достигают внутреннего освобождения.

Мастер освобождён от страха, от душевной боли. Маргарита — от бездействия и одиночества. Их финал — пример того, что свобода как категория — не внешняя, а внутренняя. Это не право, а состояние духа, достигнутое через страдание, выбор, любовь.

Выводы. Анализ произведения Михаила Булгакова «Мастер и Маргарита» в аспекте категорий власти и свободы позволяет сделать ряд содержательных обобщений, касающихся как художественной структуры романа, так и его философской глубины.

Во-первых, Булгаков противопоставляет власть внешнюю — политическую, административную, деспотическую — власти внутренней, духовной. Через образы Понтия Пилата и Иешуа, Воланда и Мастера, литературных чиновников и Маргариты автор показывает, что настоящая власть проявляется не в насилии или

контроле, а в способности действовать по совести, независимо от страха или давления.

Во-вторых, свобода в романе — это не социальное положение, а нравственная категория. Даже находясь в тюрьме, как Иешуа, или в клинике, как Мастер, человек может быть свободным, если он сохраняет верность себе. И напротив, политические деятели, критики, представители «литературного официоза» оказываются несвободными, несмотря на привилегированное положение, потому что внутренне подчинены страху и корысти.

Булгаков утверждает, что свобода — это прежде всего личный выбор, акт нравственного мужества. Герои, способные идти на жертву ради любви, правды, искусства — Маргарита, Мастер, Иешуа — оказываются носителями высшей формы свободы, духовной независимости.

В-третьих, в художественном мире романа власть приобретает метафизическое измерение. Воланд — символ справедливого, хоть и мрачного суда, он даёт

каждому по заслугам. Его власть принципиально отличается от земной — она построена не на приказе, а на понимании глубинной сути вещей. Через этот образ Булгаков, по сути, переосмысливает христианское понятие высшей справедливости, выводя читателя за пределы материалистической реальности.

Таким образом, «Мастер и Маргарита» — это роман не только о любви и мистике, но и о экзистенциальном выборе, о борьбе между страхом и волей, между подчинением и творческой свободой. В условиях тоталитарного режима, в котором жил Булгаков, такие размышления были не просто актуальны — они были опасны и мужественны. Автор романа не даёт готовых рецептов, но призывает к размышлению: что такое свобода? где граница между добром и злом? можно ли иметь власть и при этом не быть тиранами? Ответы на эти вопросы каждый читатель должен найти самостоятельно, пройдя путь героев и осмыслив собственные жизненные ориентиры.

ЛИТЕРАТУРА

1. Булгаков М.А. Мастер и Маргарита. — М.: АСТ, 2020.
2. Бердяев Н.А. О свободе. — М.: Республика, 1994.
3. Лосев А.Ф. Диалектика мифа. — М.: Мысль, 1991.
4. Катаев В.Б. Творческий путь Михаила Булгакова. — М.: Наука, 1989.
5. Гроссман Л.П. Михаил Булгаков: Жизнь и творчество. — СПб.: Азбука, 2007.



UDK:811.93

Ziyoda BAZAROVA,
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: bazarovaziyo2025@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor Sh.Mamarayimova taqrizi asosida

QISQA HIKOYALARDA LISONIY SHAXSNI SHAKLLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI MAXSUS BIRLIKLAR

Аннотация

Maqolada qisqa hikoyalarda lisoniy shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi maxsus birliklar o'rtasidagi munosabat ko'rib chiqilib, lingvistik shaxs tuzilishining xususiyatlari ko'rsatilgan. Muallifning xulosasiga ko'ra, til birliklari nutq egasining individual tarzda dunyoni lisoniy tasvirlashda alohida ahamiyatga ega. Bu esa, nutq uslublari lisoniy shaxs tiplarini hosil qilishda qo'llanuvchi maxsus birliklari, o'ziga xos nutqiy ifodalarga ega bo'lgan birliklarning o'rinli va maqsadli qo'llanilganligi matn yaratuvchining lisoniy qobiliyati, til birliklardan foydalanish mahoratini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Lisoniy shaxs, qisqa hikoya, maxsus birliklar, lisoniy tasvirlash, nutqiy ifoda, matn yaratuvchining lisoniy qobiliyati, til birliklardan foydalanish mahorati.

СПЕЦИАЛЬНЫЕ ЕДИНИЦЫ, КОТОРЫЕ СЛУЖАТ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЯЗЫКОВОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В РАССКАЗАХ

Аннотация

В статье рассматривается соотношение специальных единиц, формирующих языковую личность в рассказах, а также показываются особенности структуры языковой личности. По заключению автора, языковые единицы имеют особое значение в индивидуальном языковом описании мира говорящим. Это свидетельствует об уместном и целенаправленном использовании специальных единиц, используемых при формировании стилей речи и языковых типов личности, единиц со специфическими речевыми проявлениями, которые свидетельствуют о языковой компетентности создателя текста и мастерстве использования языковых единиц.

Ключевые слова: Языковая фигура, короткий рассказ, специальные единицы, языковое описание, речевое выражение, языковая способность создателя текста, умение использовать языковые единицы.

SPECIAL UNITS THAT SERVE TO FORM A LINGUISTIC PERSONALITY IN SHORT STORIES

Annotation

The article examines the relationship between special units that serve to form a linguistic personality in short stories and shows the features of the structure of a linguistic personality. According to the author's conclusion, linguistic units are of particular importance in the individual linguistic description of the world by the speaker. This means that the appropriate and purposeful use of special units used in the formation of types of linguistic personalities, speech styles, units with their own speech expressions, indicates the linguistic ability of the text creator, the skill of using linguistic units.

Key words: Linguistic personality, short story, special units, linguistic description, speech expression, linguistic ability of the text creator, skill of using linguistic units.

Kirish. O'zbek tilshunosligi sohasidagi zamonaviy ilmiy izlanishlar sharoitida til inson faoliyati va ongi bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida o'rganiladigan antropotsentrik paradigmaga e'tiborni kuchaytirish tendensiyasi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu paradigmmani ilmiy tushunish lingvistik shaxs, lingvistik ong, nutq vaziyati va lingvistik zaxira tushunchasi kabi asosiy tushunchalarni faol kiritish va qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Bu kategoriyalar til va uning so'zlashuvchilari o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishda muhim rol o'ynaydi, nutq xatti-harakatlarini keng ijtimoiy-madaniy kontekstda izohlash uchun asos yaratadi.

Ta'kidlash kerakki, mahalliy tilshunoslik an'analari til faoliyatining pragmalogik, kognitiv va lingvomadaniy jihatlari har tomonlama o'rganishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar allaqachon shakllangan. Nutq tuzilmalarining gender belgilari va til birliklarining ijtimoiy tabaqalanishi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda, bu esa til hodisalarini tahlil qilishda har tomonlama va fanlararo yondashuvdan dalolat beradi. Ijoiy o'zgarishlarga qaramay, bu soha hali boshlang'ich bosqichida va qo'shimcha nazariy asoslash va empirik mazmunni talab qiladi.

Rivojlanayotgan o'zbek antropotsentrik tilshunosligi doirasidagi dolzarb va yetarlicha o'rganilmagan masalalardan biri badiiy nutqda ifodalangan til shaxslari tipologiyasini o'rganishdir[1]. Badiiy matnni til shaxsi nuqtai nazaridan tahlil qilish nafaqat personajlarning og'zaki o'zini o'zi ifodalash xususiyatlarini chuqurroq tushunishga, balki milliy til ongini shakllantirishning yanada keng madaniy va psixologik mexanizmlarini ochib berishga imkon beradigan istiqbolli yo'nalishdir. Shunday qilib, antropotsentrik tilshunoslikning keyingi rivojlanishi til, tafakkur va madaniyatning murakkab o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi ko'p qirrali hodisa sifatida til shaxsini tizimli va har tomonlama o'rganishni nazarda tutadi.

XXI asrda gumanitar bilimlarning jadal rivojlanishi sharoitida tilshunoslik fani lingvistik muloqotda inson omilini ko'p qirrali tushunishga qiziqish ortib borayotganini ko'rsatmoqda[2]. Zamonaviy nazariy va uslubiy yondashuvlar nuqtai nazaridan, insonning nafaqat til foydalanuvchisi, balki nutq faoliyati orqali qadriyatlar, ma'nolar va madaniy kodlarning faol tashuvchisi va uzatuvchisi sifatidagi rolini qayta ko'rib chiqish alohida ahamiyatga ega. Aynan shu holat

nisbatan yangi yo'nalish - lingvistik shaxs yoki lingvoshaxslik nazariyasining shakllanishi va ilmiy nutqda o'rnatilishi uchun asos bo'ldi. Ushbu paradigma nuqtai nazaridan, shaxs nutq aktining mavhum subyekti sifatida emas, balki so'zlashuv faoliyati ichki dunyo, ijtimoiy-madaniy o'ziga xoslik, etnik va individual fikrlash uslubi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan integral lingvistik shaxs sifatida talqin etiladi.

Til tufayli inson nafaqat kommunikativ maqsadlarni amalga oshiradi, balki madaniy va milliy xususiyatlarni etkazadi, jamoa ongida mustahkamlangan va avloddan avlodga o'tadigan barqaror nutq shakllarini shakllantiradi. Shunday qilib, tilshunoslik mustaqil tadqiqot paradigmasi sifatida shakllanadi, kognitiv, madaniy, sotsiallingvistik va pragmalingvistik an'analarni chorrahasida joylashgan. Binobarin, yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni aytish mumkinki, til shaxsi nazariyasining rivojlanishi lingvistik tahlil chegaralarining kengayishi va tilni inson bilan uzviy bog'liqligi – uning ongi, tajribasi, madaniyati va jamiyatdagi faoliyati bilan o'rganishga qiziqishning chuqurlashishining tabiiy natijasi bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qisqa hikoyalarda lisoniy shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi maxsus birliklarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. V.I.Karasik lisoniy shaxs muammosining psixologik, sotsiologik, kulturologik va lingvistik yo'nalishlarda o'rganilishini bayon qiladi[3].

Y.Karaulov lisoniy shaxsga quyidagicha tavsif bergan: «Men lisoniy shaxs deganda nutqiy asar (matn)ning yaratilishi va idrok etilishi sharti bo'lgan insonning

struktur-lisoniy jihatdan murakkabligi darajasi;

olamni aks ettirishining qay darajada aniqligi va chuqurligi;

aniq maqsad tomon yo'nalganligiga ko'ra, bir-biridan farqlanuvchi qobiliyatlari va xususiyatlari jamini tushunaman. Bu tavsifda insonning qobiliyatlari ular tomonidan yaratilgan matn xususiyatlari bilan bog'lanadi» [4].

Semantik invariantning o'rnatilishi o'ziga xos ma'no «siljishi» yo'li bilan sodir bo'ladi. Masalan, «acte», (acte de naissance, acte d'une pièce de théâtre), pièce (pièce de drap, pièce en trois actes) [7] so'zlarining ma'nolarini aniqlashda qiyinchilik tug'iladi, chunki so'zning semantik strukturasi ko'pincha uzoq tarixiy rivojlanish natijasi bo'lib, har doim ham so'z ma'nolarini bog'lovchi zvenoni topish qiyin. Shu tariqa ko'p ma'noli so'zning semantik strukturasi bosh (boshlang'ich) va ikkinchi darajali (yasama) ma'nodan iborat. Asosiy ma'no kontekst ma'nosini eslatuvchi so'z birinchi ongimizda hosil bo'ladi va pragmatik jihatdan ko'proq, sintagmatik jihatdan kamroq asoslanadi. Bir leksik-semantik paradigmaga kiruvchi so'zning asosiy ma'nosi boshqa so'zga qarama-qarshi qo'yilganda ochiladi, masalan: «prendre» – «olmoq» – «donner» – «bermoq» yoki bir sinonimik qator: prendre, saisir, empoigner, syemparer, attraper kabi. Ko'p ma'noli fe'llning boshqa ma'nolari so'z birikmalari, fe'lli konstruksiyalar, kontekstlarda ochiladi, masalan: «prendre l'occasion, prendre qn en amitié, prendre des ordres, prendre femme, prendre une personne pour une autre» [1] va h.o.

Frantsuz tilida polisemiya ko'p ishlatiladigan leksik birliklar orasida ko'pchilikni tashkil etadi. So'zning polisemiyasini o'rganish, uning qo'llanilish chegarasini aniqlash so'zning turli xil ma'nosiga qaramasdan so'z birligini saqlanib qolishi yoki so'z birligi ifoda etayotgan ma'nolar orasidagi bog'liqlik yo'qolganda, bitta so'zning leksik-semantik variantlari o'rniga talafuzi bir xil bo'lgan turli xil so'zlar – omonimlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishni nazarda tutadi. Ba'zi o'rinlarda normativ yo'nalishdagi lug'atlar (Petit Robert) ko'pincha so'z birligini saqlab qoladi, ba'zi lug'atlarda (Dictionnaire du français contemporain) esa ko'p ma'noli so'zlarni omonimlarga bo'ladi. Frantsuz tilida polisemiya ko'p ishlatiladigan leksik birliklar orasida ko'pchilikni tashkil etadi. So'zning polisemiyasini o'rganish, uning qo'llanilish chegarasini aniqlash so'zning turli xil ma'nosiga qaramasdan so'z birligini saqlanib qolishi yoki so'z birligi ifoda etayotgan ma'nolar orasidagi bog'liqlik yo'qolganda, bitta so'zning leksik-semantik variantlari o'rniga talafuzi bir xil bo'lgan turli xil so'zlar – omonimlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishni nazarda tutadi. Ba'zi o'rinlarda normativ yo'nalishdagi lug'atlar.

Polisemiya va omonim uchun umumiylik bir so'zning bir nechta ma'noda qo'llanilishi bo'lib, shakli jihatdan o'xshash va mazmun jihatidan turlichaligidir. Paydo bo'lishi polisemiya bilan bog'liq omonimlar ham talafuzi, ham yozilishi jihatdan bir xil bo'lsa omofonlar yoki omograflar deyiladi. Semantik omonimlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin: «glace» – «muz» – «glace» «oyna»; «génie» – «qobiliyat» – «génie» (harb.) «in-jenerlik ishi»; «jumelle» (mr. jumeau) – «egizak» – «jumelle(s)» – «binokl»; «ordonnance» – «qorovul» – «ordonnance» – «retsept»;

«tirer» – «tortmoq» – «tirer» – «otmoq»; «goutte» – «tomchi» – «goutte» – «podagra» va b.o [4].

Polisemiya va omonim chegarasini aniqlash sema tahlili yordamida amlaga oshiriladi: agarda ma'nolar o'rtasida umumiy semantik element saqlangan bo'lsa, ularni polisemiya deyishimiz mumkin. «Ami» – «do'st» va «ami» – «do'stona» yoki «violon» – «skripka» va «violon» – «skripkachi» so'zlari bir ma'noli so'zlardir, semalar o'rtasidagi umumiy semantik bog'liqlik saqlanib qoladi, semlar o'rtasida metafora, metonimiya kabi semantik derivatsion bog'liqlik o'rnatish mumkin. Umumiy semantik elementning yo'qligi esa omonimni bildiradi, masalan «grève» – «ish tashlash» – «grève» – «qum qirg'oq», «voler» – «uchmoq» – «voler» – «o'g'irlamoq» kabi [9].

«Grève» – «ish tashlash» so'zi 1803 yilda paydo bo'lgan Grev maydoni, ilgari place de l'Hôtel-de-Ville nomidan olingan. Mazkur so'z bilan bog'liq «Place de Grève», «faire grève» kabi idiomatik iboralar ham mavjud. Biroq uning etimologiyasi XIX asrda paydo bo'lgan, ungacha bu so'z qum yoki shag'al plyaj ma'nosini bildirgan. U yer Parijning kemalari to'xtaydigan qirg'oq bo'lgan va Grev maydoni deb atala boshlangan. XIX asrdan boshlab, ishsizlar ish topish ilinjida Grev maydoniga yig'ila boshlagan. shuning uchun ham «être en grève» va «faire grève» 1845 yildan boshlab «ishsiz bo'lmoq», «ish izlamoq» ma'nosida qo'llanila boshlagan. Keyinroq esa yollanma ishchilar ish sharotidan norozi bo'lib, ish joylarini tashlay boshlaganlar va Grev maydonida yig'ilganlar, shundan «être en grève»/«faire grève» ma'nosi o'zgarib, zamonaviy «ish tashlamoq» ma'nosida qo'llanilgan. Shu tariqa «Grève» – «ish tashlash» so'zining ma'nosi «qum qirg'oq» so'zining ma'nosi bilan bog'liq. Mazkur so'zning turli xil yasama so'z va iboralar omonim mezonlari sifatida xizmat qiladi. Bu mezon ko'pgina lug'atlarda keng qo'llaniladi, masalan «grève» – «ish tashlash» so'zi quyidagicha yasama so'z asosiga ega «grèviste, antigrève, se mettre en grève, faire grève»; «voler» «o'g'irlamoq» so'zi esa «voleur» – «o'g'ri», «volerie»

«o'g'rilik» [6] kabi o'zak so'zdan hosil bo'lgan yasama ma'nolarni beradi.

Xulosa qilib aytganda, ba'zibir so'zlar faqat bitta ma'noni anglatadi. Ammo frantsuz tilidagi so'zlarning aksariyat qismi ko'p ma'noga egadirlar. Bu hodisa tilshunoslikda polisemiya nomi bilan ataladi. Polisemiya ko'p ma'noga ega bo'lgan bir so'zning o'ziga xos xususiyatidir yasama so'zlarning mezonlarini semantik mezon qatorida qo'llash mumkin, chunki so'zning aniq polisemiyasi holatida ham turli xil yasama so'zlar hosil qiladi.

Polisemiyaning omonimlardan farqlash lozim. Polisemiya so'zlarning ko'p ma'noliligi bo'lsa, omonimiya so'zlarning shakl va talaffuzi bir xilligi, ma'nolarning esa ko'p xilligidir. Frantsuz tilida omonimlarning omograf va omofon deb nomlanuvchi ko'rinishlari mavjud. Omograflar yozilishi bir xil so'zlar bo'lsa, omofonlar esa talaffuzi bir xil, yozilishi farqlanuvchi so'zlardir. Turli so'z turkumlariga kiruvchi so'zlar bir-biriga omonim bo'la oladi.

Ba'zibir so'zlar faqat bitta ma'noni anglatadi. Ammo frantsuz tilidagi so'zlarning aksariyat qismi ko'p ma'noga egadirlar. Bu hodisa tilshunoslikda polisemiya nomi bilan ataladi. Polisemiya ko'p ma'noga ega bo'lgan bir so'zning o'ziga xos xususiyatidir.

So'z asl ma'nosiga va ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Asl ma'no so'zning birinchi ma'nosi, uning eng aniq ma'nosidir. Ko'chma ma'no esa uning hosil qilingan ma'nosi, obrazli ma'nosidir. Matnda so'zning ma'nosini tushuntirib berish uchun kontekstda so'z qaysi ma'noda kelayotganini e'tiborga olmoq zarur.

So'zning semantik maydoni uning turli ma'nolarini o'zida jam qilgan bo'ladi. Demak, so'z o'z ma'nosini quyidagi hollarda o'zgartirishi mumkin:

- kontekstdagi vazifasiga qarab;
- asl yoki ko'chma ma'noga egaligiga qarab.

So'zning semantik maydonini bilish uchun uning turli ma'nolarini lug'atdan qidirib topishning o'zi kifoya qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Gak V.G. Языковье преобразованиа. М.: Высшaya shkola, М.: Высшaya shkola, 1989. – 800 s.
2. Mustafayeva G.S. Ko'p va keng ma'noli homme so'zining kontekstlardagi tarjimasi xususida. Qarang:Badiii tarjima tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatlararo aloqalar kontekstida (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Jizzax, 2011 yil, 22-23 aprel), 96-b.
3. Smirnitkiy A. I. Leksikologiya angliyskogo yazyka. М.: Moskovskiy Gosudarstvennyy Universitet, 1998. – 260 s.
4. Benveniste E. Problèmes de linguistique générale, Paris, PUF. 1974.
5. Breal M., Essai de sémantique (science des significations), Paris, Hachette, 1997.
6. Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française, réd. dirigée par Alain Rey et Josette Rey-Debove, 2e édition, Paris, 1992. – 1552 p.
7. Dictionnaire du français contemporain. Paris, Librairie Larousse. 2001. – P.58.
8. Entsiklopedicheskiy slovar, M., "M", 1985. – 1025 s.
9. Ganshina K. A. Frantsuzsko-russkiy slovar. М., «Russkiy yazyk», 1982. – 878 s.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. M., "Rus tili" nashriyoti, 1981, 1-jild, 597b.



UDK: 81'276.6:355.

Matluba MAXMUDOVA,
TDO'TAU tayanch doktranti
E-mail: matlubamahmudova1812@gmail.com

TDO'TAU professori Z.Xolmanova taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDAGI CHEGARA KELISHIGIGA DOIR

Annotatsiya

Kelishik kategoriyasi – har bir tilda alohida grammatik shaklda va mazmunda namoyon bo'ladi. Turkiy tillarda ham o'ziga xos tizimga egadir. Kelishik kategoriyasi turkumni emas, balki sintaktik vazifani belgilovchi shakl hisoblanadi. Ushbu maqolada – gacha qo'shimchasining kelishik sifatidagi xususiyatlari o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kelishik, kategoriya, Grammatik ko'rsatkich, Grammatik shakl, chegara kelishigi.

ABOUT BORDER AGREEMENT IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

The category of Case appears specific form in every language. According to linguistic theories language of Turkiy possess own system. The specific characters of –gacha are learned and explored in this article.

Key words: Case, category, wordcomposition, affix, grammar form, grammatical structure.

О ПОГРАНИЧНОМ СОГЛАШЕНИИ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В Узбекском языке литературное словообразование немного отличается от речевого словообразования. При общении в словосочетаниях глаголы обычно не заметны, в отличии от других иностранных приватизированных слов и фраз.

Ключевые слова: Акцент, диалект, словообразование, дополнительное слово и тогдали.

Kirish. Umumiy va xususiy grammatik ma'no grammatik shaklda Kelishik kategoriyasi- Biror asosga son kategoriyasi shaklidan keyin (qatnashsa, egalik qo'shimchasidan hurmat shaklidan keyin kelib, ammo tuslovchidan oldin) qo'shilib, odatda sintaktik munosabat ko'rsatish uchun xizmat qiladigan grammatik shakllar sistemasiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Biror bir so'zning kelishik shakllarini olib o'zgarishiga turlanish deyiladi, kelishik shaklining o'zi esa turlovchi deb yuritiladi. Turlovchi grammatik morfemalarning shakl yasovchi turiga mansub. Kelishik o'zi qo'shilgan so'zni tugal shakllantiradi, asosni so'zga aylantiradi, shu jihatdankelishik so'zning morfematik tarkibida odatda tugallovchi shakl bo'ladi (Kesim vazifasini bajargan, ko'makchi bilan kelgan so'z bundan mustasno, albatta).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida olti kelishikli sistema mavjud: Bosh kelishik, Qaratqich kelishigi, Tushum kelishigi, Chiqish kelishigi, Jo'nalish kelishigi, O'rin-payt kelishigi. Bulardan faqat bosh kelishik shaklining maxsus ko'rsatkichga, qo'shimcha shakliga ega emas (nol ko'rsatkichli). Qolgan kelishiklarning har biri ma'lum qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi: gul (bosh kelishik shakli); gulning (qaratqich kelishigi shakli); gulni (tushum kelishigi); guldin (chiqish kelishigi shakli); gulda (o'rin kelishigi shakli); gulga (jo'nalish kelishigi shakli). Olti kelishik shaklining ma'nosi, gapdagi sintaktik vazifalari o'zbek tili grammatikasiga oid adabiyotlarda yaxshi bayon etilgani uchun bu o'rinda ular haqida maxsus to'xtab o'tirmaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida kelishik shaklining o'rganilish tarixi tilshunos A.G'ulomov tadqiqotidan boshlandi. [G'ulomov A., 92 b.] Olim o'zbek tilidagi kelishikni ajratib, asosiy ma'noviy va sintaktik xususiyatini aniqladi – kelishik sistemasini tikladi. Shundan so'ng kelishik kategoriyasining alohida shakli formal

tadqiq usuli asosida I.Ziyoyeva, T.Inoyatov, A. Yo'ldoshev, G. Ro'ziyev, A.Ma'rufov R.Rasulov,SH.Rahmatullayev kabilar tomonidan atroflicha tadqiq qilindi. Ular tadqiqotida kelishikning nutqiy ma'nosi va sintaktik xususiyati yoritildi.

Kelishikning sistemaviy tadqiqi H.Ne'matov, Sh. Shahobiddinova, Z.Qodirov tomonidan amalga oshirildi. Olimlar ishida kelishik kategoriyasining umumiy – lisoniy grammatik ma'nosi tiklandi.

Chegara shakli va chegara kelishigi haqida. O'zbek tilida otlarning maktabgacha, shishgach so'zlarida yasovchi qo'shimcha borligiga shubha yo'q. Bu ko'rinishdagi so'zlardagi yasalish lingvistik adabiyotlarda, o'zbek tili darslik va qo'llanmalarida ravish yasalishi deb ta'riflanar, lekin hech bir ishda, tadqiqotda, darslikda shakl yasalishi sifatida qaralmas edi. Biroq keyingi vaqtda ayrim ishlarda -gacha qo'shimchasini olgan so'z otlarning alohida bir shakli sifatida ajratila boshladi. Masalan, Hamid Ne'matov o'zbek tilida otlarning -gacha qo'shimchasi yordamida yasaluvchi (Qashqadaryogacha kabi) maxsus shakli borligini va bu shakl alohida bir kelishik chegara kelishigi shakli deb qaralishi kerakligini ta'kidlaydi. Shavkat Rahmatullaev esa dahlizgacha, allamahalgacha kabi shakli alohida bir kelishik shakli emas va bu kabi so'zlarda qo'shimcha emas, balki -gacha mustaqil qo'shimcha, chegara ma'nosini bildiruvchi yuklama deb hisoblaydi. Demak, Qashqadaryogacha, universitetgacha, uygacha kabi ko'rinishlarida qo'shimchaning kelishik kategoriyasi a'zosi bo'la olishi yoki bunday shakl emasligi haqida gapirishdan oldin, avvalo, qanday shakl bo'lishidan qat'iy nazar, u otning alohida bir (maxsus) shakli bo'la olish yoki bo'la olmasligiga to'xtalish, shu narsani belgilab olish kerak.

Buning uchun esa, birinchi navbatda, Samarqandgacha, maktabgacha, uygacha kabi so'zlardagi -gachaning yaxlitligicha bir qo'shimcha yoki undagi -ga va -

cha o'zicha mustaqil ekanini belgilab olish lozim bo'ladi. Hamid Ne'matovning maqolasida, garchi hech qanday ilmiy isbot keltirilmasa-da, -gacha bir qo'shimcha deb tan olinadi. Shavkat Rahmatullayev esa maktabgacha, dahlizgacha kabi so'zlardagi -ga va -cha har jihatdan o'z mustaqilligini saqlaganligining, bunda yaxlit bir -gacha qo'shimchasi yo'qligining isboti uchun bir qator (besh bosqichdan iborat) dalillar keltiradi.

Shavkat Rahmatullayev uygacha, maktabgacha kabi so'zlarda bir butun -gacha affiksi yo'qligi, bularda -ga va -cha mustaqil til birliklari ekanini haqida gapirganda avvalo, bularda -ga va -cha o'z ma'nolari bilan qatnashishini, jumladan chegara ma'nosi bevosita -cha elementiga xosligini dalil qilib ko'rsatadi. Haqiqatda ham bunday so'zlarda ifodalanadigan chegara ma'nosini -chasiz tasavvur etib bo'lmaydi: Naq tog'lar tepasidagi sorlargacha cho'zilib ketuvchi noyob Santosh o'rmonzori mana shu yerdan boshlanardi. (CH. Aytmatov.) Otning badanlari dirillar, bo'ynini cho'zib tomog'ining taglarigacha suvga tutab berardi. (Said Ahmad.) Bu qo'ng'iroq Issiqko'l beshiklarida hozirgacha ham yangrab turibdi. (CH. Aytmatov.)

Hatto, so'z tarkibida jo'nalish kelishigi ko'rsatkichi (-ga) bo'lmagan hollarda ham -cha yordamida „chegara“ ma'nosi ifodalanadigan holatlar bor: Ochil buva hozircha voqealarni batafsil gapirmay, ko'rganlardan duoyi salom topshirdi. (A. Muxtor.) Toshga qarab o'rlab ketgan asfalt yo'lining ikki yoni ko'z ilg'aguncha. haydalgan yerlar, ariqlar, zovurlar... (O.Yoqubov.) Onam bilan kelin ayam ayvoni sal yig'ishtirib, joy hozirlagunlaricha biz hovlida birpas suhbatlashib turdik. (P. Qodirov.) O'sha, Boburni kuzatib qaytgan kechasi yechib qo'ygancha taqqani yo'q. (R. Fayziy.)

Shular, ya'ni chegara ma'nosining bevosita -chaga xosligi va uning o'rnida shu ma'noni ifodalay oladigan qadar ko'makchisini qo'llash mumkinligi (so'z tarkibida -chaning ajralishi mumkinligi) uygacha, tizzasigacha, hozirgacha kabi so'zlarda -cha ni o'zi -ga bir biridan mustaqildek ko'rsatadi. Lekin bunday so'zlarda -chaning o'ziga mustaqilligini yoki -gacha bir butun holda bir qo'shimcha ekanini belgilashda, bizningcha, quyidagilarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Avvalo, uygacha, yozgacha kabilarda -cha o'ziga mustaqil til birligi deb qaraladigan bo'lsa, u holda -chaning vazifasi, uygacha, yozgacha shakli uyga va yozga shaklidan farqlanadigan alohida bir shaklmi yoki bir xil shakl ekanini aniqlanishi kerak bo'ladi. Agar alohida shakl bo'lsa, qanday shakl ekani, alohida shakl bo'lmasa, -chaning qanday vazifani bajarishi aniqlanishi kerak. Demak, -cha o'zicha mustaqil deb qaralgan-da, u shakl yasovchimi yoki boshqa vazifani bajaruvchimi ekani haqida gapirish kerak bo'ladi. Bu masala bo'yicha faqat Shavkat Rahmatullayevgina aniq o'z qarashini bildirgan. Olimning fikricha, bunday so'zlardagi -cha chegara ma'nosini ifodalovchi yuklama. Demak, -cha hech qanday shakl yasovchi emas va uygacha, yozgacha ko'rinishdagi so'zlar uyga, yozga tipidagi shakldan farqli maxsus shakl emas deb qaraladi. Chunki yuklama, garchi u qo'shimcha ko'rinishida bo'lsa-da, so'z shaklini hosil qilmaydi.

Lekin ko'rib o'tilgan shakldagi so'zlarda -cha butun xususiyatlari bilan yuklamadan farqlanadi. Birinchidan, yuklamalarning qo'llanishi, odatda, ma'lum bir so'z turkumi doirasi bilan chegaralanmaydi. -cha esa ot yoki ot shaklidagi so'zlarga qo'shiladi. Ikkinchidan, -chaning biror yuklamaga emas, balki qadar (dovur) ko'makchisiga sinonimligi ham (uygacha— uyga qadar) uni yuklamalar qatoriga kiritib bo'lmashligini ko'rsatadi. Uchinchidan, yuklamalar so'zning ma'lum bir grammatik ma'no ifodalovchi shaklini hosil qilmaydi. Shunga ko'ra ular sintaktik munosabat ham ko'rsatmaydi. Uygacha, kechgacha

kabilardagi -cha esa, maxsus grammatik ma'no (chegara ma'nosini) ifodalash bilan birga, so'zning sintaktik munosabatiga ham ta'sir qiladi. Uning ko'makchi bilan sinonimligiyoq buni aniq ko'rsatadi (ko'makchilarning ot yoki otlashgan so'zning boshqa so'z bilan sintaktik munosabatini ko'rsatishi ma'lum: qalam bilan yozmoq, do'sti uchun olmoq kabi). Bir misol: Quloqlarigacha po'stinga o'rangan, Xalq komissarligi eshigi oldida qorovul qarshisida turgan ikki xotinni tanib so'rashdi. (Oydin.) Bu gapda quloq so'zining o'ranmoq fe'liga bog'lanishi bevosita -chaning yordamida bo'lyapti. -cha qo'llanmasa jo'nalish kelishigi shaklining o'zi bu fe'lga bog'lanmaydi, bog'lana olmaydi (qulog'iga o'ranmoq deyilmaydi).

Ana shu belgilangan o'ziyoq -chaning yuklama emasligini, u har jihatdan sintaktik shakl yasovchi qo'shimchaga xos xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. (yuqoridagi holat kelishik va ko'makchilarning o'zaro sinonimligiga o'xshaydi: Maktabga ketdi Maktab tomon ketdi. Bo'g'zigacha qarzga botdi- Bo'g'ziga qadar qarzga botdi kabi.) Endi masalaning qiyin tomoni uygacha, kuzgacha kabi so'zlarda -cha mustaqil affiks yoki mustaqil affiks emasligini belgilashdir.

Ko'rib o'tilgan shakldagi (uygacha, kuzgacha) so'zlarda chegara ma'nosining bevosita -cha ga xosligi va uni chegara ma'nosini ifodalay oladigan qadar ko'makchisi bilan almashtirish mumkinligi (uygacha, uyga qadar) bularda -cha bilan -ga mustaqilligini saqlagandek, har biri o'z mustaqil ma'no va vazifasiga egadek qilib ko'rsatadi. Ayniqsa, -gacha qo'shilgan ot makon va vaqt bildiruvchi so'zlardan bo'lganida ana shunday tuyuladi: U qishloqdan Oltinsoygacha bo'lgan uzoq yo'lda bir so'z ham aytmay jim va mayus keldi. (SH. Rashidov.) Bu atroflarga avtobus kelmas ekan, markazgacha piyoda ketishga to'g'ri keldi. (X. To'xtaboev.) Hayda,— dedi chol,—tonggacha qishloqqa boraylik. (L.M.)

Lekin quyidagi ikki asosiy hodisa yuqoridagi kabi so'zlarda -ga va -cha mustaqil qo'shimchalar emasligini, -gacha bir butun holda bir affiks ekanini ko'rsatadi. Birinchidan, uygacha, kuzgacha kabilarda -cha qo'shimchasi o'ziga mustaqil bo'lsa, o'z-o'zidan -ga affiksi ham o'z ma'no va vazifasida (jo'nalish kelishigi shakliga xos ma'no va vazifada) qo'llangan bo'ladi. Vaholanki, bu tipdagi shaklda jo'nalish kelishigi formasiga xos xususiyat ma'lum darajada sezilib tursa-da, unda jo'nalish kelishigi shakliga xos asosiy ma'no va vazifa bo'lmaydi, ya'ni bu shakldagi so'z jo'nalish ma'nosini bildirmaydi va gapda jo'nalish kelishigi shakliga xos vazifada ham kelmaydi: Bularning har mo'yidan ter oqib tomayotganini tomdagi qiz-juvonlargacha ko'radi. (Oydin.) Behi urug'idan tortib yalpiz uru- g'igacha qaynatib ichirishni kampilar o'sha kuni. (R. Azizxo'jaev.) Sog'lig'imizni so'raydi, bola-chaqalarimizgacha surishtiradi. (H. G'ulom.)

Ikkinchidan, -gacha yordamida yaslovchi shakl jo'nalish kelishigi shaklidan farqlanuvchi, o'ziga mustaqil shakl bo'lganidan u bog'lanib keladigan fe'llar ham ko'p hollarda, jo'nalish kelishigi shakli bog'lanadigan fe'llardan farqlanadi: O'zimizning taomlarni—kabob va palovdan tortib to halimgacha do'ndirib yuboradi. (Oybek.) Farg'ona iqlimi-yu, bu yer beradigan noz-u ne'matlari, bu yerning qushlarigacha u kitobda yaxshi ta'riflangan. (Mirmuhsin.) Bu vaqt Aziz onasi va do'stlari bilan Mirzacho'ldagi bir qishloqqa kelgan, paxtachilikda ekishdan terishgacha hamma ishini mukammal mashinalashtirgan... (H. G'ulom.) Hatto durbindan uy oldidagi deraza ostida o'tirib olib, qo'lda kalava yigirayotgan kampirgacha kuzatsa bo'lardi. (CH. Aytmatov.) Bu misollardagi -gacha qo'shimchali otlar do'ndirmoq, ta'riflanmoq, mashinalashtirmoq, kuzatmoq fe'llari bilan bog'lanib kelgan. Jo'nalish kelishigi shaklida esa bog'lana olmaydi: halimga do'ndirmoq, qushlarga ta'riflanmoq,

terishga mashinalashtirmoq, kampirga kuzatmoq deyilmaydi, mazmun chiqmaydi.

-gacha affiksli ot fe'ldan boshqa so'zga ham bog'lanishi mumkin. Lekin bunday so'zlar bilan ham jo'nalish kelishigi shakli vositasida bog'lana olmaydi: Yo'l qishlog'imizgacha shunday keng va tekis. Bizning saltanatimiz ostidagi yerlarda nimaiki qimirlagan, uchgan tirik jonzot bo'lsa, pashshadan tortib tuyagacha — hammasi bizniki. (CH. Aytmatov.)

Ko'rib o'tilgan ana shu ikki faktning o'ziyoq uygacha, kuzgacha, o'suvchilargacha kabi shaklda -cha va -ga mustaqil qo'shimchalar emasligini, ular birgalikda qo'shimcha ekanini ko'rsatadi.

Chegara ma'nosini ifodalashda -cha qo'shimchasi o'tning jo'nalish kelishigi shaklida qo'llanishini talab etadi. Demak, bunda jo'nalish kelishigi shakli -cha qo'shimchasi orqali chegara ma'nosining ifodalanishida vosita rolini o'ynaydi. Natijada, chegara ma'nosining voqelashuvida doim ishtirok etadigan -ga va -cha qo'shimchalari bir butunlik kasb etadi, bir butun holda chegara ma'nosini ifodalovchi hosilaga aylanadi. Shunday bo'lishi ham tabiiy. Chunki, masalan, uyga. qadar, kuzga qadar kabilarda ham jo'nalish kelishigi bilan qadar ko'makchisi birlikda bir formani—chegara ma'nosini ifodalovchi analitik shaklni hosil qiladi. Agar, aytaylik, til taraqqiyoti jarayonida qadar ko'makchisi qo'shimchasiga aylanadigan bo'lsa, shunda ham u o'ziga xos alohida bir shaklni yasovchi mustaqil qo'shimcha bo'lmaydi, balki u -ga qo'shimchasi bilan bir butunlikni hosil qiladi va ikkalasi birlikda chegara ma'nosini ifodalovchi shaklni yasaydi (shunday sintaktik shaklni yasovchi qo'shimchaga aylanadi).

Navbatdagi masala -gacha qo'shimchasi yordamida yasaluvchi shakl alohida bir kelishik shaklimi yoki yo'qmi degan masaladir.

-gacha qo'shimchasi o'tning o'ziga xos grammatik ma'no (chegara ma'nosi) ifodalovchi maxsus shaklini hosil

qilishini ko'rdik. Endigi masala shu shaklning kategorial forma yoki nokategorial forma ekanini belgilashda. Chunki har qanday so'z formasi, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, yo ma'lum grammatik kategoriyaga xos bo'ladi, yoki grammatik kategoriya hosil qilmaydigan nokategorial shakl bo'ladi.

-gacha qo'shimchasi so'zning ma'no va vazifasiga e'tibor berilsa, bu shaklning har jihatdan kelishik shakllariga xos xususiyatga egaligini ko'rish mumkin. Masalan, o'tning fe'l yoki boshqa turkumga oid so'zga tobe aloqasini (bog'lanishini) ko'rsatish va sintaktik munosabat ifodalash barcha kelishik shakllariga (umuman kelishik kategoriyasiga) xos xususiyatlar -gacha qo'shimchasi yordamida yasalgan shakl ham o'tning fe'lga yoki boshqa turkumga oid so'zga tobe aloqasini ko'rsatadi va harakat, belgi-xususiyat kabilarning chegarasini bildiradi. Bu chegara makon va vaqtdagi chegaragina emas, balki boshqa narsa-hodisalarning o'zaro bog'lanishidagi chegara bo'lishi ham mumkin: Oq ko'ylagining yenglarini bilagigacha shimargan Ahmadjon kabinaga egilibroq kirdi-da, rulga o'tirib, mashinani haydab ketdi. (H. G'ulom.) Nahotki korxonada shu paytgacha ish bo'lsa? (H. G'ulom.) Shofyor... -Mehri opaning tugunini ko'tarib, kvartira eshigigacha kelib va u bergan pulning ortiqchasini tiyinigacha qaytarib, issiqqina xayrlashib chiqib ketdi. (H. G'ulom.) ...martabali mehmonlarni qarshi olib otdan tushirish, choy uzatish-u, o'tin yorib, suv keltirishgacha hamma ishni unga topshiraverishardi. (CH. Aytmatov.)

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, hozirgi o'zbek tilidagi uygacha, hozirgacha, bolalargacha kabi shakldagi -gacha yaxlitligicha bir sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha -chegara ma'nosini ifodalovchi shakl yasovchi qo'shimcha, shu shaklning o'zi esa chegara ko'rsatkichi hisoblanadi. Ikkinchidan, -gacha qo'shimchasi yordamida yasaluvchi shakl kategorial shakl hisoblanadi va, o'z xususiyatiga ko'ra, kelishik paradigmasi qatoriga kiradi (chegara kelishigi ko'rsatkichi bo'ladi)

ADABIYOTLAR

1. Hojiyeva H. O'zbek tilida hurmat maydoni va uning lingvistik-nutqiy xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoref. – Samarqand, 2001.
2. Умарова Н. Навоий ғазаллари мактасида сабаб ва оқибат муносабатининг мазмуний ҳамда конструктив шакллари. – Тошкент: Akadempnashr, 2016. — Б. 96.
3. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1985. – 164 б.
4. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Х., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. – 153 б.
5. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. N. Mahmudov va boshqalar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2017. – 160 b.
6. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. N. Mahmudov va boshqalar. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 112 b.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zMU., 2007. 253 b.



Nilufar NORPO'LOTOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
E-mail mirjahon776@gmail.com

Professor B.Mengliyev taqrizi asosida

KORPUS LINGVISTIK TA'MINOTINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kompyuter texnologiyalari bilan tilshunoslikning o'zaro bog'liqligi natijasida kompyuter lingvistikasi degan yangi yo'nalishning vujudga kelishi sohada juda katta ko'tarilish bo'lgani, tilshunoslikning alohida sohasi hisoblangan kompyuter lingvistikasi fanining paydo bo'lishi, korpus lingvistik ta'minotining nazariy asoslari haqida xorij va o'zbekistonlik olimlarning fikrlariga tayangan holda atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuter texnologiyalari, pragmatolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi, kompyuter dasturlari, matematik lingvistika.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЯЗЫКОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОРПУСА

Аннотация

В данной статье подробно рассматривается возникновение нового направления под названием компьютерная лингвистика в результате взаимодействия компьютерных технологий и лингвистики, возникновение дисциплины компьютерная лингвистика как отдельной области языкознания, а также теоретические основы корпусной лингвистики, основанные на мнениях зарубежных и узбекских ученых.

Ключевые слова: Компьютерные технологии, прагматика, лингвокультурология, социолингвистика, компьютерная лингвистика, компьютерные программы, математическая лингвистика.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF CORPUS LINGUISTIC PROVISION

Annotation

This article discusses in detail the emergence of a new direction called computer linguistics as a result of the interaction of computer technologies with linguistics, the emergence of the science of computer linguistics, which is considered a separate branch of linguistics, and the theoretical foundations of corpus linguistics, based on the opinions of foreign and Uzbek scientists.

Key words: Computer technology, pragmatolinguistics, linguoculturology, sociolinguistics, computer linguistics, computer programs, mathematical linguistics.

Kirish. XXI asrga kelib hayotimizning hech bir sohasini kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmay qoldi. Butun dunyoni axborot texnologiyalari qamrab oldi va bu, o'z navbatida, ilm-fanga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu tilshunoslik sohasiga ham bevosita aloqadordir. Ayni shu sohada bir qancha zamonaviy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Masalan, pragmatolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika kabilar. Ayniqsa, kompyuter texnologiyalari bilan tilshunoslikning o'zaro bog'liqligi natijasida kompyuter lingvistikasi degan yangi yo'nalishning vujudga kelishi sohada juda katta ko'tarilish bo'ldi. Bu mavzuda xorij [1] va yurtimiz olimlari [2] bir qancha izlanishlar olib borishgan va tadqiqotlar o'z samarasini bermoqda.

Ayniqsa, oxirgi o'n yillikda [1] kompyuterlar odatiy ishchi tilshunoslarning professional hayotini tubdan o'zgartirdi. Bu o'zgarishlar asta-sekin turli xil uzoq tajribalar asosida yuzaga keldi. Qo'l yozuvi allaqachon ekranda paydo bo'ldi va o'zgarish tezligi kundan kunga kuchaymoqda. Hisoblash va tilshunoslik o'rtasidagi munosabatlar texnologik o'zgarishlarni yanada chuqurroq va qiziqarli qiladi. Shu o'rinda kompyuter lingvistikasining o'zi nima hamda u o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi degan savol yuzaga keladi. Kompyuter lingvistikasining [3] asosiy maqsadi tilshunoslik muammolarini yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqishdir. Barchamizga [2] ma'lumki, lingvistika fani mustaqil fan sifatida XIX asrda, aniqrog'i, 1816-yilda shakllana boshladi. Mana shu davrdan keyin tilshunoslik sohasida turli tadqiqotlar qilinmoqda. Keyingi

yillarda barcha fanlar singari tilshunoslik fani ham ikki fanning o'zaro birikuvi asosida qiyosan o'rganiladigan bo'ldi. Bunday fanlar sirasiga sotsiolingvistika (sotsiologiya va tilshunoslik), psixolingvistika (psixologiya va tilshunoslik), etnolingvistika (etnografiya va tilshunoslik), neyrolingvistika (nevrologiya va tilshunoslik), matematik lingvistika va kompyuter lingvistikasi fanlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Buni fanlarning o'zaro aloqadorligi yoki hamkorligi deyish mumkin.

Kompyuter lingvistikasi [2] eng mashhur va tilshunos olimlarning diqqat markazida bo'lgan, fanlarning aralashuvi asosida yuzaga kelgan, zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlaridan biridir. Bu fan matematik lingvistika yo'nalishining mantiqiy davomi bo'lib, amaliy tilshunoslikning eng muhim qirrasini hisoblanadi. U 1954-yil AQShda Jorjtaun universitetida mashina tarjimai bo'yicha dunyoda o'tkazilgan birinchi tajriba asosida yo'nalish sifatida shakllandi va 1960-yilga kelib mustaqil fan sifatida o'rganila boshlandi. Kompyuter lingvistikasi inglizcha "computational linguistics" so'zining o'zbekcha muqobilidir. Shu o'rinda turli xil savollar yuzaga keladi. Xo'sh, kompyuter lingvistikasining asosiy vazifasi nimalardan iborat va uning tilshunoslikdagi ahamiyati qanday?

Kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

avtomatik o'qitish tizimini ishlab chiqish;
bilimlarni tekshirish;
matnlarni turli jihatdan avtomatik tahrirlash;

matnlarning avtomatik tarzda morfologik, sintaktik va semantik tahlilini ta'minlovchi tizimlar yaratish;
 mashina tarjimasini uchun mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish;
 matn strukturasi gipertekst texnologiyasini yaratish;

elektron lug'atlar va tražeurslar yaratish;
 sun'iy intellekt tizimini ishlab chiqish;
 matnlar korpusini yaratish;
 matnning avtomatik referatlash;
 sujet strukturasi modellash;
 nutqni avtomatik tushunish tizimini ishlab chiqish;
 matndan faktlarni ajratib olish;

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda kompyuter lingvistikasi barcha fanlar uchun nihoyatda zarur. Kompyuter lingvistikasi fanining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sun'iy intellektidir. Ijtimoiy tarmoqlarda unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Sun'iy intellekt – bu kompyuter yoki robotning shunday xususiyatiki, asosan, insonning aqliy faoliyati bilan bo'g'liq bo'lgan masalalarni, masalan, fikrlash, nutq mazmunini anglash, ma'lumotlarni umumlashtirish kabilarni yechishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu atama mazkur xususiyatlarga ega sistemalarni ishlab chiqish bilan bog'liq kompyuter texnologiyalarining bir bo'limiga nisbatan ishlatilmoqda".

Mana shu o'rinda korpus lingvistikasining obyekti, predmeti, asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqida alohida to'xtalib o'tish kerak. Korpus lingvistikasining obyekti bu tabiiy tildagi matnlardir. Korpus lingvistikasining predmeti esa til korpuslari sanaladi. Korpus lingvistikasining o'z predmeti keng doiradagi foydalanuvchilarning manfaati uchun tadqiqotlarga mo'ljallangan til ma'lumotlarining yirik majmualarini yaratish va ulardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlaridir. Korpus lingvistikasining asosiy maqsadi til tizimining lingvistik tavsifi sanaladi, bunda muloqotning nutqiy jarayondan olingan ma'lumotlari korpusda o'z aksini topadi. Manzura Abjalovaning keltirishicha, korpus lingvistikasining asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ushbu sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
 har xil turdagi korpuslarni yaratish va ulardan foydalanish tajribasini tahlil qilish;
 korpusga qo'yilgan umumiy talablarni shakllantirish;
 turli xil tadqiqot va o'quv vazifalari uchun korpuslarni yaratish;

tilshunoslikning turli sohalarida matn korpuslarini qo'llashning samarali usullarini shakllantirish.

Amerika Milliy Korpusi (AMK) ingliz tilida bo'lib, 1990-yildan beri ishlab chiqarilgan 22 million so'z, yozma va og'zaki ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Hozirda AMK tarkibiga elektron pochta, tvitlar va veb-ma'lumotlar kabi bir qancha janrlar kiradi.

Britaniya Milliy Korpusi (BMK) XX asrdagi Britaniya ingliz tilining yozma va og'zaki qismining 100 million so'zdan iborat to'plamidir. Buning asosiysi yozma va qolgan kichik hajmdagi qismi esa og'zakidir. Britaniya og'zaki qismining audio formati ham mavjud bo'lib, undan ko'pchilik samarali foydalanadi.

Butun dunyo bo'yicha mana shu korpusning paydo bo'lish davrini [7] XX asr deb baholaydilar va bu yangilik butun fan olamida ulkan kashfiyot sifatida qaraladigan bo'ldi. O'zbek tili korpusini yaratish yo'lida qilingan va hali bajarilishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p. Bu sohada faqatgina kompyuter lingvistikasining ma'lum bir qismi sifatida qaralib kelinmoqda va hozirgi kunga kelib ushbu sohada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sohaning to'liq shakllanishi uchun esa ma'lum bir katta hajmdagi baza kerak bo'ladi va shu baza orqali o'zbek tilidagi barcha ma'lumotlar matn shaklida kiritilib boriladi. Bu yo'nalishda esa yaqin yillardan boshlab ma'lum ishlar amalga oshirib kelinmoqda, o'tgan asrlarda elektron tarzda mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, o'zbek tili tarixida yaratilgan va undan ma'lum davrda amalda foydalanilgan. Bunga misol tariqasida bir nechta mashhur asarlarni kiritishimiz mumkin.

Ushbu kichik hajmdagi tadqiqotlardan shuni ko'rish mumkinki, "korpus lingvistikasi" atamasi bilan bog'liq ba'zi qiyinchiliklar mavjud. Avvalo, bu atama kutilganidan ancha kam qo'llanilgan. Ayniqsa, CLRA korpusidagi natijalar hayratlanarli, chunki undagi maqolalar "korpus lingvistikasi" atamasi kalit so'zlarda, sarlavha yoki annotatsiyada ishlatilgani sababli tanlab olingan edi. Albatta, bu kutilmagan kam uchrash holatini talqin qilishning ko'plab mumkin bo'lgan usullari mavjud va bu yerda faqat bir necha taxminlar ilgari surilgan. Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bir qancha fidoyi va jonkuyar olimlar tashabbusi bilan o'zbek tili milliy korpusi yaratilishiga erishildi. Darhaqiqat, u vaqt va mehnatni tejaydigan qurol, ona tilimizning zamonaviy shakliga xos axborot tizimi sifatida texnik jarayonni tezlashtirishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR

1. A Practical Guide Using computers in linguistics Edited by John M. Lawler and Helen Aristar Dry. London and New York. First published 1998 by Routledge 11 New Fetter Lane, London EC4P 4EE This edition published in the Taylor & Francis e-Library, 2003 page 239
2. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari / A. Rahimov; mas'ul muharrir A. Nurmonov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Andijon davlat universiteti. – T.: Akademnashr, 2011. – 160-b.
3. Po'latov A, Muhammedova S. Kompyuter lingvistikasi (qayta ishlanib, to'ldirilgan nashri) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etgan, – Toshkent, 2009, 90-bet.
4. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2009, "Asian book house", 196-bet.
5. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. (Uslubiy qo'llanma) "BOOKMANY PRINT", – Toshkent, 2022, 103-bet.



UO'K: 82:281(575.171)

Zilola NURALIYEVA,
ToshTO'AU tadqiqotchisi
E-mail: zilola_nuraliyeva86@gmail.com

Filol.f.d., prof. N.Jabborov taqrizi asosida

“YOZ YOMG'IRI” MUHABBAT VA XIYONAT HAQIDAGI QISSA

Annotatsiya

O'lmas Umarbekovning “Yoz yomg'iri” asari insoniy munosabatlar, ichki kechinmalar va hayotning nozik jihatlarini qamrab oluvchi hikoya hisoblanadi. Asar qahramonlari o'zaro bog'liq murakkab vaziyatlar orqali o'zligini anglash, o'zaro mehr va samimiyatning qiymatini tushunishga harakat qilishadi. Qissada shoirona tabiat tasvirlari orqali yozning go'zalligi va inson ruhiyatiga ta'siri mahorat bilan aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: O'lmas Umarbekov, yoz yomg'iri, insoniy kechinmalar, mehr, hayot falsafasi, tabiat tasvirlari.

«ЛЕТНИЙ ДОЖДЬ» – ЭТО ИСТОРИЯ О ЛЮБВИ И ПРЕДАТЕЛЬСТВЕ

Аннотация

Произведение Ульмаса Умарбекова «Летний дождь» охватывает тонкости человеческих отношений, внутренних переживаний и жизненных аспектов. Герои произведения через сложные взаимосвязанные ситуации стремятся к самопознанию и осознанию ценности искренности и взаимной доброты. Стилистические описания природы и красота летнего дождя мастерски передают влияние на человеческую душу.

Ключевые слова: Ульмас Умарбеков, летний дождь, человеческие переживания, доброта, философия жизни, описания природы.

“SUMMER RAIN” IS A STORY ABOUT LOVE AND BETRAYAL

Annotation

O'lmas Umarbekov's “Summer Rain” explores the intricacies of human relationships, inner struggles, and the subtleties of life. The characters navigate complex, interconnected situations to find self-awareness and understand the value of sincerity and mutual kindness. The poetic descriptions of nature and the beauty of summer rain are skillfully used to depict its impact on the human spirit.

Key words: O'lmas Umarbekov, summer rain, human emotions, kindness, philosophy of life, nature descriptions.

Kirish. O'nlab hikoya va qissalar muallifi O'lmas Umarbekov o'zbek adabiyotida detektiv janrning yangi asarlar bilan boyishiga ulkan hissa qo'shdi. “Odam bo'lish qiyin”, “Fotima va Zuhra” (roman), “Qiyomat qarzi”, “Shoshma quyosh”, “Oqar suv”, “Sud”, “Komissiya”, “Kuzning birinchi kuni” kabi asarlari adibning badiiy jihatdan puxta yozilgan ijod namunalari hisoblanadi.

O'lmas Umarbekov xalqimiz sevgan adiblardan biridir. Adibning “Yoz yomg'iri” asari detektiv yo'nalishda yozilgan dastlabki ijod namunasidir. “Yoz yomg'iri”ni mutolaa qilgan inson asarda tasvirlangan davr va qahramonlar bilan birga bo'ladi, ular bilan yaqindan tanishadi. O'quvchilar ular kulganda kuladi, ular yig'laganda ko'ziga yosh keladi, ularning kulfatini dildan his qiladi.

Qissa syujet to'qimasining murakkabligi, favqulodda tez va shiddat bilan rivojlanishi o'quvchini rom etadi. Bu usul detektiv asarning asosiy elementlaridan biridir. Asar voqealari tramvay haydovchisi bilan bir yo'lovchining butalar orasida oyog'i ko'rinish yotgan o'likni tasodifan ko'rib qolishi bilan boshlanadi. Ana shu sirli jinoyatni fosh etish, jinoyatchini topish va jinoyat sabablarini aniqlash asosiga qurilgan. Ushbu asarda insonning ichki dunyosidagi o'zgarishlar, ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar, tabiatning inson ruhiyatiga ta'siri poetik ifodalangan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O'lmas Umarbekovning ushbu asarida ham hayot nafasi, haqiqatning shakl-shamoyili yorqin bo'yoqlarda aks etadi. Asarda insonlarning bir-biriga bo'lgan muhabbati odamlarning

boylikka bo'lgan muhabbati bilan qarama-qarshi tarzda ochib beriladi.

Jinoyatni fosh qilish jarayonidagi izlanishlar, militsiya xodimlari va izquvarlar olib borgan mashaqqatli qidiruvlar ishonarli hamda qiziqarli tasvirlangan. Jinoyatchilarning asl yuzi asar so'ngida o'ta mahorat bilan ochiqilanadi. Qissa qahramonlarining ruhiyati, ichki kechinmalari yozuvchi niyatini amakga oshirish uchun xizmat qiladi. Asar qahramonlaridan biri Rahim Saidov kimyo fanlari kandidati, olim. Marhumaning turmush o'rtog'i. U juda mushkul ahvolda qoladi. Ayolining xiyonati uni ichidan yemiradi. Erkak kishi uchun ayolining xiyonati kechirib bo'lmas gunoh. Erkakning boshi egilishiga va odamlar orasida kulgi bo'lishiga sabab bo'luvchi omildir. Rahim Saidovning iztiroblarini faqat ayolidan xiyonat ko'rgan er yigitlargina his qila oladi. Uning ruhiy holatini yanada yorqinroq aks ettirish uchun yozuvchi ko'z yoshdan foydalanadi: “Rahim ich-ichidan kuyib yonayotgan edi. Shu onda uning ko'zidan bir tomchi yosh “taq” etib oppoq qog'oz ustiga tushdi...” [Umarbekov O', 2018, 73].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning metodologik asosi sifatida zamonaviy adabiy jarayon vakillari adabiy merosini o'rganish, ilmiy tadqiq etishda keng qo'llaniladigan tamoyil va uslublariga, sinovdan o'tgan zamonaviy bilish metodlariga amal qilindi. Maqola yozish jarayonida analiz va sintez, struktural, tarixiy-qiyosiy, tasniflash va boshqa metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qissaning “Yoz yomg'iri” deb nomlanishida ham bir ramziylik bor. Chunki yozda yoqqan

yomg'ir zararli va bixosiyat bo'ladi. Ekin-tikin, bog'-rog'lar, daraxtlar va mevalarga shira tushadi. Bu esa katta iqtisodiy va ma'naviy zarar keltiradi. Asarda esa jamiyatda yuz beradigan boylik va zebu ziynatga intilish orqali turli fojealarga muhtalo bo'ladigan shaxslar hayoti hamda ularning ayanchli o'limi ro'y-rost va ta'sirli ocib beriladi.

Hikoya yozning oxirlarida, tabiatning go'zalligi o'zining yuqori cho'qqisida bo'lgan bir pallada boshlanadi. Yomg'irning boshlanishi hamda qahramonlarning ushbu yomg'irni turlicha qabul qilishi hikoya uchun ramziy ochilish vazifasini bajaradi. Hikoyada markaziy qahramon o'z hayoti haqida chuqur mulohaza yuritadi. Uning ichki kurashlari o'tmishdagi xatolar, bugungi kunning sinovlari va kelajakka bo'lgan umidlarga orqali ochiladi. Qahramonning o'tmishdagi his-tuyg'ulari va bugungi kundagi izlanishlari yomg'irning poklovchi, yangilovchi kuchi bilan uyg'unlashib boradi. Yoz yomg'iri tasviri tabiat bilan inson ruhiyatining bir-biriga qanchalik yaqinligini, insonning tabiatdan o'rnatilib o'z hayotini qayta qurishi mumkinligini ko'rsatadi. Har bir yomg'ir tomchisi qahramon uchun ichki tozalikka, yangilanishga ishora qiladi.

"Yoz yomg'iri" asarining asosiy mavzusi insonning o'z-o'zini anglash jarayoni va hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o'tish falsafasidir. Yozuvchi qahramonlarning ichki kechinmalari orqali hayotda mehr, halollik va samimiyat kabi qadriyatlarining ahamiyatini ochib beradi. Asar g'oyasi shundan iboratki, har bir inson o'z ruhiy kechinmalari orqali o'sishi va o'zligini anglashga erishishi mumkin. Yoz yomg'irining yangilovchi va poklovchi ta'sirini hayotdagi murakkabliklarni yengib o'tish jarayoniga qiyoslash orqali, yozuvchi inson hayotidagi muhim bosqichlarni tasvirlaydi. Asarda, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik masalasi ham ko'tariladi. Yomg'irning tabiatdagi yangilanish va hayotni davom ettirishdagi roli, inson hayotidagi o'zgarishlar va poklanish bilan chambarchas bog'langan. Tabiat tasvirlari "Yoz yomg'iri" asarida markaziy o'rin tutadi. Yozuvchi tabiat hodisalarini qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlash va ularga ma'no yuklash vositasi sifatida mahorat bilan qo'llaydi.

Biz yoshlik paytlarimizdan jinoyat, jinoyatchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, hukm, tergov kabi so'zlarni eshitib, uning ma'no va mohiyatini anglab voyaga yetdik. Shu o'rinda yozuvchi Said Ahmadning "Kiprikda qolgan tong" qissasida O'lmas Umarbekov haqida topib va ayni haqiqatni aytgan gaplarini keltirishni lozim topdik: "Insonni badnom qiladigan har qanday ishlardan o'zini tiya olgan, bu dunyoga pok kelib, pok ketgan, nurdek tiniq hayot kechirgan, Alloh dargohiga farishta bo'lib yo'l olgan do'stim, ukam, jigarim, qadrdonim, xotirasi hech qachon yodimdan chiqmaydigan sevikli yozuvchim O'lmas Umarbekovga bag'ishladim ushbu qissani"... O'lmas akaga bundan ortiq baho va ta'rif bo'lmasa kerak [S.Ahmad, 2003, 51]. Shunday e'tirofga sazovor bo'lgan adibning asarlari har qanday davrda sevimli bo'lib qolaveradi. Adibning asarlari ham xuddi uning ismidex O'lmas.

Badiiy asarlarda voqea sodir bo'lgan joy muhim ahamiyatga ega. Chunki voqealar biror bir shaharda, viloyatda, qishloqda, ovulda, uyda, maktab yoki universitet va hokazo joylarda sodir bo'ladi. Endi biz "Yoz yomg'iri" asaridagi joy nomlarini ko'rib chiqamiz. Asarda Chorsu bekati – to'qimachilar kombinati, Toshkent, Farg'ona viloyatlari, Qo'qon-Ohangaron yo'li (dovon), Oqtapa – talabalar yotoqxonasi, Olmalik-Toshkent yo'li, Oltiariqdagi tajriba uchastkasi, Toshkent davlat chet tillar pedagogika instituti, Samarqand shahridagi yuvilertorg magazini, O'rdadagi tilla magazini, Toshkent shahri S-5, Hadrada fontan, Katta Mirobod ko'chasi 33-uy, ToshMI, Samarqand darvozasi 16/44-uy, Gulchehra magazini, Do'stlik kafesi va hokazo joy

nomlari keltirilgan. Asarda keltirilgan bu joylarning aksariyati jinoyatning sodir etilishi bilan bog'liq. Sodir etilgan jinoyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan joylar quyidagilar hisoblanadi: Chorsu bekati – Munisning murdasi topilgan joy. Munisning murdasini birinchi bo'lib tramvay haydovchisi Munira Shayxuddinova va temiryo'lchi amaki ko'rib qoladi. Jinoyat ishi bo'yicha tergov jarayoni ham aynan mana shu joydan boshlanadi. Samarqand darvozasi 16/44-uy – bu uy Olloyorovga tegishli bo'lib, Munis shu uyda o'ldirilgan bo'ladi, ya'ni jinoyat sodir etilgan joy. Olloyorovning onasi kapitan Aliyevga olcha daraxtining tagidan kovlab Munis o'ldirilgan pichoqni olib chiqib beradi. Kapitan Aliyev Olloyorovdan nima uchun Munisxonni o'ldirganini so'raganida – erining ixtirosini olib kelmagan va militsiyaga xabar bermoqchi bo'lgani uchun o'ldirganini aytadi. Onasi esa jinoyat sodir etilgan ashyoni "Alloh buyurgani uchun" topib berganini aytadi. Jinoyatning ochilishiga turtki bergan navbatdagi joy bu – Chorsu tramvay bekati. Guvoh Shokirova Munis Saidova bilan Olloyorovni ko'rgan joy (guvoh Munis bilan Olloyorovni shu bekatdan Samarqand darvozaga qarab ketganini aytadi). Bu yerni Shokirova har doim supurib-sidirib yurgan. U har kuni bekat atrofidan o'tgan har bir odamni ko'rgan, ko'pini esa tanigan. Munisxonni esa bandi tovtirilgan oq sumkasidan tanib qolgan. Bu ayolning chiroyi, kiyimlari va aynan mana shu oq sumkasi hamda Olloyorovning qovlidagi qora portfeli Shokirovaning e'tiborini tortgan. Va shu tariqa guvoh Shokirova jinoyat ochilishida kapitan Aliyevga katta yordam bergan. Jinoyatni ochishda kapitan Aliyevga yordam bergan joy nomlaridan yana biri bu – Samarqand shahridagi yuvilertorg magazini hisoblanadi. Olloyorov Munisxonga olmos ko'zli uzukni aynan shu magazindan sotib olgan. Mana shu magazindan olingan olmos ko'zli uzukning cheki yordamida kapitan Aliyev Olloyorovning uzuk sotib olganini aniqlagan. Sotuvchi magaziniga bunday uzukdan olti dona kelganini va uzukning beshitasini kimlar sotib olganini bilishini aytadi. Biroq oltinchi uzukni kim sotib olganini bilmasligini, lekin sotib olgan odam erkak kishi ekanligini gapirib beradi. Kapitan Aliyev esa chekni ekspertiza qildirib, haqiqatdan ham Olloyorovning barmoq izlari ekanligini aniqlaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan joy nomlarini tekshirish va guvohlarning bergan ko'rsatmalari asosida kapitan Aliyev jinoyatni fosh etadi.

Asarda quyosh va yomg'ir tasviri tabiatdagi qarama-qarshiliklarning uyg'unligini ifodalaydi. Bu uyg'unlik inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni ham aks ettiradi. Yoz yomg'irining osoyishta yog'ishi qahramonlarning notinch qalbi bilan qarama-qarshi qo'yilgan. Bu uslub qahramonlarning ichki kechinmalarini yanada ta'sirchan ko'rsatadi. Asar qahramonlari o'z ichki mojaralari va kechinmalari orqali asarning g'oyaviy mazmunini ochib beradi. Ular o'zaro murakkab munosabatlar orqali o'zligini anglashga intiladi.

kontrafakt so'zlashuv, talab, taxmin va rad etish, iltimos, e'tiroz, bashorat, va'da, chaqiriq, mulohaza, tushuntirish, haqorat, xulosa, taxmin, umumlashtirish, javob berish, aldash kabilar kiradi. Nutqiy akt tushunchasi oldingi davrlarda ham mavjud bo'lgan ammo uning to'liq bir nazariya sifatida ingliz mantiqshunosi J.Ostin va amerikalik psixolog J.Searl ishlarida shakllangan. Tilning mavjudligi insonlarning shu tildan foydalanib yozishi yokida gapirishidir. Bu xarakatlarning bajarilishida gap asl ma'nosidan tashqari tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi imkoniyatlarni ifodalaydi. Bunday ma'nolar so'zlovchi shaxs tomondan bajarilayotgan nutqiy akt natijasidir. Amsterdam universiteti professori T.Van.Deyk aytganidek [4] "tildan foydalanayotgan shaxslar bir paytni o'zida bir qancha ishini bajaradilar, buning uchun ular nutqiy harakatni rejalashtirishlari, va boshqarib borishlari lozim." Shu sababli, so'zlovchining kognitiv holati, muloqot muhiti va tildan foydalanish aktini o'zaro bog'liq holda biri ikkinchisini inkor qilmaydigan hodisa sifatida qarash demakdir. Nutqiy akt nazariyasi til vositasida amalga oshiriladigan harakatlarni tahlil qiladi. Mashhur britaniyalik tilshunos J.L.Ostin XX asr til falsafasining eng muhim vakillaridan biri hisoblanadi va u nutqiy akt nazariyasining asoschisi hisoblanadi. U nutq orqali bajariladigan harakatlarni uch turga ajratadi, va biz bunday aktlarni frazeologizmlar orqali tahlil qilib chiqamiz:

1. Lokutsion akt (lot. locutio – "nutq") – bu nutqning eng oddiy darajasi bo'lib, faqat ma'lumot berish, xabar yetkazish, yoki biror narsani ifodalashni o'z ichiga oladi. YA'ni, bu aktda gapiruvchi hech qanday maxsus illokutsion (masalan, buyruq, so'rov, va'da) yoki perlokutsion (ta'sir o'tkazish) maqsadni ko'zlamaydi. Bu faqat biror narsani aytish yoki bayon qilishdir.

Misol: "hit the nail on the head" ingliz tilidagi ko'chma ma'noga ega frazeologik birlik (idiom) hisoblanadi. Bu frazeologizm ko'chma ma'noda biror fikrni juda aniq, to'g'ri va lo'nda ifodalashda ishlatiladi. U lokutsion aktiga mansub bo'lib, fikrni aniq va to'g'ri ifodalash birligi sifatida ishlatiladi.

2. Illokutsion akt – bu gapiruvchining maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakatlari bo'lib, ular orqali gapiruvchi nimanidir buyuradi, so'raydi, maslahat beradi, va'da qiladi, ogohlantiradi, iltimos qiladi, va hokazo. YA'ni, illokutsion aktlar orqali gapiruvchi maqsadli niyat bildiradi.

Misol: "Keyep your nose clean" — bu idiomatik frazeologizm bo'lib, ingliz tilida ko'pincha yomon ishlardan uzoq yurishlikni o'zini qonundan tashqarida tutmaslik muammoli ishlardan yiroq yurish kabi ma'nolarda ishlatiladi. Bu frazeologizm illokutsion akti frazeologizmlariga kiradi. Maslahat, ogohlantirish, buyruq kabi nutqiy akt frazeologizmi hisoblanadi.

3. Perlokutsion akt – bu gapiruvchining so'zlari orqali eshituvchiga ta'sir qilish, ya'ni unga biror hissiy, ruhiy yoki jismoniy reaksiya uyg'otishni anglatadi. Masalan, qo'rqish, havotirlanish, xafa qilish yig'latish va boshqalar. Bunday akt turini antroposentrik nutqiy akt frazeologizmlarida quyidagicha ifodalangan.

Misol: "break someone's heart" – frazeologik birlik bo'lib, ingliz tilida bunday frazeologizm kimningdir ko'nglini qattiq xafa qilish, ranjitish kabi ma'nolarda ishlatiladi, va bunday birlik tinglovchining yuragini og'rishini hissiy ta'sir berishini ifodalaydi. O'zbek tilida "yuragini tilka-pora qilmoq" iborasiga mos keladi. Bu ibora shaxsning ko'ngli og'riganligini ifodalaganda ishlatiladi.

"cry over spilled milk" iborasi ingliz tilida o'tib ketgan ishga afsuslanish foydasizligini haqida ogohlantiradi. O'zbek tilida quyidagi frazeologizm mos keladi "o'tgan ishga salovat" bu ibora ham o'tib ketgan vaziyatdan achinmaslikni tushuntiradi.

Antroposentrik nutqiy akt tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin u inson (ya'ni so'zlovchi va eshituvchi) nutqning markaziy subyekti sifatida qaraladi. Bunday nutq aktlarida insonning: shaxsiy tajribasi, hissiyotlari, niyati, ijtimoiy va madaniy holati asosiy o'rinda turadi. Qo'shimcha ravishda, antroposentrik nutqiy aktda gapiruvchining shaxsiy dunyoqarashi, hissiyoti, holati va kontekstga asoslanadi va shaxsga xos kommunikatsion model, emotsional mazmun ham muhim o'rin egallaydi. So'zlovchi doimo real inson: hissiyotli, tajribali va madaniyatli inson sifatida gavdalanitiriladi, chunki antroposentrik frazeologizmlar insonni diqqat markazi sifatida gavdalanitirib turli nutq aktlari vazifasida kelishga undaydi. Bunday bog'lanish kommunikativ va semantic xususiyatini ham yoritishda muhim o'rin egallaydi. Har bir frazeologizm insonning maqsadi, bahosi, emotsiyasi yoki faoliyati ifodalanadi. Mashhur amerikalik faylasuf J.Searl Austinning ishlarini davom qildirib uning illokutsion aktini quyidagi turlarga ajratadi, va uning nutqiy akt nazariyasi antroposentrik frazeologizmlarni tasniflashda asos bo'la oladi. Quyida nutqiy akt turlari J. Searlning klassifikatsiyasi bo'yicha guruhlangan:

A) Assertiv nutq akti. Bunday nutq akti antroposentrik frazeologizmlarda gapiruvchining biror haqiqatga da'vo qilishida ishlatiladi. Ular odatda insonlarning fikri to'g'riligiga da'vo qilganda ishlatiladi: "spill the beans" (Ingliz) yoki "og'zidan chiqib ketishi" (O'zbek) har ikkala ibora ham sirni ochib qo'yish mazmunida ishlatiladi. Niyat qilmasdan, ehtiyotsizlik bilan bexosdan biror gapni aytib yuborish bu ko'pincha noqulay so'z ishlatish bilan ifodalanadi. Bu ibora kundalik turmushda tez tez ishlatiladi.

B) Direktiv nutq akti. Bunday frazeologizmlar odatda gapiruvchi eshituvchiga qandaydir ishini qilishni buyuradi yoki

iltimos qiladi. Direktivlar odatda buyruq, maslahat, iltimos, ogohlantirish, taklif kabi nutq shakllarida bo'ladi. Masalan, ingliz tilida "Bite your tongue" (gapirma), ma'nosida kelsa "Tilingni tiy" (o'zbek) har ikkala tilda ham tanbeh, ogohlantirish ma'nosidagi nutqiy akt ma'nosida ishlatilgan.

Xulosa qilib aytganda ingliz va o'zbek tillardagi antroposentrik frazeologizmlar – inson markazida turgan, uning his-tuyg'ulari, fikrlari, xatti-harakatlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi frazeologik birliklar hisoblanadi. Ular tilimizning emotsional va madaniy qatlamini boyitib, insonning dunyoqarashi va hayot tajribasini ifodalaydigan iboralardir. Antroposentrik frazeologizmlar orqali biz insonning turli holatlari, xarakter xususiyatlari va jamiyatdagi o'rni haqida chuqur tushuncha hosil qilamiz. Shuningdek, ular tilning pragmatik va semantik xususiyatlarini yoritishda ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek va ingliz tillaridagi antroposentrik frazeologizmlarni taqqoslash tilshunoslik, madaniyatshunoslik va pragmatik tahlil sohalarida yangi yo'nalishlarni ochib beradi, hamda tarjima va til o'rganishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Frazeologizmlar nutq aktida qo'llash esa inson ishlatgan ibora qanday maqsad ifoda qilayotganligini aniqlash va shaxs ichki dunyosida iboralar qanday mazmun kasb qilishini tushunishdan iborat. Shunday qilib ingliz va o'zbek tillardagi antroposentrik nutq aktidagi frazeologizmlar tilning turli funksiyada ishlatilishini ochib berishda muhim ahamiyat kasb qiladi. Ular nafaqat so'zlovchining axborotini yetkazadi, balki uning aniq maqsadini ifodalashda ham ishlatiladi. Bunday frazeologizmlar nafaqat tilni boyitadi balki tilni bo'yoqdor qilishda ham ishlatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Niyozmetova D. "Ingliz va o'zbek tillardagi oziq ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyati" Toshkent 2021-22 bet.
2. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" Toshkent: G'afur G'ulom 2012 - 7 bet
3. Mo'minova S.X. "O'zbek tili frazeologiyasi." Golden Brain, 2(4), 31-33.
4. Dijk T.A V. "Structures of Discourse and Structures of Power" 2008 – 12.
5. Shafarov. Sh "Pragmalingvistika" Toshkent : 2008. 77-78 bet.
6. Mahmudov N. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. Toshkent: 2006
7. Mahmudov N. "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" O'zbek tili va adabiyoti –Toshkent 2012yil



UDK:82-845

Yoqutxon RAYIMALIYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
Email: yokutkhon20@gmail.com

O'zMU dotsenti, PhD N.Abdullayeva taqrizi asosida

PAREMIOLOGIYA: MAQOLLAR ORQALI TIL, JAMIYAT VA TAFAKKURNI TAHLIL QILISH

Annotatsiya

Maqollar, donishmandlik yoki jamiyatdagi haqiqatlarni ifoda etuvchi qisqa va ko'pincha metaforik iboralar, til va madaniyatning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu maqola maqollarning lingvistikadagi o'rini o'rganib, ularning lingvistik xususiyatlari, kognitiv funksiyalari va madaniy ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Adabiyotlar tahlili va lingvistik tadqiqot orqali, biz maqollarning ijtimoiy meyorlarni, kognitiv jarayonlarni qanday aks ettirishini ko'rib chiqamiz. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, maqollar til rivojlanishi, madaniy identitet va inson kognitiv tafakkurini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat madaniy donishmandlikni uzatish vositasi sifatida, balki murakkab g'oyalarni qisqa shakllarda jamlaydigan lingvistik vositalar sifatida ham ishlaydi.

Kalit so'zlar: Paremiologiya, maqol, lingvistik, kognitiv, kollektivism til va ma'daniyat.

PAREMIOLOGY: ANALYZING LANGUAGE, SOCIETY, AND THOUGHT THROUGH PROVERBS

Annotation

Proverbs, short and often metaphorical expressions that convey wisdom or universal truths, are a significant part of language and culture. This paper explores the role of proverbs in linguistics, focusing on their linguistic characteristics, cognitive functions, and cultural relevance. Through a literature review and linguistic analysis, we examine how proverbs reflect social norms, cognitive processes, and linguistic structures. Our findings suggest that proverbs play an essential role in understanding language development, cultural identity, and human cognition. Their function not only as tool for transmitting cultural wisdom but also as linguistic tools that encapsulate complex ideas in succinct forms.

Key words: Paremiology, proverb, linguistic, cognitive, collectivism, language and culture.

ПАРЕМИОЛОГИЯ: АНАЛИЗ ЯЗЫКА, ОБЩЕСТВА И МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПОСЛОВИЦ

Аннотация

Пословицы, краткие и часто метафорические выражения, передающие мудрость или универсальные истины, являются значимой частью языка и культуры. Данная работа исследует роль пословиц в лингвистике, фокусируясь на их лингвистических характеристиках, когнитивных функциях и культурной релевантности. Посредством обзора литературы и лингвистического анализа мы рассматриваем, как пословицы отражают социальные нормы, когнитивные процессы и лингвистические структуры. Наши выводы свидетельствуют о том, что пословицы играют существенную роль в понимании развития языка, культурной идентичности и человеческого познания. Они функционируют не только как средства передачи культурной мудрости, но и как лингвистические инструменты, которые заключают сложные идеи в лаконичные формы.

Ключевые слова : Паремнология, пословица, лингвистический, когнитивный, коллективизм , язык и культура.

Kirish. Maqollar butun dunyo tillarining ajralmas qismidir, ular jamiyatning umumiy donoligi, ijtimoiy qadriyatlarini va tarixiy tajribalarining qisqacha ifodasi sifatida xizmat qiladi. Tilshunoslikda maqollar uzoq vaqtdan beri ularning tuzilishi, semantikasi va pragmatik xususiyatlari jihatidan o'rganib kelinadi. Bu iboralar ko'pincha metaforik yoki idiomatik tusga ega bo'lib, tilning qanday rivojlanishini, inson tafakkuri qanday ishlashini hamda jamiyatlar bilimlarni qanday bo'lishini tushunishga yordam beradi. Maqollarni o'rganish tilshunoslarga tilning madaniy me'yorlar va kognitiv jarayonlarni qanday aks ettirishini tushunishga imkon beradi. Ushbu tadqiqotning maqsadi tilshunoslikdagi maqollarning o'rini, ularning lingvistik xususiyatlari, kognitiv funksiyalari va til tuzilishi hamda rivojlanishini o'rganishga qo'shgan hissasini tahlil qilishdir. Paremiologiya maqollarni lingvistik va madaniy artefaktlar sifatida ilmiy o'rganishni anglatib, ular jamiyat qadriyatlarini, kognitiv tuzilmalar va jamoaviy donolikka olib boradigan ko'prik vazifasini bajaradi. Paremiologik tahlil nuqtai nazaridan, tadqiqotchilar maqol iboralarining madaniy bilimlarni qanday jamlashi va uzatishi, ijtimoiy tuzilmalarini qanday aks ettirishi, hamda lingvistik

jamoalardagi fikrlash namunalarini qanday yoritishini o'rganadilar. Bu fanlararo soha tilshunoslik, antropologiya, kognitiv fan va madaniy tadqiqotlar istiqbollarini birlashtirgan holda, maqol donoligi orqali namoyon bo'lgan til, jamoaviy identitet va tushunchaviy mulohaza o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qiladi. Maqollarning semantik, sintaktik, pragmatik va kognitiv jihatlarini o'rganish orqali, paremiologiya turli madaniy mintaqalarda og'zaki ifoda, ijtimoiy-madaniy amaliyotlar va intellektual an'analar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqliklar haqida chuqur tushunchalar taqdim etadi.

Maqol (lotincha: proverbium) yoki hikmatli so'z – bu oddiy, an'anaviy ibora bo'lib, sog'lom fikr yoki tajribaga asoslangan deb hisoblangan haqiqatni ifodalaydi. Maqollar ko'pincha metaforik bo'ladi va formulaviy tilning namunasi hisoblanadi(O'zME.2000). Maqolga o'xshash iboralar yoki maqol tusidagi ifodalar an'anaviy so'zlashuv shakllariga kiradi va og'zaki an'ana orqali avloddan avlodga o'tadi. Maqollar bu avloddan avlodga o'tib kelayotgan oddiy donolik so'zlaridan ko'ra ancha muhimroq bo'lib, ular madaniy qadriyatlar, jamiyat me'yorlari va kognitiv namunalar haqida

chuqur tasavvur beradi. Maqollarni o'rganish (paremiologiya) til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam beradigan muhim yo'nalish hisoblanadi. Maqollar til tuzilishi va ijtimoiy ma'no o'rtasidagi ko'prik bo'lib xizmat qiladi, ular murakkab madaniy qadriyatlarni oddiy va yodda qoladigan iboralarda mujassamlaydi. Ularning til jihatidan ixchamligi, metaforik ifodasi va barqaror tuzilmalari orqali maqollar umumiy insoniy tajribalarni hamda aniq madaniy kontekstlarni aks ettiruvchi doimiy donolikni ifodalaydi. Paremiologiya til, tafakkur va jamiyat o'rtasidagi chuqur aloqalarni tushunish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslikda maqollar tilning insoniy tajribani qanday mujassamlashtirishini ko'rsatadigan boy tadqiqot sohasidir. Paremiologiya – bu maqollar va hikmatli so'zlar haqidagi fan. Paremiyalar (yunoncha “paromia” – maqol, masal) – dunyo tillarining barchasiga xos bo'lgan universal hodisadir. (O'zmE 2000. 1) 20-asrning oxirgi uchdan bir qismida – 21-asrning boshlarida tilshunoslik, folklorshunoslik va boshqa tegishli fanlarning muvaffaqiyati paremiologiyaning tez rivojlanishiga sabab bo'ldi. Tashqi tuzilishining oddiy ko'rinishiga qaramay, maqol shunchalik murakkab hodisaki, hozirgacha bu turdagi paremiyalarning fan doirasida yagona va umumiy e'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Paremiografiya maqollarni to'plash va tasniflash bilan shug'ullanadi. Uni paremiologiyaga aloqador, biroq mustaqil yo'nalish sifatida tushunish mumkin. Paremiologik tadqiqotlarda asosiy e'tibor maqollarining ta'rifi, shakli, tuzilishi, uslubi, mazmuni, funksiyasi, ma'nosi yoki qadriyatiga qaratiladi (Mieder 2004: xii). Maqollarni tahlil qilish orqali tilshunoslar nafaqat tilning tuzilishi va ma'nosini, balki uning madaniy birlikni shakllantirish va aks ettirishdagi rolini ham o'rganishlari mumkin. Ushbu maqolada maqollarining tilshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi, ularning lingvistik xususiyatlari, kognitiv funksiyalari, madaniy ahamiyati, shuningdek, turli jamiyatlar orasida til rivoji va kommunikatsiyani tushunishga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Shundan kelib chiqadiki, ingliz xalq maqollarining ham uzoq tarixga ega ekani va ular hozirda ham turli shakllarda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilayotganligi ayon bo'ladi.

Jozef Reymond maqollarni quyidagicha tushuntiradi: Maqollar nafaqat ohangdor va aql bilan aytilgan, ritm va obrazlilikka ega, balki ular "tafakkur naqshlarini" ham aks ettiradi. Ya'ni, maqollar ixcham va ritmik tuzilishga ega bo'lib, faqat donolikni emas, balki inson tafakkurini ham ifodalaydi. Ingliz olimi V. Miederning "Proverbs: A Handbook" (Maqollar: Qo'llanma) darsligida maqol lingvistik jihatdan tahlil qilinadi, paremiya tushunchasi aniqlanadi, ular mavzular bo'yicha guruhlariga bo'linib o'rganiladi. Shuningdek, ingliz va jahon tillari madaniyatidagi paremiologik birliklarning o'rni faktik misollar asosida ochib beriladi. Amerikalik tilshunos A. Dandes til bosqichlarini quyidagicha belgilaydi. Uning fikricha, maqollar oddiy va murakkab gap shakllariga ega. Maqollar – katta muammolarga qisqacha yechimdir. Ular insoniyatning hayotiy tajribasining aksidir. Muayyan tarbiya va ma'naviyat tushunchalarini keng yoyadi. Mashhur paremiolog Archer Teylor aforizmni maqolning bir turi sifatida ta'riflaydi. Muallif maqollarni adabiy va xalq maqollariga ajratadi hamda aforizmlarni adabiy maqollar sifatida o'rganadi (ya'ni, millat tomonidan tan olingan, lug'atlar va to'plamlarda aks etgan maqollar – adabiy maqollardir). Paremiolog sifatida tanilgan Alan Dundis quyidagicha ta'kidlaydi: “Maqollar har doim katta e'tiborga sazovor bo'lib kelganini inobatga olsak, ularning hanuz aniq ta'riflanmaganligi juda qiziq holatdir.” B. D. Uayting fikriga ko'ra: “Maqollar uchun qisqa va ishlatish uchun qulay bo'lgan umumiy qoida taklif qilish deyarli imkonsiz, ayniqsa barcha maqol tusidagi ifodalarni qamrab oladigan qoida haqida gap ketganda.” Bunga qaramay, u bunday qoida zarur emasligini

bildiradi: “Yaxshiyamki, bunday qoida zarur emas, chunki biz hammamiz maqol nima ekanligini bilamiz.” D. B. Hassel esa "Folk Genres" (Xalq janrlari) asarida aforizmlar to'g'ridan-to'g'ri maqolga aylanishini emas, balki dono so'zlar orqali o'tishini ta'kidlaydi.

Tadqiqot uslublari. Ushbu tadqiqot sifati (qualitative) tadqiqot metodologiyasiga asoslanadi. Unda adabiyotlar sharhi bilan birgalikda turli tillar va madaniyatlarga oid maqollar tanlovi lingvistik jihatdan tahlil qilindi. Adabiyotlar sharhi tilshunoslik va antropologiyaga oid tadqiqotlarni qamrab olib, maqollarining til tuzilishi, ma'nosi va kognitiv (idrokiy) funksiyalari bilan bog'liq jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Turli tillardagi maqollar korpusi tanlab olindi, jumladan ingliz, xitoy, va o'zbek tillari, bu esa maqollarni ishlatishdagi madaniyatlararo xususiyatlarni yoritishga xizmat qiladi. Ushbu maqollar metaforik mazmuni va kognitiv funksiyalari bo'yicha tahlil qilindi, ayniqsa ularning madaniy o'zlik shakllanishi va ijtimoiy muloqotdagi roli alohida e'tiborga olindi.

Paremiologiya – maqollarni o'rganuvchi fan sifatida – til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni tushunishda muhim bilimlar beradi. Maqollar o'zining ixcham shakli va boy mazmuni bilan til tuzilishi va madaniy ahamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Ular inson tajribasining universal jihatlarini hamda alohida jamiyatlarga xos qadriyatlarni aks ettiradi. Maqollarni o'rganish orqali olimlar til qanday qilib madaniy uzluksizlik vositasi bo'lib xizmat qilishini, jamiyat qoidalari qanday qilib og'zaki va yozma shakllarda avlodlardan avlodga o'tishini, murakkab g'oyalar qanday qilib sodda, esda qolarli shakllarda ifodalanishini va odamga nafaqat ma'lumot, balki his-tuyg'ularni yetkazishini yaxshiroq anglay oladilar.

Madaniy va ijtimoiy ahamiyati. Maqollar tilni tushunish va undan foydalanishning murakkab kognitiv jarayonlari haqida tasavvur beradi. Kognitiv nuqtai nazardan qaraganda, maqollar fikrlash uslubiga ta'sir ko'rsatadi. Kognitiv tilshunoslik shuni ta'kidlaydiki, til inson ongidagi jarayonlarni aks ettiradi va maqollarda ishlatiladigan metaforik tilda tafakkurni shakllantiruvchi vosita mavjud. Maqollar murakkab fikrlarni soddalashtirilgan shaklda ifodalaydi, bu esa ularni tushunarli va yodda saqlashni osonlashtiradi. Ularning asosiy funksiyasi – tajriba va madaniy bilimlarni qisqa jumalarga jamlab, xotirada saqlanishi va donolikning avlodlar o'rtasida uzatilishiga xizmat qilishidir.

Shuningdek, maqollar ko'pincha metafora va o'xshatishga asoslanadi. Bu esa inson tafakkuridagi solishtirish va tushunchalash kabi kognitiv jarayonlarni ishga soladi. Masalan, “The early bird catches the worm” maqoli qush va chuvalchang o'xshatmasi orqali o'z vaqtida harakat qilish va faol bo'lish zarurligini anglatadi. Bunday o'xshatmalar umumiy kognitiv modellar orqali odamlar ongida ijtimoiy va axloqiy normalarni sodda obrazlar orqali tushuntiradi. Shubhasiz, maqollar oddiy xalqning ham kundalik hayoti haqida ko'plab tafsilotlarni ifodalaydi. Ko'plab tilshunoslar maqollarni madaniy matn sifatida ko'rib chiqish metodini taklif etgan. Bu metod tilda madaniy darajani aks ettiruvchi “madaniy birlik” (cultureme) tushunchasiga asoslangan. Maqollar o'z kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini ham aks ettiradi. Ular jamiyat qadriyatlari, ustuvorliklari va dunyoqarashi haqida tushuncha beradi. Masalan, kollektivizm kollektivizm hukmron bo'lgan jamiyatlarda maqollar odatda guruh birdamligini targ'ib qiladi. Yapon maqoli “The nail that sticks up gets hammered down” (ya'ni, ko'zga ko'ringan odam jazolanadi) jamiyat talablariga moslashish zarurligini anglatadi. Aksincha, individualizm ustuvor bo'lgan jamiyatlarda, masalan ingliz tilidagi “The squeaky wheel gets the grease” (“Yig'lamagan bolaga em

bermaydilar.") maqoli o'z fikrini ochiq aytish muhimligini ko'rsatadi.

Ingliz maqollari tadqiqotning eng e'tiborli natijalaridan biri shundaki, inglizcha maqollar umumiy kognitiv jarayonlar, masalan, idrok, hukm chiqarish va qaror qabul qilishni qanday aks ettirishini ko'rsatdi. "Look before you leap" va "A bird in the hand is worth two in the bush" kabi maqollar oldindan ko'rishning va xavf va foydalarni mental baholashning kognitiv ahamiyatini namoyish etadi. Bu, odamlar qarorlar qabul qilayotganda ishlatadigan mental modellari, xavfdan qochish va qat'iylikni qadrlash kabi kognitiv biaslarni nazariy tarzda mustahkamlaydi. Bundan tashqari, "Seeing is believing" va "Don't judge a book by its cover" kabi maqollar kognitiv ustuvorlik nafaqat biz ko'rgan narsalar bilan, balki dunyoni qanday talqin qilishimiz bilan shakllanishini ko'rsatadi. Bu maqollar kognitiv ogohlantirish sifatida xizmat qiladi, odamlarni yuzaki yoki noto'g'ri fikrlashga emas, balki chuqurroq tahlil qilishga chaqiradi.

Bundan tashqari, maqollar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, madaniy me'yorlarni mustahkamlash va muloqotni osonlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Madaniy nuqtai nazardan qaraganda, maqollar madaniy artefaktlar sifatida jamiyat qadriyatlarini va normalarini anglashga yordam beradi, bu esa xorijiy tillarni o'rganuvchilar uchun madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi. Maqollar umumiy bilimni ifodalovchi kod vazifasini o'taydi, bu esa murakkab fikrlarni qisqa va samarali shaklda ifodalashga imkon beradi. Ularning kundalik suhbatlarda ishlatilishi ko'pincha ijtimoiy og'irlikka ega bo'lib, donolik, hurmat yoki guruhga mansublik belgisi sifatida baholanadi. Bu maqollar nafaqat amaliy hayotiy maslahatlar, balki har bir xalqning o'zbek milliy kognitiv tafakkurining muhim elementlari hisoblanadi. Misol o'zbek maqollarini tadqiq qilish orqali o'zbek xalqining dunyoni tushunish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish usullarini chuqurroq anglash mumkin. O'zbek xalqi mehnat va uning ustuvor bo'lgan jamiyatda "Mehnat – mehnatning toji, aql – davlatning sozi" kabi maqollarda yaqqol ko'rinadi. Mehnat va aql o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib, kognitiv aloqadorlikni ifodalaydi. "Bugungi ishini ertaga qo'yima" vaqtini boshqarish va rejalashtirishga oid kognitiv strategiyani aks ettiradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari maqollarning tilshunoslikdagi ko'p qirrali rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Maqollar nafaqat ma'no ifodalovchi til birliklari, balki murakkab madaniy bilimlarni ixcham shaklda mujassamlashtiruvchi kognitiv vositalardir. Ularning tuzilishi ko'pincha metaforik va muvozanatli bo'lib, mavhum tushunchalarni aniqroq va esda qolarliroq qiladi. Bundan tashqari, maqollar jamiyat qadriyatlarini, me'yorlari va dunyoqarashlarini aks ettirib, madaniy identitet va ijtimoiy dinamikalarini yaxshiroq tushunish imkonini beradigan lingvistik vosita sifatida xizmat qiladi. Maqollar til va kognitsiya o'rtasidagi munosabat haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Ulardagi metafora va analogiyalardan foydalanish tilning fikrlashga qanday ta'sir qilishini va kognitiv jarayonlar madaniy hamda lingvistik kontekstlar orqali qanday shakllanishini yoritadi. Maqollarni o'rganish orqali tilshunoslar tilning inson tajribasini qanday aks ettirishi va shakllantirishini chuqurroq anglashlari mumkin.

Maqollar o'zlarining strukturaviy, kognitiv va madaniy ahamiyati sababli tilshunoslikda muhim o'rin egallaydi. Ular o'zining ixcham va metaforik tabiati orqali jamiyat donishmandligi va madaniy qadriyatlarini uzatish vositasi bo'lish bilan birga, kognitiv jarayonlar va ijtimoiy me'yorlarni ham aks ettiradi. Maqollar – bu kommunikatsiyani shakllantiruvchi va til, madaniyat hamda tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishda katta hissa qo'shuvchi kuchli lingvistik vositadir.

Maqollarni o'rganish bo'yicha olib boriladigan keyingi tadqiqotlar til, kognitsiya va madaniyat tutashgan nuqtalarda muhim yangiliklarni kashf etishda davom etishi mumkin. Bu esa tilshunoslik sohasida tadqiqot olib borish uchun nihoyatda boy va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Olingan natijalar, maqollar faqatgina tilshunoslik ifodasi emas, balki odamlarning dunyoni qanday idrok etishi, fikr yuritishi va tushunishi haqida chuqur aks ettirishlar ekanligini ko'rsatadi. Maqollardagi kognitiv ustuvorlikni muhokama qilish, madaniy va kognitiv omillar qanday qilib til tuzilmalari va ma'nolarini shakllantirishini tushunishda muhimdir.

REFERENCES

1. Agrawal, Dr K. P. (2023-02-12). *Treasure Of Book: On Poetries, Ghazals, Proverbs, Riddles, Idioms, Jokes and Quotes*. Shashwat Publication. p. 12.
2. Dandes, A. (2006). On the Structure of the Proverb. *Proverbium: Yearbook of International Proverb Scholarship*, 23, 143-161.
3. Mieder W. *Proverbs: A handbook*. Westport, CT: Greenwood Press, 2004
4. *Proverbs: A Handbook* (Greenwood Folklore Handbooks) 322 Pages · 2004 · 13.28 MB · English Wolfgang Mieder
5. Hassel, D. B. (2016). *Folk Genres: An Introduction*. Utah State University Press.
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (O'zME). (2000). *Paremiologiya*. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti



UDK: 821.512.133

Sohiba RAIMQULOVA,
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: rayimkulovsahiba19@gmail.com

Tosh DO'TAU professori, filol.f.n. A. Ulug'ov taqrizi asosida

KICHIK JANRLARDA IJODKORNING ADABIY-ESTETIK KONSEPSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqola hikoyachilikda ijodkorning adabiy-estetik konsepsiyasining o'rini va ahamiyatini tahlil qiladi. Adabiy-estetik konsepsiya deganda, yozuvchining adabiyot va san'atning mohiyati, vazifasi, go'zallik mezonlari, badiiy asarning tuzilishi, til va uslubga bo'lgan talablari haqidagi qarashlari tushuniladi. Maqolada ijodkorning adabiy-estetik konsepsiyasi uning asarlarining mavzusini, g'oyasini, obrazlar tizimini, tilini, uslubini va boshqa elementlarini belgilashi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada adabiy-estetik konsepsiya tushunchasi adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yoritilib, tanikli o'zbek yozuvchilarining ijodi misolida bu konsepsiyaning amaliy namoyonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hikoyachilik, ijodkor, adabiy-estetik konsepsiya, mavzu g'oya, obraz, uslu, dunyoqarash, adabiyotshunoslik.

ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ТВОРЦА В МАЛЫХ ЖАНРАХ

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение литературно-эстетической концепции автора в повествовании. Под литературно-эстетической концепцией понимаются взгляды писателя на сущность и назначение литературы и искусства, критерии красоты, структуру художественного произведения, а также требования к языку и стилю. В статье показано, что литературно-эстетическая концепция автора определяет тему, идею, систему образов, язык, стиль и другие элементы его произведений. Также рассматривается понятие литературно-эстетической концепции с точки зрения литературоведения, и на примере творчества известных узбекских писателей анализируются практические проявления этой концепции.

Ключевые слова: повествование, творческая личность, литературно-эстетическая концепция, тема и идея, образ, стиль, мировоззрение, литературоведение.

LITERARY AND AESTHETIC CONCEPT OF THE CREATOR IN SMALL GENRES

Annotation

This article analyzes the role and significance of the author's literary-aesthetic concept in storytelling. The literary-aesthetic concept refers to the writer's views on the nature and function of literature and art, criteria of beauty, the structure of a literary work, and the requirements for language and style. The article highlights how the author's literary-aesthetic concept defines the themes, ideas, system of imagery, language, style, and other elements of their works. Furthermore, the concept is examined from a literary-critical perspective, and its practical manifestations are analyzed through the creative works of prominent Uzbek writers.

Keywords: narrative, writer, literary-aesthetic concept, theme and idea, imagery, style, worldview, literary criticism.

Kirish. Har bir yozuvchi o'ziga xos dunyoqarashga, hayotga, insonlarga va san'atga bo'lgan qarashlar tizimiga ega. Bu qarashlar uning adabiy-estetik konsepsiyasini tashkil etadi va ijodida o'z aksini topadi. Hikoyachilikda ijodkorning adabiy-estetik konsepsiyasi uning asarlarining mavzusini, g'oyasini, obrazlar tizimini, tilini, uslubini va boshqa elementlarini belgilaydi. Shu o'rinda adabiy-estetik konsepsiya nima degan savol tug'uladi. Ushbu atama xususida adabiyotshunos olim D. Qur'onov shunday deydi: "Adabiy-estetik konsepsiya - bu ijodkorning adabiyot va san'atning mohiyati, vazifasi, go'zallik mezonlari, badiiy asarning tuzilishi, til va uslubga bo'lgan talablari haqidagi qarashlaridir. Bu konsepsiya yozuvchining dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, madaniy muhiti va adabiy ta'sirlar asosida shakllanadi" [1]. Yozuvchining adabiy-estetik konsepsiyasi uning qanday mavzularga murojaat qilishini va asarlarida qanday g'oyalarni ilgari surishini belgilaydi. Ma'salan, realistik adabiyot vakillari ijtimoiy muammolarni yoritishga intilsalar, romantiklar insonning ichki dunyosini, uning orzulari va idealarni aks ettirishga harakat qilishadi. Yozuvchining qahramonlari uning adabiy-estetik konsepsiyasining mahsuli hisoblanadi. Ular orqali yozuvchi o'zining yaxshilik va yomonlik, go'zallik va

xunuklik, adolat va zulm haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Qahramonlarning xarakteri, xatti-harakati va taqdiri yozuvchining dunyoqarashini aks ettiradi. Abdulla Qahhorning adabiy-estetik konsepsiyasi realistik va hayotiy bo'lgan. U o'z asarlarida o'zbek xalqining turmushini, ijtimoiy muammolarini va ma'naviy qadriyatlarini aks ettirishga intilgan. Uning qahramonlari oddiy, mehnatkash va hayot sinovlariga bardosh beradigan insonlardir. Hikoyachilikda ijodkorning adabiy-estetik konsepsiyasi uning asarlarining barcha elementlarida o'z aksini topadi va ularning badiiy qiymatini belgilaydi. Yozuvchining dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va san'atga bo'lgan qarashlari uning asarlarining mavzusini, g'oyasini, obrazlar tizimini, tilini va uslubini shakllantiradi. Shuning uchun, yozuvchining asarlarini tahlil qilishda uning adabiy-estetik konsepsiyasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Badiiy matnda shunaqangi bir sehrli kuch borki, uni o'qiy boshlasangiz, ichidagi poetik obrazlar qismati bilan tanishasiz. Ayni damda, go'yo har bir jumla mehvaridan uning ijodkori bo'lmish hikoyachi siymosi, shaxsiyati, imon-u e'tiqodi, dunyoqarashi, tasvirlash olami, bir so'z bilan aytganda, butun borlig'i namoyon bo'lgandek tuyuladi. Buni

nafaqat zamonaviy hikoyalarda, balki olis moziyda bitilgan matnlarda ham ko'rishimiz mumkin. Shu ma'noda, hikoyachilikda ijodkorning adabiy-estetik konsepsiyasi omillarini hisobga olganda, hikoya janrdagi asarlarga xos bo'lgan mushtarak bir uyg'unlikni kuzatish mumkin. Bu – hikoyanavis shaxsiyatiga xos bo'lgan hayotsevarlik, imon-u e'tiqodda sobitqadamlik, adolat tantanasi uchun intilish tuyg'usining ustivorligidir.

Sobiq sho'ro davri shart-sharoitlaridan ozod, jamoatchilik fikri va inson qalbini tarbiyalashda vosita rolini o'ynashdan voz kechgan o'zbek zamonaviy adabiyoti yuksaldi. Murakkab, o'ziga xos, keng ko'lamli badiiy tizimga aylandi. Bunda o'z qonuniyatlarini, rivojlanishning izlanish va an'analari, asrlar bo'yi yashab kelayotgan bebaho milliy adabiyot tajribalari sinchiklab o'rganilyapti ham. Yangi milliy, ijtimoiy-madaniy omillar, jahon madaniy jarayonlariga mutanosib muvaffaqiyatlarga erishildi. Qayd etilganlarning tub zamirida o'zbek zamonaviy hikoyachiligiga qiziqish va uning ko'tarilish bosqichlari ko'rinadi.

Taassufki, adabiy asar sermahsulligi, qadr-qimmatini nafaqat badiiy matnlarni shakllantirishga, balki asar mohiyatiga qay darajada davr ijtimoiy-madaniy omillarini singdirib yuborishga ham bog'liq. Bu tabiiy ravishda yangi poetik dunyoni his qilishni, qadriyatlar mohiyati, yangi ijtimoiy-madaniy nuqtalarni o'zida aks ettirishi ham mumkin. Kichik janr sanalishiga qaramay, salmoqli o'ringa ega hikoyachilik hamisha dolzarblik nuqtai nazaridan boshqa keng ko'lamli prozaik janrlardan oldinda turadi.

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida "kenglik va janr maydonining xilma-xilligi, janr bilan muallif erkinligining o'zaro garmonik moslashuvi xarakterlidir" (M.Baxtin), dunyoqarash va estetik muvofiqlashuv natijasida global yangi taraqqiyot qiyofasini ijtimoiy-madaniy idrok bilan ifodalash juda kuchli. O'zbek zamonaviy hikoyachiligining mualliflari tarixan shakllangan janrning tub ko'rinishlarini tanlab olishadi, chunki ular ijodkorning asosiy muddasini ifodalab beradi yoki yaratmoqchi bo'lgan o'ziga xos yo'lni modellashtiradi.

Yangi badiiy tuzilma, model va shakllarda yangi mazmun-mohiyat, ruhiyat qirralari, an'anaviy-madaniy qadriyatlarini baholash, yangi shaxs konsepsiyasi (butunligi, qarashlari, fikrlari) yo'lida samarali izlanishlar o'zbek zamonaviy hikoyachiligining badiiy tuzilmasi, janr ko'lamini bezab turibdi.

Ma'lumki, mazkur hikoyalar an'anaviy janr tuzilmasiga ko'ra, o'zbek mumtoz hikoyachiligining eng yaxshi an'analari davom ettirib, yuksaltirib kelmoqda. Zero, ularning tomlari milliylikka borib taqaladi. Darhaqiqat, bu davrda ko'hna usul va mazmun-mohiyatni aks ettirgan hikoyalar bilan birga, teran zamonaviylikni o'zida singdirgan asarlar yaratildi. Odil Yoqubovning "Qayerdasan, Moriko?", "Muzqaymoq", Xayriddin Sultonovning "Dunyo sirlari", "To'siq", Muxammad Alining "Kulcha", "Altair yulduzi", Xurshid Do'stmuhammadning "Qichqiriq", "Vasiy", Sobir O'narning "Aka-ukalar", "Tegirmonchining o'g'li", Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", "Bahouddinning iti", Abduqayum Yo'ldoshevning "Alvido, go'zallik", "Muammolar bormi?", Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol", Uyg'un Ro'ziyevning "Tongda qaytgan kaplarlar", "Notinch qalb" kabi hikoyalari ham shular sirasidan. Zamonaviy yangi, no'an'anaviy ko'rinishga ega ijodiy izlanishlar, namunalaridan ham kiritilgan: Isajon Sulton – "Suvdagi kosa", "Tungi dovul", Ulug'bek Hamdam – "Bir piyola suv", "Ko'nglimdagi daryo", Zulfiya Qurolboy qizi – "Ikki qiyofa", Rahimjon Rahmat – "Miyamning ichi", "Adashvoy". Bu hikoyalar o'quvchini mustaqil ravishda fikrlashga, izlanishga, muallifni his etishga undaydi, hamda xayolot va mavjud hayot orasidagi ziddiyatlarining yangi badiiy siyofasi yaratilganiga guvohlik

beradi. Bizningcha, ijodkorlar o'zbek hikoyachiligidagi poetik ohangni saqlab qolgan holda, ularga yangicha joziba baxsh etishga harakat qilgan va bunga erishgan ham.

Bu hikoyalarda xalq yuragini nozik his etib, milliy tarix, xarakter, tilning nozik jihatlarini yaxshi bilgan holda, uyg'unlik ifodasini topolgan, jaranglata bilgan ham. Zarurat tug'ilganda "oshirib ifodalash"dan foydalangan, biroq aslyatdan uzilmagan, uning miqdorini ham buzmasdan, to'laqonli hikoyalarni yozishga erishgan.

Har bir hikoyada muallif o'y-xayollariga teran kirib borib, detalma-detal ko'rib chiqib, tafakkurning o'ziga xos "sirlari", har bir muallifning tilini tushunish, dunyoni ko'rish, badiiy vositalarning xilma-xilligi va hayotiy materiallarni aks ettirish usullarini qo'llashni uddalagan, deyish mumkin. Hikoyalarda ba'zan o'ylab topilgan sheva so'zlarining aralashuvi ham border, ammo muallif individualligi obraz individualligiga suyanib qolmagan.

Adabiyotda adabiy ta'sir masalasi ham bor. Aynan shunday hikoyalarning adabiy jarayoniga kirib borishiga, zamon va makon bilan birlashib ketishiga imkoniyat yaratadi. O'zbek adabiyotini yaqin va uzoqdagi o'quvchilar orasida ommaviylashuvini ta'minlaydi va, shubhasiz, uning dunyo adabiy jarayonlariga jadal qo'shiluvda o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ijodkorning erkinligi haqida masalasida fikr yuritish ham zarurdek. Ijodkor erkinligi deganda, asar yozish jarayonida adibning o'zini to'la erkin his qilishi, turli mavzuda, turli tarzda bema'lol eksperimentlar o'tkazish erkinligini tushunish mumkin. Xuddi shu masalaga yondashib adabiyotshunos Z.Isomiddinov "Ana shunday sharoitda, adabiyotda yangi badiiy g'oyalar, yangi oqimlar, yangi janrlar yuzaga keladi va milliy badiiy tafakkur darajasi yuksakka ko'tariladi. Biroq qaysi mavzuda yozish mumkin yo yo'q, bu gapni shu tarzda ifodalab bo'lmaymiz, kimdir – birov qarshi chiqmaymiz, deya Chexovning "G'ilof bandasi" qahramoniga o'xshab, hadeb o'zni cheklash, haddakay hadiksirash nafaqat asarni va ijodkorni, balki butun adabiyotni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi. Zero, tabiiy o'sayotgan daraxt alleyalardagi og'ochlar singari maqbul forma olib emas, butun tanasi bo'ylab shox-butoqlar chiqarib, borlig'i bilan gullab-yashnab gulf urib ko'karadi-ku! Shunisi bilan u – tirik daraxt. Hech bir daryoning o'zani nivelir bilan tortilgan kanalga o'xshab bir chiziqli bo'ylab emas, ming xil buralib, adadsiz qayrilishlar bilan oqadi va tevarakdagi borliqqa jon ato etadi"[2]. Ijodkor fikriy erkin bo'lishi uchun u iqtisodiy jihatdan ham erkin bo'lishi kerak. Yigirmanchi yuz yillikda o'zbek adiblari iqtisodiy holati siyosiy hokimiyatga deyarli qaram edi. Manan qaram yozuvchi o'zi yashab turgan davrga xolis yondashib asarlar yozishga tiynaladi. Anglashiladiki, iqtisodiy erkinlik sharoitida badiiy tafakkur rivojlanadi. Hozir biz iqtisodiy erkinlik davrida yashaymiz. Davr demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan. Demak, ijodiy erkinlikdan birinchi navbatda jamiyatning o'zi manfaatdor hisoblanadi.

Shubhasiz, hozirgi davrda o'zbek adabiyotida jiddiy asarlar yuzaga kelishi uchun obyektiv vaziyat mavjud:

birinchidan, siyosat jarayon badiiy adabiyotni majburan o'z izmiga solishga harakat qilayotgani yo'q. Chunki erkin fikrlashdan manfaatdor jamiyat ijod ahlining ma'naviy tafakkuriga aralashmaydi. Va shunday bo'lyapti ham;

ikkinchidan, bugungi ijodkor, davlatga iqtisodiy qaramlikdan qutilib, yashashi uchun kerak bo'layotgan ne'matlarni o'z mehnati bilan topyapti. Bu narsa ham uning erkin fikrli ijodkor bo'lishiga katta bir imkoniyatdir.

Jarayonda yozilayotgan asarlar birinchi navbatda hech qaysi jihatdan biron-bir kuchga qaram bo'lmagan, tafakkuri erkin va ozod ijodkorning qalbida kechayotgan tirik hodisa, jarayon sifatida qimmatga egadir. Masalan, Nazar Eshonqulning "Bahoviddinning iti", Isajon Sultonning

“Qismat”, Ulug‘bek Hamdamning “Bir piyola suv” hikoyalarini o‘qiyotib, bu asarlarni qalbi va tafakkuri to‘la erkin ijodkor yozganini his qilish mumkin.

Ezgulik va yovuzlik orasidagi kurash hamisha bo‘lgan va bundan keyin ham davom etadi. Ezgulik va yovuzlik orasidagi ziddiyat insonning fiziologik va ruhiy tabiati orasidagi ziddiyatdan paydo bo‘ladi. Ham adabiyotshunos, ham journalist, ham shoir Rahimjon Rahmat bir suhbat maqolasida yovuzlik va yaxshilik masalasida shunday yozadi: “Ajabki, hayvonlar orasida bu ikki tushuncha ahamiyatga ega emas. Bo‘ri go‘sh t yemasa, ochdan o‘ladi. Katta baliqlar kichik baliqlarni yutib turmasa, qorni to‘ymaydi. Daraxtlar ham kenglik va nur talashib bir-birini quritishga qasd qiladi. Kishilik jamiyatida esa barcha davr va xalqlar uchun o‘zgarmas bo‘lgan muqaddas qonun – cheklovlar bor. Ayollar, bolalar, nogironlar va keksalarga shafqatli bo‘l, deyiladi insonlar jamiyatida. Hatto bu narsalar qonun yo‘li bilan himoya qilinadi. Deylik, avtobus haydovchisi balog‘atga yetmagan bolani yarim kechasi puling yo‘q ekan, deb avtobusdan tushirib yuborsa, jinoyat sodir qilgan hisoblanadi. YA’ni u voyaga yetmagan bolani mazmunan xavfda qoldirib ketayotgan bo‘ladi” [3]. Insonni jamiyatda odam qilib turgan millionta ruhiy-ma’naviy qadriyatlar bor. Ularning bari umumlashgan holatda yaxshilik deb ataladi. Lekin inson tabiatida uni hayvonga aylanishga majburlab turadigan millionta illat bor, bular esa bir so‘z bilan yomonlik deyiladi.

Nurullo Muhammad Raufxonning “Etakdagi kulba” hikoyasida (“Sharq yulduzi” jurnalining 2010 yil 1-sonida e‘lon qilingan) bevosita muallif tilidan bayonlar, tavsiflar, izohlar beriladi hamda hikoya tasvirlar teranligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Badiiy matnda ifodaviylik nuqtayi nazaridan ramzlar ahamiyatli. Ramzlarning – ramz-obraz, ramz-detali, ramz-syujet kabi turlari farqlanadi (nazariy kitoblarda). Hikoya “jimjit” so‘zi bilan boshlanadi. Va aynan o‘sha “jimjitlik”ka Devona o‘zining “g‘alati”, “shubhali” va “qo‘rqinchli” xitobi bilan raxna soldi: “Uyi kuygan kim bor?.. Moli kuygan kim bor?.. Bag‘ri kuygan kim bor?..”[4]

“Etakdagi kulba” hikoyasining syujeti ramzlar asosiga qurilgani bilan e‘tiborni tortadi. Bir o‘qishda yashirin sirlarini ilg‘ash, anglash mushkul bo‘lgan bu hikoya – kitobxonni chuqur mushohadaga chorlaydi: “Qishloq sergak tortdi, shubhalandi. Zerikarli va tussiz hayotiga sal bo‘lsa-da, bo‘lakcha bir havo kiritishi mumkin bo‘lgan bu so‘zdan quvonmadi, aksincha, biroz qo‘rqinch bosdi, momaqaldiraqdek tuyqus yangragan bu tovush, albatta, ularga qo‘rqinchli va shubhali tuyuldi. “O‘lik”, “gung” va “diqqan nafas” Qishloqda Devonaning tovushi kezar, jimjitlik shovqinidan tom bitgan quloqlarga uning tovushi allaqanday

yoqimli bir epkin bo‘lib kirar, hatto shirali eshitilar edi”[5]. Hikoyaning ana shu joyida muallif fikrini uqqanday bo‘lasiz. Birinchi muhabbatdagi hayrat, undan qolishi muqarrar bo‘lgan qalb og‘rig‘i, o‘zlikni anglash, ijod qilish ishtiyoqi... Quyilib kelayotgan fikrlar ichidan eng to‘g‘risini aynan muallif nazarda tutayotgan jumboqni topmoq maqsadida ularni saralay boshlaydi kishi.

Qishloq – qish bo‘lsa qora sovuqdan qaltirab, yoz bo‘lsa issiqdan kuyib, bahor kelsa bir nafas olib, kuzda esa bir nafas chiqarib, beparvolik bilan zerikarli hayot kechirayotgan ramziy makon. Devona – g‘alati, dalli bir obraz. Hikoyada bu obrazga quyidagicha ta’rif beriladi: “Kim bo‘ldi bu odam? Usta bo‘lib ustaga o‘xshamaydi, kuygan uylarni butlab beray desa? Boy bo‘lib boyga o‘xshamaydi, moli kuyganlarga suyanchiq bo‘lsa? Tabib bo‘lib tabibga o‘xshamaydi, kuygan bag‘irlarga dori qo‘ysa? Kim, axir?.. G‘irt devona! So‘zi turishiga, turishi so‘ziga uyg‘un kelmaydigan dalli!”[6]. O‘zi dunyo adabiyotida masxaraboz, telba kabi fosh qiluvchi sayyor obrazlar mavjud. Bu obraz orqali jamiyatdagi bir qator muammalar ham yuzaga qalqib chiqib qoladi.

Birgina 2012-yilda “Tafakkur”, “Jahon adabiyoti”, “Guliston”, “Yoshlik”, “Sharq yulduzi”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” singari nufuzli adabiy davriy matbuot nashrlarida chop etilgan hikoyalar soni ellikdan ortiq ekan. Luqmon Bo‘rixon, Isajon Sulton, Ma’suma Ahmedova, Axtamqul Karimlarning ayni shu yilda nashr etilgan hikoyalar to‘plamlaridan oltmishdan ortiq hikoya joy olgan. Bunga adabiyotga bevosita aloqador bo‘lmagan davlat nashrlari, xususiyl gazeta-jurnallar, viloyat vaqtli matbuoti materiallarini ham qo‘shadigan bo‘lsak, o‘sha yili eng kami ikki yuz ellik, uch yuzta hikoya e‘lon qilingani ochiq qoladi. O‘sha yil e‘lon qilingan hikoyalarning mavzu va mundariyasi, umuminsoniy qamrov ko‘lami, badiiyligi – strukturasi, obrazlari va uslubi keyingi ellik yillarda yozilgan hikoyalarnikidan sezilarli darajada farq qiladi. Bu bir yillik hosil. 33-34 yillik hikoya janrida bitilgan bitiklar salmog‘i keng qamrovli.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hikoyachilikdagi ijodkorning adabiy-estetik konsepsiyasi uning asarlarining asosini tashkil etadi va ularning badiiy qiymatini belgilab beradi. Yozuvchining adabiyot va san’atga bo‘lgan qarashlari, dunyoqarashi uning qanday mavzularni tanlashini, qanday qahramonlar yaratishini va qanday uslubdan foydalanishini belgilaydi. Adabiy-estetik konsepsiya yozuvchining ijodiy yo‘lini, o‘ziga xosligini va adabiyotdagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi. Shu bois, adabiy asarni tahlil qilishda ijodkorning adabiy-estetik konsepsiyasini hisobga olish uning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini to‘liq anglash uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Quronov D. 2018. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent,
2. Исомиддинов З. Абдулла Қаҳҳорнинг “Картина” хикояси ва “Мафтунингман” кинокартинаси ва конфликтсизлик назарияси. Шарқ юлдузи. 2013. 2-сон. – Б. 129. (176)
3. Янги авлод овози. Суҳбат. Раҳимжон Раҳмат жавоблари. Шарқ юлдузи. 2013. 2-сон. – Б. 123. (176).
4. Нуруллох Муҳаммад Рауфхон. Етакдаги кулба. Ҳикоя. Шарқ юлдузи. 2010. 1-сон. – Б. 64. (192).
5. Нуруллох Муҳаммад Рауфхон. Етакдаги кулба. Ҳикоя. Шарқ юлдузи. 2010. 1-сон. – Б. 65. (192).
6. Нуруллох Муҳаммад Рауфхон. Етакдаги кулба. Ҳикоя. Шарқ юлдузи. 2010. 1-сон. – Б. 65. (192).



UDK: 811.1

Sarvinov RASULOVA,
ToshDO'TAU katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: sarvina_ok@mail.ru

ToshDO'TAU professori B.Karimov taqrizi asosida

TOHIR MALIK USLUBI BADIYYATI

Аннотация

Mazkur maqolada uslubning nazariy xususiyatlari, yozuvchi va davr uslubi haqida fikr yuritiladi. Yozuvchi Tohir Malik yashagan davr va adibning o'ziga xos uslubi batafsil tahlil qilingan. Tohir Malikning portret, peyzaj yaratish mahorati, poetik nutqqa xos xususiyatlar, tildagi yumuq iboralar, maqollar, o'xshatishlar nazariy jihatdan tahlil etilib, fikrlar misollar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar: Uslub, davr uslubi, portret, peyzaj, poetik nutq, ibora, maqol, o'xshatish, garmoniya, voqelik, so'z.

ART IN THE STYLE OF TAHIR MALIK

Annotation

This article discusses the theoretical characteristics of style, the style of the writer and the era. The era in which the writer Tohir Malik lived and the unique style of the writer are analyzed in detail. Tohir Malik's skills in creating portraits and landscapes, the characteristics of poetic speech, idioms in the language, proverbs, and similes are analyzed theoretically, and the ideas are substantiated with examples.

Keywords: Style, period style, portrait, landscape, poetic speech, phrase, proverb, simile, harmony, reality, word.

ИСКУССТВО СТИЛЯ ТАХИРА МАЛИКА

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические характеристики стиля, стиль писателя и период. Подробно анализируется эпоха, в которую жил писатель Тахир Малик, и его уникальный стиль. Теоретически анализируются мастерство Тахира Малика в создании портретов и пейзажей, особенности поэтической речи, идиомы, пословицы и сравнения в языке, а его идеи подкрепляются примерами.

Ключевые слова: Стиль, стиль эпохи, портрет, пейзаж, поэтическая речь, фраза, пословица, сравнение, гармония, реальность, слово.

Kirish. Tohir Malik ijodi o'zbek adabiyotiga fantastik, detektiv va ma'rifiy asarlari bilan yangi yo'nalishlarni olib kirdi. U adabiyotda o'ziga xos maqomga ega ijodkorlardan. Uning ijodini o'rganish hozirgi zamon adabiyotining juda muhim masalalarini oydinlashtirish imkonini beradi.

Contemporary linguistic theory is deeply influenced by the anthropocentric paradigm, which foregrounds the "human factor" in the analysis of language phenomena. This paradigm marks a shift from purely structural or formalist approaches towards more holistic studies that account for cognitive, cultural, personal, and pragmatic dimensions of language use. Within this framework, new interdisciplinary fields have emerged, including cognitive linguistics, text linguistics, linguoculturology, linguopersonology, and linguopragmatics, each addressing different facets of language as a human-centered activity.

Particularly, the pragmatic aspect of meaning is recognized as equally vital as semantic content in overcoming potential failures in communication. Pragmatic failures arise when interlocutors misinterpret intended meanings or social cues, which is a frequent challenge in second language acquisition and cross-cultural communication. Thus, the study of phraseological units from a pragmalinguistic perspective is indispensable for understanding how speakers use idioms and fixed expressions effectively in real-life contexts, ensuring both clarity and appropriateness.

Conclusion. Phraseological units, especially those containing the lexical component "ear," serve as vivid illustrations of the intricate relationship between language and culture. Their usage encapsulates not only semantic meaning but also pragmatic functions that reflect social attitudes, emotions, and cultural norms. Successful interpretation and translation of these idiomatic expressions demand a dual awareness: one must grasp their literal semantic content as well as their contextual and pragmatic significance.

Through comparative study of idioms across languages, researchers and language practitioners can foster greater precision in translation and more nuanced intercultural communication. Phraseological units represent a fundamental element in linguistic studies and language teaching, due to their pervasive presence and communicative power. For translators and interpreters, idioms offer both a challenge and an opportunity while literal translation often leads to distortion or loss of meaning, identifying culturally and pragmatically equivalent expressions facilitates faithful and effective communication.

In sum, phraseological units are indispensable components of language that reflect the richness and diversity of human expression. Their careful study, especially in multilingual contexts, contributes significantly to advancing linguistic knowledge and improving practical language skills in translation and communication.

REFERENCES

1. Austin, J.L. So'zlar bilan qanday harakat qilish mumkin. Oxford: Oxford University Press, 1962. 150 p.
2. Burger, H. Frazzeologiyaga kirish. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2007. 234 p.
3. Grice, H.P. Mantiq va suhbat. In: Cole P., Morgan J.L. (eds.) Sintaksis va Semantika. New York: Academic Press, 1975. Vol. 3. pp. 41–58.
4. Moon, R. Ingliz tilida barqaror iboralar va idiomalar: ularni yig'ish zarurati. In: Cowie A.P. (ed.) Frazzeologiya: Nazariya, Tahlil va Ilovalar. Oxford: Oxford University Press, 1998. pp. 72–89.



UDK:811.512

Sabogul SUYUNOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: s.suyunova@gmail.com

ToshDO'TAU professori, f.f.d O.Hamrayeva taqrizi asosida

MUNAVVARQORI ABDURASHIDKHONOV ASARLARIDA TILSHUNOSLIK MASALALARINING YORITILISHI

Аннотация

Maqolada o'zbek jadid adibi, milliy universitet ta'sischi, filolog olim va publisist Munavvarqori Abdurashidxonov asarlarida aks etgan tilshunoslik masalalari yoritilgan. XX asr boshlarida Turkistonda til siyosati, o'zbek tilining o'qitilishi bilan bog'liq nazariy va amaliy muomalar muallifning "Ibtidoiy maktablarda davlat tili", "Inqilobga qadar Turkiston maktablari" maqolalarida aks etgan bo'lib, Munavvarqori Abdurashidxonov jadid ma'rifatparvar adibi sifatida bu masalalarga munosabat bildirgan. "Adibi avval", "Adibi soniy" kabi darsliklari tarkibida berilgan tilshunoslik sohasiga doir fikrlar, mashqlar tahlilga tortilgan. "O'zbekcha til saboqlig'i" jamoaviy o'quv qo'llanmasining adib qalamiga mansub qismi tahlil etilib, unda yoritilgan masalalar Fitratning tilshunoslikka oid asarlari bilan qiyoslangan.

Kalit so'zlar: O'zbek jadid adibi, tilshunoslik masalalari, jadid maktabi, til siyosati.

ОСВЕЩЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ПРОБЛЕМ В ТВОРЧЕСТВЕ МУНАВВАРКАРИ АБДУРАШИДХАНОВА

Аннотация

В статье рассматриваются языковые проблемы, отраженные в творчестве современного узбекского писателя, основателя национального университета, филолога и публициста Мунавваркори Абдурашидханова. Теоретические и практические вопросы, связанные с языковой политикой и преподаванием узбекского языка в Туркестане в начале XX века, нашли отражение в статьях автора «Государственный язык в начальных школах» и «Школы Туркестана до революции», и Мунавваркори Абдурашидханов, как новый просвещенный писатель, откликнулся на эти вопросы. Проанализированы идеи и упражнения в области языкознания, представленные в таких учебниках, как «Адиби аввал» и «Адиби соний». Проанализирована часть коллективного учебника «Урок узбекского языка», приписываемая писателю, и вопросы, затронутые в нем, сопоставлены с трудами Фитрата по языкознанию.

Ключевые слова: Узбекский писатель-джадид, языковые проблемы, школа джадидов, языковая политика.

COVERAGE OF LINGUISTIC ISSUES IN THE WORKS OF MUNAVVARKORI ABDURASHIDKHONOV

Annotation

The article discusses the issues of linguistics reflected in the works of the modern Uzbek writer, founder of the national university, philologist and publicist Munavvarqori Abdurashidkhanov. Theoretical and practical issues related to language policy and the teaching of the Uzbek language in Turkestan at the beginning of the 20th century were reflected in the author's articles "State language in elementary schools", "Schools of Turkestan before the revolution", and Munavvarqori Abdurashidkhanov, as a modern enlightened writer, reacted to these issues. The ideas and exercises in the field of linguistics given in his textbooks such as "Adibi avval", "Adibi soniy" are analyzed. The part of the collective textbook "Uzbek language lesson" written by the writer is analyzed, and the issues covered in it are compared with Fitrat's works on linguistics.

Key words: Uzbek Jadid writer, linguistic issues, Jadid school, language policy.

Kirish. Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) taniqli adib va publisist bo'lishi bilan birga bir qator maqolalarini tilshunoslik ilmi va uni o'qitish masallariga bag'ishlagan. Munavvarqori Abdurashidxonov jadid adabiyotida she'riy va nasriy asarlari, ma'rifatchilik ruhida publisistikasi, yangi tizim maktablari uchun "Adibi avval" "Adibi soniy" darsliklarining muallifi sifatida chuqur iz qoldirgan. Adibning adabiyotshunoslik merosi talqinida uning tilshunoslikka doir maqola va tadqiqotlari, darslik va qo'llanmalari tarkibidagi o'zbek tili taraqqiyotiga xizmat qiladigan qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. M.Abdurashidxonovning tilshunoslikka doir ilmiy tadqiqotlari bilan birga milliy tilning taraqqiyoti, uni chet tillarning tazyiqidan tozalash va zamonaviy o'zbek dramatikasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan bir qator asarlari mavjud. Bular sirasiga "Ibtidoiy maktablarda davlat tili", "Inqilobga qadar Turkiston maktablari" kabi maqolalar kiradi. Bulardan tashqari to'rt jildan iborat "O'zbekcha til

saboqlig'i" jamoaviy tadqiqotidagi ishtiroki uning yetuk tilshunos bo'lganligini ko'rsatadi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligining taraqqiyotida Abdurauf Fitrat, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Ashurali Zohiriy, Shorasul Zunun kabi olimlar qatorida M.Abdurashidxonovning tilshunoslik faoliyati alohida o'rin tutadi. O'zbek jadid olimlarining tilshunoslikka doir qarashlari XX asrning 90-yillaridan izchil o'rganishga kirishilgan. Bu jihatdan A.Nurmonovning "O'zbek tilshunoslik tarixi" [Nurmonov A., 2002], M.Qurbonovning "Fitratning tilshunoslik me'rosi" [Qurbonova M., 1993], T.Tog'ayevning "Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi" [Tog'ayev T., 2005], M.Tojiyeva "XX asr boshlarida til va Alifbo masalalari" [Tojiyeva M., 2025] haqidagi tadqiqotlari ma'lum. Biroq M.Abdurashidxonovning tilshunoslikka oid tadqiqot va maqolalari haqida shu kunga qadar ilmiy adabiyotlar yetarli emas. Shunga qaramay Sirojiddin Axmatning qator tadqiqotlari va maqolalari tarkibida olimning tilshunoslik

merosiga doir ayrim masalalar aks etgan S.Axmatning "Ikki imperiya asoratida" (1-2 jild), tadqiqotida Munavvarqorining tilshunoslikka oid asarlari haqida ham fikr yuritilgan. Ushbu olim M.Abdurashidxonovning ilmiy-pedagogik asarlarini jamlab "Men Sendamen..." sarlovhasi bilan kitob elon qilgan. Ushbu kitobning "Millatpanoh" sarlovhali so'z boshida Munavvar qorining tilshunoslikka oid asarlariga umumiy tavsif beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, tafsirlash metodlaridan va adabiy asarlar tahlili usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Adibning "Ibtidoiy maktablarda davlat tili" maqolasida XX asr boshlarida rus-tuzem maktablari uchun asosiy o'qitish tili rus tili bo'lgani kabi o'zbek tili maktablarida ham barcha fanlar o'zbek tilida bo'lishligini takidlagan: "Ma'lumki, hozirda Turkiston jumhuriyatida rasmiy davlat tili ikki xil (turkcha va ruscha)dir. Turkistonda ochilgan xalq maktablarining har birida bu ikki tilning o'qitilmog'i lozimdur. Eski hukumat zamonida xazina tarafidan ochilgan ruskiy-tuzemiy maktablarida birinchi yildan boshlab ruscha tili o'qitmoq hamda butun fanlarni rus lisoni ila ta'lim bermog' majburiy edi. Chunki ul maktablar haqiqatdan turk bolalariga ta'lim bermog' uchun emas, balki turklarni ruslashtirmog' maqsadi ila ochilgan edi" [Abdurashidxonov M., 2019: 245]. M.Abdurashidxonovning qayt etishiga ko'ra, rus-tuzem maktablari uchun joriy qilingan rus tilini asosiy til sifatida o'qitishni yangi maktablarga tatbiq qilish ham noto'g'ri ekanligini tushuntirib beradi. Buni shu maqoladagi quyidagi jumlar orqali bilishimiz ham mumkin: "Inqilobdan so'ng bu maqsadlar tamom tashlanib, har millatga o'zi tilagancha yashamoqqa keng yo'l ochildi. Shuning ila barobar rusko-tuzemiy maktablar bus-butun yopilub, o'rniqa milliy maktablar ochila boshlandi. Milliy maktablarda esa o'quvlar butun ona tilida bo'lib, davlat tillaridan biri (rus) maktablarida turkcha, turk maktablarida (ruscha) bir fan bo'lib kiritilgan.

O'tgan butun Turkiston o'qituvchilari qurultoyi hamda musulmon o'qituvchilari qurultoyi bu masalani yaxshi taftish qiling'ondan so'ngra ibtidoiy maktablarga davlat tillaridan biri turk maktablarina ruscha, rus maktablarina turkcha faqat 4 – yildagina kiritilur, degan bir qarorg'a keldi. Bu qaror Turkiston "Maorif kollegiyasi" tarafidan ham chiqarildi hamda butun maktablarda shul asosga binoan o'quvlar boshlanib muallimlar tayin etildi" [Abdurashidxonov M., 2019: 245]. Turkiston maorif kollegiyasida bu masala qaytadan ko'rib chiqilgan bo'lishiga qaramasdan turk (o'zbek) maktablari uchun rus tilini majburiy joriy qilinishiga qarshi chiqdi. Unga ko'ra rus maktablarida turkcha, turk maktablarida ruscha ikkinchi sinfdan haftada uch soat o'tiladi degan qaror chiqqan. O'sha paytda Turk sho'bası mudiri bo'lib ishlayotgan Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi hayotning boshqa a'zolari qurultoy chaqirib, bu masala yuzasidan o'z fikrlarini bir joyga qo'yishadi. Unga ko'ra Turkistonda Maorif komissariati tomonidan belgilanishi bo'yicha rus tili to'rtinchi yildan o'qitilish lozim ekanligi takidlangan. Maqolada Munavvar qorining turkistonlik yoshlarni o'z ona tillarini mukammal bilishlari va o'z haquqlarini o'rganishlari yo'lida qilgan sa'y-harakatlar e'tiborga molik. Munavvar qori Rus hukumati qabul qilgan qaroriga qarshi chiqish bilan birga o'z xalqining milliy tilini saqlab qolishga jiddiy harakat qildi. Bu haqda Munavvarqori asarlarini nashrga tayyorlagan Sirojiddin Ahmad shunday yozadi: "Munavvar qori bunday ko'rsatmalarga e'tibor bermay, usuli jadid maktablari uchun suv va havodek zarur bo'lgan darslik va dastur ishlashga kirishdi. 1907-yilga kelib "Adibi avval" darsligini yaratdi. O'zbek tilining deyarli ilk alifbolaridan bo'lgan bu kitob Saidrasul Aziziyning darsligi bilan oldinma keyin bosilib chiqdi. U tez orada Turkistondagi

barcha maktab o'qituvchilari tomonidan yaxshi kutib olindi va amaliyotga tatbiq qilindi. Arxiv hujatlariga qaraganda, Munavvarqorining bu kitobi S.Aziziyning "Ustodi avval" kitobi bilan barobar rus-tuzem maktablarida ham o'qitilgan" [Sirojiddin Ahmad., 2019: 145].

Ko'rinadiki, XX asr boshlarida Milliy maktablarni ochish ularni dastur va darsliklar bilan taminlash uchun mustamlakachilik siyosatini olib borgan amaldorlar milliy maorif ishlarini rivojlantirishga jiddiy to'sqinlik qilganlar. Chunki milliy agar savodli bo'lib o'z haq huquqlarini yaxshi tanisa mustamlakachilarga bo'y sunmasdan mustaqillik sari intilishlari mumkun. Shuning uchun ham ularni jaholatda saqlash mavjud colonial tuzumning asosiy maqsadi bo'lgan. Shunga qaramay Munavvarqori singari jadid ziyolilari imkon qadar millatni savodli qilish uchun harakat qilganlar. Bunday harakatlarni Abdurauf Fitratning faoliyatida Shokirjon Rahimi, Qayum Ramazan, Ashurali Zohiriy, Shorasul Zunnun, Cho'lpon, Elbek kabi olim va adiblarning faoliyatida ham kuzatish mumkun.

Til bilan bog'liq muommalarni hal qilish uchun bir necha marta yig'ilish va qurultoylar o'tkizildi. Munavvarqorining maqolalarida ushbu masalalar ham o'z aksini topgan. Shuningdek, "Inqilobga qadar Turkiston maktablari" maqolasida shunday yoziladi: "1903-yilda bir "Alifbo" tuzib o'quvchilarga o'rgata boshladim. Ba'zi tajribalardan keyin uni nashr etishga muvaffaq bo'ldim. Nomini "Adibi avval" qo'ydim. Turkistonda tovushli harf usuli bilan bosilgan ilk o'qish kitobi shul "Adibi avval" kitobidir" [Abdurashidxonov M., 2019: 479].

Munavvarqori ibtidoiy maktablarning 2-sinfi uchun yozgan "Adibi soniy" kitobida ham tilshunoslik masalalariga murojaat etar ekan, til ilmining boshlanishi o'qish va yozishdan iborat ekanligini tagidlaydi: "O'qimoq, yozmoq ilmi qiyin bir ish emasdur. Barki, oz vaqt maktabda g'ayrat qilmoq ila o'rganilarg'on bir hunardur" [Abdurashidxonov M., 2019: 119]. Munavvarqorining takidlashicha, o'qimoq va yozmoq har bir kishi uchun eng zarur hizmatdur. Agar kishi o'qish va yozishnin bilmasa boshqa savodli kishiga muhtoj bo'ladi va hayotda o'z o'rnini topa olmaydi. Shunday ekan mualifni yozishicha: "Barki, o'qimoq, yozmoq ilmini biladurg'on bir kishig'a muhtoj bo'lurlar. Bundan muallim bilurki, o'qimoq, yozmoq ilmini bilmagan odamlardan tilsiz, quloqsiz kishilar yaxshidur" [Abdurashidxonov M., 2019: 119].

Munavvarqori harb ikki darsligi orqali savod chiqarish zaruriyatini takidlash bilan birga bir qator kichik hikoya yoking matnlar berib o'quvchilarga maktab nima ekanligini, undagi ta'lim tizimi qanday asoslarga ega bo'lishi kerakligini tushuntirgan. Agar "Adibi avval" kitobida umumiy saboq va o'gitlar berilgan bo'lsa, "Adibi soniy" darsligida esa mahsus mashqlar orqali o'quvchilarning savodli bo'lishi, til ilmlarini egallashi arurligini ham uqtirgan.

Ma'lumki, Munavvarqori yashagan davrda Turkiston Rassiyanı mustamlakasi bo'lib, Rus amaldorlari til siyosati orqali mahalliy axolini o'z ona tilidan yiroqlashtirib, rus tilini singdirish orqali ruslashtirish siyosatini olib borgan edilar. Munavvarqorining publisistik maqolalarida bu masalaga jiddiy munosabat bildirilgan bo'lsa, uning darslik va qo'llanmalarida millatni savodli bo'lishi, til bilimlarini puhta egallash uchun amaliy zamin hozirlangan. M.Abdurashidxonovning "O'zbekcha til saboqlig'i" asari 4 qismdan iborat bo'lib, uning to'rtinchi qismida o'zbek tili morfologiyasiga oid qarashlar bayon qilingan. M.Abdurashidxonov fikricha, bular orasida morfologiya til ilmining asosiy mohiyatini anglatadi. Gaplarni tashkil etuvchi so'zlar 4 qismga ajraladi: 1- o'zboshli so'zlar, 2-ko'makchi so'zlar, 3-undov so'zlar, 4-belgilar. Olimning fikricha o'zboshli so'zlar boshqa manbalarda mustaqil so'zlar deb olingan. Ko'makchi va undov so'zlar esa yordamchi

so'zlar sifatida izohlangan. Belgilar nomi ostida Munavvarqori alohida olingan so'zlarni ko'rsatadi. Bular Fitrat va boshqa tilshunoslarning asarlarida bog'lovchi, ko'makchi, yuklama deb ko'rsatilgan. M.Abdurashidxonov bularning har biriga zarur misollar keltiradi. Munavvarqori jadid maktablari uchun chiqargan "O'zbekcha til saboqlig'i" asarining "Sarf" (Morfologiya) bo'limida gap va uning bo'laklari haqida to'xtalib o'tgan. Gapni tashkil qilgan so'zlarning har biri gapning bir bo'lagi sanalishini va shunga ko'ra gap ikki bo'lakdan tuzilganligini o'zining shu asarida yozgan. Gap bo'laklari quyidagi ikki qismga ajratilgan:

1. Bosh bo'lak.

2. To'ldirg'ich bo'laklar (ikkinchi darajali bo'lak).

Bosh bo'laklar ega va kesimni o'z tarkibiga olgan bo'lsa, ikkinchi darajali bo'laklarning o'zini yana ikki turga bo'lgan: Chin to'ldirg'ichlar va o'gay to'ldirg'ichlar kabi [Abdurashidxonov M., 2019: 245].

Ma'lumki, hozirgi tilshunoslikda gap bo'laklari bosh va ikkinchi darajali bo'laklar sifatida o'rganiladi. Munavvarqori qori qo'llagan "to'ldirg'ich" so'zi "ikkinchi darajali"ga nisbatan bosh bo'lakni to'ldiruvchilik xarakterga ega. Ikkinchi darajali birikma esa bosh bo'lakka nisbatan to'ldiruvchi mohiyatini anglatadi. Biroq 30-yillardan keyin rus tilshunosligi ta'sirida "to'ldirg'ich" bo'laklar "ikkinchi darajali" bo'laklarga aylandi. "O'zbekcha til saboqlig'i"ning qolgan qismlari: fonetika, so'z va gaplarning yasaliishi, sintaksis (nahv) qismlaridan iborat. Bu kitob mualliflar jamosi tomonidan yozilgan uchun qo'llanmaning qaysi qismi Munavvarqori tomonidan yozilganligi aniq ko'rsatilmagan. Kitobning 1925-yilgi birinchi nashriga Shokirjon Rahimiy, 1926-yilgi ikkinchi nashriga esa Munavvarqori ma'sul muharrir bo'lgani ko'rsatilgan. Bundan shuni anglash mumkinki, Munavvarqori mazkur kitobning mualliflaridan biri sifatidagina emas balki asarni umumiy tahrir qilganini ham aniqlash mumkin.

"O'zbekcha til sabog'lig'i" asarining 1926-yilgi nashir so'z boshida shunday yozilgan: "Asar O'zbekiston ilmiy markazining tastig'idan o'tgan. O'zbekiston o'zbeklari orasida yangi usul maktablari ochilib, ona tili darslari o'qula boshlag'aniga 24-yil to'lib, 25-yilga qadam qo'yildi. Bu muddat ichida ona tili to'g'risida yozilg'on va bosilg'an kitoblarning barchasi yolg'iz bir-biridan ko'chirilgan alifbo va o'qish kitoblaridagina iborat bo'lib keldi. Til qoidalari to'g'risida bu kungacha kitob bosilmag'anlig'i uchun muallimlarimiz shogirtlariga til qoidalarini usmonlicha va tatarcha kitoblardan olib buzib, tuzib turli yo'l va turli usul bilan o'qitmoqqa majbur bo'ldilar" [O'zbekcha til sabog'lig'i, 1926: 3]. Ko'rinadiki, o'zbek tili qoidalari tog'risida bu vaqtga qadar arziqli manbalar yo'q edi. Shuning uchun ham ushbu nazariy qo'llanma ikki yil davomida o'quvchilarga o'zbek tili bo'yicha darslik va mashqlar to'plami vazifasini bajargan. Kirish so'zida qayd etilishicha: "Kitobning tartibiga kelganda shuni aytamiz: qoidani imlo, sarf va nahv qismlariga ayirishdan ko'ra aralash usulda sinflarga bo'lish bizcha munosib ko'rildi. Shu sababdan biz kitobimizni to'rt bo'limga bo'lib, har bir bo'limni bir sinfga tahsis etdik, har bo'limini o'zidan avvalgi bo'limning tamamllovchisi va kengaytiruvchisi

etib olib bordiq. Ushbu birinchi bo'lim ikkinchi sinfga maxsus bo'lg'anlig'i uchun nazariy qoida va ta'riflarga hech bir kirishmasdan yolg'iz gap-so'z, harf va bunlarning turlari yozilish yo'llari bilan shogirtlarning amaliy suratda tanishdirish chorallari ko'rildi. Atama (istiloh) masalasiga kelganda el anglarliq so'z topolsak, mumkun qadar o'zimizdan qo'ydiq, o'zimizdan topolmaganlarni boshqa turk ellaridan, ularda ham topilmag'onlarini to'g'ridan-to'g'ri arabchadan olmoqqa majbur bo'ldik" [O'zbekcha til sabog'lig'i, 1926: 3]. Anglatilishicha, o'zbek tili gramatikasi bu davrda yetarli ishlanmagani uchun boshqa turkiy xalqlardagi so'z va atamalardan foydalanilgan. Hatto ko'p o'rinda ushbu asarga arab tili qoidalarini ham tadbiiq etilganini kuzatish mumkun. Arab tilida gap (jumlar) ikki, uch, to'rt, besh va undan ortiq so'zlar ishtirok etgan gaplar tasnif qilingan. Bu darslikda ham huddi shunday: ikki so'zli gaplar... to'rt va undan ortiq gaplar tarzida misollari bilan berilgan. So'zlarning tarkibi esa xuddi shu qoidaga asosan bir harfli so'zlar... olti harfli so'zlar tarzida belgilangan. Bu bilan cheklanilmadan "so'z bo'g'imlari" qismida "bir bo'g'inli so'zlar... besh bo'g'imli so'zlar" tarzida tushuntirilgan. Bu usul turkiy tillar gramatikasi qoidalariga to'g'ri kelmasa ham ibtidoiy maktablar uchun esda saqlash mumkun bo'lgan qulay usul hisoblanadi.

Munavvarqorining tilshunoslik faoliyati va uning natijalari bu darslikni zamonasidagi boshqa olimlar tomonidan yozilgan o'zbek tiliga oid asarlar bilan qiyoslaganda uning tilshunos olim sifatidagi iqdidi qo'llanma yaqinroq ko'zga tashlanadi.

Fitratning tilshunoslikka oid qarashlari "Sarf" ("Morfologiya") va "Nahv" ("Sintaksis") kabi darsliklari orqali namoyon bo'lgan. Morfologiya so'z turkumlarini o'rganuvchi qism bo'lgani uchun. Asarda "so'z" atamasi haqida shunday ta'rif berilgan: "So'z bir ma'noni bildirgan, o'ziga maxsus ohangi va bosimi bo'lg'an tovushlar to'dasidir" [Fitrat A., 1925]. Fitrat morfologiyaning "so'z tashkumlari" qismini bayon etishdan avval so'z yasaliishi haqida to'xtaladi. U so'z yasaliishini kengroq ma'noda talqin qiladi. Bir o'zakka qo'shimcha qo'shib yasalgan barcha so'zlarni "yasama" deb qaraydi. Faqat o'zakdangina iborat bo'lgan so'zlarni tub so'zlar deb ataydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, Fitrat so'zlarni tub va yasama deb ikki qismga ajratgan. Shuningdek "Sarf" asarining keying bo'limlarida: ot, sifat, fe'l, olmosh, ko'makchi kabi gramatik kategoriyalarni belgilaydi.

Xulosa va takliflar. A.Fitratning "Nahv" kitobida esa gap bo'laklari, gaplarning turlari, hususida fikr yuritgan. Munavvarqori va Fitratning til sohasidagi darslik va qo'llanmalarini kuzatish orqali har ikki adib masalaga jadid dunyo qarashi bilan munosabatda bo'lib, jamiyatning taraqqiy topishida milliy til va adabiyotning muhim o'rin tutishi takidlangan. Bu jarayonda jadid marifatchilari savod chiqarishga bag'ishlangan ibtidoiy asrlar yozishdan ish boshlab tilshunoslik sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratishgacha bo'lgan jarayonni bosib o'tdi. Ushbu ta'limiy jarayonda Munavvarqori va Fitratning asarlari boshqa adiblarga namuna bo'la oldi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurashidxonov M. Men sendamen... – T.: INFO CAPITAL GROUP, 2019.
2. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan / Jadidchilik tarixidan lavhalar. Nashirga tayyorlovchi va izohlar muallifi S. Xolboyev. – T.: Sharq NMAK, 2001.
3. Fitrat A. O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Nahv. – Toshkent, 1926.
4. Fitrat A. O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf. – Toshkent, 1925.
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. Adibi avval. – T, 1909.
6. Munavvarqori Abdurashidxonov. Adibi soniy. – T, 1910.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent 2002
8. Tog'ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. – Toshkent, 2005.
9. Tojiyeva M. XX asr boshlarida til va alifbo masalalari. – Toshkent, 2025.
10. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va o'zbek tilshunosligi. – Toshkent, 1997.



UDK: 801.82:81.176

Shaxnoza TURDALIEVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: turdalievashakhnoza84@gmail.com

PhD O.Uralova taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDAGI SOMATIK GIBRID MAQOLLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Аннотация

Mazkur maqolada o'zbek tilida keng qo'llaniladigan va tarkibida ikki yoki undan ortiq tana a'zosi (somatik komponent) mavjud bo'lgan gibril maqollar leksik-semantik jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Somatik birliklar — bosh, ko'z, til, qo'l, oyoq, yurak, quloq kabi tana a'zolari orqali ifodalangan obrazlar xalq tafakkurida chuqur semantik yuklama hamda madaniy konnotatsiyalarga ega bo'lib, ular milliy mentalitet, axloqiy qarashlar, ijtimoiy me'yorlar va hayotiy tajribani o'zida mujassamlashtiradi.

Kalit so'zlar: Somatik birliklar, maqol, gibril frazalar, leksik-semantik tahlil, obrazlilik, xalq tafakkuri.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОМАТИЧЕСКИХ ГИБРИДНЫХ ПОСЛОВИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье проводится глубокий лексико-семантический анализ гибридных пословиц узбекского языка, содержащих два и более компонентов, связанных с частями тела (соматические компоненты). Соматические элементы — такие как голова, глаз, язык, рука, нога, сердце, ухо — создают яркие образы, обладающие глубокой семантической нагрузкой и культурными коннотациями, отражающими национальное мышление, моральные ценности, социальные нормы и жизненный опыт народа.

Ключевые слова: Соматические компоненты, пословица, гибридные фразы, лексико-семантический анализ, образность, народное мышление.

LEXICAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF SOMATIC HYBRID PROVERBS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article presents a detailed lexical and semantic analysis of hybrid proverbs in the Uzbek language that include two or more body parts (somatic components). Somatic elements — such as head, eye, tongue, hand, foot, heart, and ear — form vivid imagery in these proverbs, carrying deep semantic weight and cultural connotations within the collective consciousness. These expressions reflect the national mentality, moral beliefs, social norms, and life experiences of the Uzbek people.

Key words: Somatic components, proverb, hybrid phrases, lexical-semantic analysis, imagery, folk worldview.

Kirish. Til – bu millat tafakkurining oynasi, xalq dunyoqarashining eng yorqin ifodasi hisoblanadi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining yirik va qadimiy qatlamlaridan biri bo'lgan maqollar orqali milliy tafakkur, axloqiy me'yorlar, estetik qarashlar va kundalik hayotiy tajribalar o'z aksini topadi. Maqollar tilda ko'p qatlamli semantik birliklar sifatida nafaqat bevosita, balki obrazli, ko'p ma'noli, majoziy ifodalar bilan boyitilgan bo'ladi [3].

Xususan, somatik frazeologizmlar – ya'ni inson tanasining turli a'zolari ishtirokida yuzaga kelgan til birliklari – xalqning jismoniy idroki, hayotiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini ifoda etuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday frazeologik birliklar orqali nafaqat til, balki xalq tafakkuridagi antropomorf obrazlar, tana a'zolarining ramziy ma'nolari, ularning ijtimoiy va psixologik vazifalari ham yoritiladi [4].

Tadqiqotimiz mavzusi bo'lgan somatik gibril maqollar esa ayniqsa e'tiborga loyiq. Ular ikki va undan ortiq tana a'zosi ishtirokidagi maqollardir. Masalan, "Tilingni tiygin, tishing sinmasin" kabi maqollarda "til" va "tish" komponentlari birgalikda ishlatiladi va bu vosita orqali inson nutqining oqibati, jismoniy va ijtimoiy muvozanat haqida chuqur fikr beriladi. Shunga o'xshash tarzda "Ko'nglidagini qo'lidan bil, qo'lidan bilmasang tilidan bil" maqolida esa "ko'ngil", "qo'l" va "til" singari bir nechta tana a'zosi birgalikda majoziy tizimni hosil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunos olimlardan M. I. Rasulova o'zining "Somatik birliklar asosida xalq tafakkurining lingvokulturologik tahlili" nomli tadqiqot ishida o'zbek tilidagi somatik gibril maqollarning leksik-semantik xususiyatlariga alohida urg'u bergan. Yana bir tadqiqotchi B.Zohidovning "Fazeologiya asoslari" nomli kitobida esa Somatik birliklar va ularning frazeologik jihatlariga e'tibor qaratilgan. A.Fayzullaevning "O'zbek tilidagi maqollar tahlili" nomli kitobida esa o'zbek tilidagi maqollar chog'ishtirma tahlil metodi asosida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilidagi somatik gibril maqollarning leksik-semantik jihatlarini ochib berishga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning chog'ishtirma tahlil, deskriptiv tahlil usuli, analiz, sintez kabi usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda quyidagi lingvistik metodlar asosida yondashildi:

Strukturaviy-semantik tahlil – maqol tarkibidagi tana a'zolarining morfologik holati va ularning sintaktik vazifasi o'rganildi.

Leksik-kontekstual yondashuv – maqollar kontekstda qanday ma'no kasb etayotgani, somatik birliklar real yoki obrazli ma'noda qo'llanilganligi tahlil qilindi.

Komponentlararo semantik munosabatlar – bir maqol ichida ishtirok etayotgan ikki yoki undan ortiq somatik birliklar orasidagi semantik bog'liqlik (masalan, sabab-oqibat, sabab-holat, parallelizm) aniqlashtirildi. Ushbu tadqiqotda

o'zbek tilidagi somatik gibrid maqollar tanlab olinib, ularning tarkibidagi somatik komponentlar asosida tahlil qilindi. Somatik gibrid maqollar deganda, tarkibida kamida ikki yoki undan ortiq tana a'zosi ishtirok etgan maqollar tushuniladi, masalan: "Tilingni tiygin, tishing sinmasin", "Ko'z ko'rgan boshqa, qo'l bilan turgan boshqa" kabi. Bu kabi maqollar o'zbek xalqining nutqiy madaniyati va ma'naviy merosida metaforik obrazlar vositasida ijtimoiy va axloqiy normalarni ifodalaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Gibridlashuv – bu tabiiy tilshunoslik hodisasi bo'lib, ayniqsa tarixan sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan tillarda tez-tez uchraydi. O'zbek tili islom madaniyati, sovet siyosati va globallashuv ta'siri ostida shakllanib, turli tillardan o'zlashtirilgan boy leksik qatlamni o'z ichiga olgan. Gibrid so'zlarni o'rganish tilga moslashuv, fonologik o'zgarishlar, madaniy ta'sirlar, shuningdek, ma'no va sintaksisning evolyutsiyasi haqida muhim ma'lumotlar beradi. Gibrid so'zlarni anglash til aloqalari, o'zlashmalar va til evolyutsiyasi haqidagi kengroq muhokamalarni chuqurlashtiradi hamda tillar qanday qilib xorijiy elementlarni o'zlashtirib, o'zining betakror grammatik tuzilmasini saqlab qolishini yoritib beradi [5].

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi somatik gibrid maqollar leksik-semantik tahlil asosida o'rganiladi. Tahlilda maqollarning tashqi tuzilmasi bilan bir qatorda, ularning ichki ma'nosi, xalq tafakkuridagi funksional yuki, shuningdek, ularning obrazlilik va madaniy konnotatsiyasi ham tahlil qilinadi [2]. Shuningdek, somatik komponentlar o'rtasidagi semantik munosabatlar, ularning metaforik yuklamasi va ramziy qiymati ham izohlanadi.

Mazkur tadqiqot nafaqat frazeologiya va semasiologiya sohalariga hissa qo'shadi, balki lingvokulturologik yondashuv asosida xalq ruhiyati va tafakkur tizimining somatik ifodalar orqali qanday aks etishini ko'rsatadi. Shuningdek, maqola tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslikda ham nazariy va amaliy asos bo'la oladi.

Tahlil uchun tanlangan maqollar O'zbek xalq maqollari manba asosida saralandi va ularning gibridligi (ya'ni necha somatik birlik qatnashganligi) asosiy tanlov mezon bo'lib xizmat qildi. Har bir maqol ayrim semantik toifalarga ajratilib, tegishli konseptual maydon (idrok, his-tuyg'u, harakat, nutq, hokimiyat) doirasida tahlil qilindi.

Shu tarzda olib borilgan metodologik yondashuv orqali maqollarning nafaqat yuzaki leksik tuzilmasi, balki chuqur majoziy va madaniy qatlamlari ham yoritib berildi. Bu esa, frazeologik birliklarning xalq tafakkuri va dunyoqarashidagi o'rnini aniqlashga imkon berdi [1].

Tadqiqot davomida somatik gibrid maqollarning semantik tarkibi va ularning xalq tafakkuridagi obrazli ifoda vositasi sifatida o'rni o'rganildi. Saralangan maqollar asosida shuni aniqlash mumkinki, bu turdagi maqollar odatda ikki yoki undan ortiq tana a'zosi nomini o'z ichiga oladi va ular orasida metaforik, sababiy yoki parallel semantik munosabat mavjud bo'ladi [3].

Analiz natijasida maqollar quyidagi asosiy semantik guruhlar bo'yicha tasniflandi:

1. Bosh – Til – Tish

Bu toifadagi maqollar odatda nutq, oqibat va aql-idrok konseptlariga bog'langan bo'ladi. Masalan:

"Til uzuni bosh yeydi" – tilning nazoratsizligi boshga balo keltiradi, ya'ni so'z oqibati xavfli bo'lishi mumkin.

"Tilingni tiygin, tishing sinmasin" – so'zda ehtiyot bo'lmaslik jismoniy zararga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu maqollar til bilan bog'liq axloqiy me'yorlarning naqadar muhimligini ko'rsatadi [4].

2. Ko'z – Quloq – Og'iz

Bu guruhda idrok, kuzatuv, va ogohlantirish konseptlari asosiy o'rinni egallaydi:

"Tomning ko'zi bor, devorning qulog'i bor" – yashirin gaplar ham kuzatiladi, ehtiyot bo'lish kerak.

"Ko'z o'ziga, quloq o'zgalarga ishonadi" – inson o'z ko'rganiga ishonadi, lekin quloq eshitgan narsalar tashqi manbaga bog'liq.

Bu maqollar og'zaki madaniyatda ixtiyor va extiyotkorlik konseptining kuchli ifodasi sifatida talqin qilinadi [2].

3. Qo'l – Oyoq – Og'iz

Bu turdagi maqollar harakat, mehnat va natija o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi:

"Qo'l bilan berib, oyog'im bilan yugurdim" – xizmatkorlik, g'ayrat va fidoyilikni ifodalaydi.

"Qo'l yugurigi boshga, og'iz yugurigi oshga" – harakat va so'zning turli natijalar berishini ko'rsatadi.

Ular xalq tafakkurida faoliyatning baholanish mezonlariga asoslanadi [1].

4. Yurak – Qo'l – Til.

Bu maqollar ichki his-tuyg'ular va tashqi harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni yoritadi:

"Dil topadi, til aytadi" – ichki tuyg'ular tashqi so'z bilan ifodalanadi.

"Ko'nglidagini qo'lidan bil" – insonning niyati harakatlardan bilinadi.

Bu toifa maqollar orqali ko'ngil tili, niyat, samimiyluk kabi qadriyatlar ifodalanadi [3].

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi somatik gibrid maqollar odatda majoziy tilda yaratilgan bo'lib, ularning semantik tuzilmasi bir nechta tana a'zosi ishtirokida xalq ongidagi chuqur madaniy ma'nolarni mujassamlashtiradi. Har bir somatik komponent xalq uchun ma'lum bir tushunchaning ramziga aylangan – masalan, "til" – so'z va falokat, "bosh" – aql va jazoni qabul qiluvchi, "ko'z" – kuzatuvchi, "qo'l" – harakat qiluvchi sifatida ifodalanadi [4].

Yuqoridagi maqollar xalq tafakkurida tanaviy komponentlarning nafaqat fizik, balki majoziy yukini ko'rsatadi. "Til – balo, bosh – jazoga qoluvchi", "Ko'z – kuzatuvchi, quloq – eshituvchi" degan rol aloqalari mavjud. Shu bilan birga, maqollarda somatik birliklar doimiy antropomorf obraz sifatida qatnashib, axloqiy normalarni mustahkamlaydi. Somatik gibridlik esa bu normalarni ko'p qirrali ifodalash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. O'zbek tilidagi somatik gibrid maqollar xalq tafakkurining ko'p qatlamli obrazlar tizimini ifodalaydi. Ular orqaligina tananing a'zolari emas, balki insoniy xatti-harakat, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, va ogohlilik singari tushunchalar ham ifodalanadi. Bunday maqollarni tahlil qilish, ularning ma'no qatlamlarini ochib berish lingvistik hamda madaniy jihatdan muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Fayzullaev A. O'zbek tilidagi maqollar tahlili. – Samarqand: Marifat, 2023.
2. Mamatov N. O'zbek tilida somatik frazeologizmlar: Semantik tahlil va tipologik xususiyatlar. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Rasulova M.I. Somatik birliklar asosida xalq tafakkurining lingvokulturologik tahlili. Filologiya ilmi jurnali, 4(2), 2021. – B. 133–142.
4. Zohidov B. Frazeologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2020.
5. Uktamovna, T. S. (2025). HYBRID WORDS IN THE UZBEK LANGUAGE: LINGUISTIC AND SEMANTIC ASPECTS. Western European Journal of Linguistics and Education, 3(03), 122-126



UDK: 81751

Dilafruz TO'XTAYEVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: dilafruztukhtayeva1988@gmail.com

PhD M.Barotova taqrizi asosida

RELATIONSHIP OF CLASSIFICATION AND SYNONYMY

Annotation

Just as some phenomena in existence are inextricably linked to each other in some way, linguistic units are also closely related to each other. They have their own similarities and differences. While some of their features have been studied, some are still awaiting their study. We can also say this about the phenomena of graduonymy and synonymy. The relationship between gradation and synonymy is one of the most complex and important issues in linguistics. Each of the synonymous words has certain level, stylistic or contextual differences. Through these differences, each synonymous word is used in its own way in different speech situations. The role of gradation in increasing the richness and expressiveness of speech is also considered significant. The analysis of these phenomena is a necessary tool in the development of language culture. The article examines the relationship between graduonymy and synonymy in the Uzbek language.

Key words: Gradation, synonymy, category, LSG, proverb, gradual synonymy, graduonymy, synonymous paradigm, sema, semantic synonym.

ВЗАИМОСВЯЗЬ РЕЙТИНГА И СИНОНИМИИ

Аннотация

Подобно тому, как некоторые существующие явления неразрывно связаны друг с другом, единицы лингвистики также тесно связаны друг с другом. У них есть свои уникальные сходства и различия. Некоторые из их свойств уже изучены, в то время как другие еще ждут дальнейшего изучения. То же самое можно сказать и о явлениях градуонимии и синонимии. Взаимосвязь классификации и синонимии является одним из сложных и важных вопросов в языкознании. Каждое из синонимичных слов имеет определенные уровневые, стилистические или контекстные различия. Благодаря этим различиям каждое синонимичное слово используется по-своему в разных речевых ситуациях. Градация также играет важную роль в повышении насыщенности и воздействия речи. Анализ этих явлений является необходимым инструментом в развитии языковой культуры. В статье рассматривается связь синонимии в узбекском языке и ее отдельные аспекты с градуонимией на примере паремалов.

Ключевые слова: Градация, синонимия, категория, LSG, пословица, градуальная синонимия, градуонимия, синонимическая парадигма, сема, семантический синоним.

DARAJALANISH VA SINONIMIYA MUNOSABATI

Annotatsiya

Borliqda ayrim hodisalar qaysidir jihati bilan bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgani singari til fani birliklari ham o'zaro chambarchas aloqador. Ular o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlariga ega. Ularning ayrim xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa, ba'zilar hamon o'z tadqiqini kutmoqda. Bu qarashni graduonimiya va sinonimiya hodisalari haqida ham aytishimiz mumkin. Darajalanish va sinonimiya munosabati tilshunoslikda murakkab va muhim masalalardan biridir. Sinonim so'zlarning har biri muayyan darajaviy, uslubiy yoki kontekstual farqlarga ega. Bu farqlar orqali har bir sinonim so'z turli nutq vaziyatlarida o'ziga xos tarzda qo'llaniladi. Nutqning boyligi, ta'sirchanligi oshishida darajalanishning ham roli ahamiyatli sanaladi. Ushbu hodisalar tahlili til madaniyatini rivojlantirishda zarur vositadir. Maqolada o'zbek tilidagi sinonim va uning xususiy tomonlari graduonimiya bilan munosabati paremlar misolida tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: Darajalanish, sinonimiya, kategoriya, LSG, maqol, gradual sinonimiya, graduonimiya, sinonimik paradigma, sema, semantik sinonim.

Kirish. Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil (umumiy) bo'lgan, qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir. Ana shunday umumiy (birlashtiruvchi) ma'no bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi mumkin: gul, chechak; boplamog, qoyil qilmoq, qoyillatmoq, o'xshatmoq, o'rnatmoq, kelishtirmoq, do'ndirmoq, qiymoq, eshmoq, mondalamoq, yasamoq[4].

Azim Hojiyev tomonidan leksik sinonimlarga nisbatan keltirilgan ushbu ta'rif hozirgacha o'z mohiyatini yo'qotgani

yo'q. Ta'rifning e'tiborli jihatlari quyidagi belgilarda ko'rinadi:

Talaffuzi, yozilishi har xil.

Birlashtiruvchi ma'nosi bir xil (umumiy). Shuningdek, qo'shimcha ma'no nozikligiga ega bo'lishi.

Emotsional bo'yog'i bilan farqlanishi.

Qo'llanishi bilan chegaralanishi.

O'zbek tilining sinonimlar lug'atida ma'nosi darajalanuvchi so'zlar ko'p hollarda sinonimlar sirasida berilar edi. Albatta, graduonimiya hodisasi maxsus ajratilmagach, ma'nosi darajalab ko'rsatuvchi so'zlar ko'p holatda turli sinonimik uyalar ichiga tarqatilib yuborilgan. Buning haqqoniy sabablari ham mavjud edi. Chunki sinonimlar

ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, til sistema ekan lug'at tizimi ham sistem tabiatga ega va tilda biror so'z (leksema) yo'qki, ma'lum bir lug'aviy paradigmadan o'rin olmasa. Ma'noviy darajalanish hodisasi maxsus ajratilmay, ma'noni darajalab beruvchi so'zlar ko'p holatlarda sinonimlar tarkibiga singdirib yuborilganligi sababli, masalan: pichirlamoq – gapirmoq – baqirmoq so'zlari sinonimlar lug'atidan o'rin ololmas edi.

Adabiyotlar tahlili. Bir xil obyekt, xususiyat, harakat va boshqalarni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq sinonimlar tilda murakkabroq va yuqori tarkibiy hamda semantik tartibning birligi, ya'ni sinonimik qatorni yuzaga keltiradi. L.L.Nelyubin fikriga ko'ra, sinonimik qator – “ular ifoda etayotgan sifatning intensivligi va ifoda sifatiga qarab tartibga solingan ko'p yoki kamroq aniq so'zlar (sinonimlar)” tizilmasidir[10].

O.Bozorov ham darajalanish va sinonimiya hodisalari o'zining asos belgilariga ko'ra bir-biridan keskin farqlanishini ta'kidlab o'tadi. Jumladan, sinonimlik ikki yoki undan ortiq leksik va frazemalar semalarning aynanlagiga asoslansa, graduonimiya semalar asosiy semalardagi gradatsiyali farqlanuviga tayanadi. Bundan sinonimlarda asosiy ma'nolarning tengligi, graduonimiyada esa teng emasligi ma'lum bo'ladi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. LSGning dominantga mos semantik xususiyati gradatsiya shkalasi har bir darajasining ma'lum bir kichik guruhiga mos keladi va ularning har biri sinonimik qator sifatida belgilanishi mumkin. Shunday qilib, darajalanish semantikasi bilan sinonimik qator a'zolari o'rtasidagi sinonimik aloqalarni aniqlash algoritmi quyidagicha:

LSG birliklarining umumlashtirilgan leksikografik talqini;

umumlashtirish yo'li bilan olingan so'z ma'nolarining semantik talqini;

so'z ma'nolarining sema tavsiflarini qiyoslash;

LSGning dominant qo'llab-quvvatlovchi bosqichma-bosqich semantik xususiyatida seminal konkretlashtiruvchilarni aniqlash;

taqdim etilgan semalar tuzilmalarida sinonimik qatorning integral semantik o'zagini aniqlash (arxisema, yarim o'ziga xos sema, integral seme konkretlashtiruvchi bilan dominant tayanch sema).

O'zbek tili bo'yicha tadqiqotlarda sinonimlarga berilgan ta'riflar ularning ma'nolarini dastlab bir xilligi, so'ngra umumiyliigi, keyinchalik esa o'xshash (aynan) ligiga asoslanildi[7].

Tahlil va natijalar. Sinonimlarni ajratishning, so'zlarni sinonimik paradigmalariga birlashtirishning asosiy omili sinonim so'zlar anglatgan, ular nomlaydigan, ataydigan narsa, voqea, hodisa, belgi, xususiyatning aynanligidir. Mana shu keskin farq graduonimiyani sinonimiyadan ajratib turadi. Sinonimik qatorlarni birlashtirishda yetakchi omil sinonimik paradigma so'zlarining bitta umumiy denotat (atalmish)ga ega bo'lib, o'z paradigmasi ichida asosan uslubiy bo'yoqlar, qo'llanilish doirasi bilan farqlansa; graduonimik paradigmadagi so'zlar turli denotatlarni atab keladi, lekin bu denotatlar orasidagi farq denotatlarning sifatlarida emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlaridir. Shuning uchun sinonimiya bilan graduonimiya orasidagi asosiy farqni quyidagicha ko'rsatish mumkin: sinonimik munosabatlar bilan bog'langan so'zlar paradigmasining a'zolari ayni bir denotat, ayni bir voqelikni turlicha atab, ifodalab, nomlab keladi. Graduonimik munosabatlar bilan bog'langan so'zlar paradigmasi a'zolari turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o'sib borish yoki kamayish munosabatlari bilan bog'langan bo'ladi. Bir qarashda sinonimiya va graduonimiya orasidagi chegara

aniqqa o'xshaydi – denotatlar bir xil bo'lsa –sinonimiya, denotatlar har xil bo'lsa-yu, bu denotatlar o'zaro sifat belgisi so'zlarning ma'nosi bilan bir qatorda shu so'zlarning miqdori har xil bo'lsa – graduonimiya hisoblanadi.

Sinonimik qatorni ajratishda tilshunoslarning tayanch nuqtasi so'zlarning ma'nosida va bu so'zlar anglatib, nomlab kelgan voqelikning aylanganligida bo'lsa; graduonimik lug'aviy qatorlarda so'zlarning ma'nosi bilan bir qatorda shu so'zlarning semantik qurilishlaridagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan farqlanib turuvchi ayni bir belgining darajasida hamdir.

Ko'pchilik tadqiqotchilar sinonimlarning o'zaro farqlanish xususiyatiga qarab uchta asosiy turni ajratib ko'rsatadilar:

Semantik (konseptual yoki ideografik) sinonimlar leksik ma'no komponentlari va belgilovchi sifatning turli darajalari bilan farqlanadi, masalan: katta – ulkan (juda katta).

Stilistik sinonimlar bir xil ma'noni bildiradi, ma'no jihatdan mos keladi, lekin uslubiy farqlarga ega, masalan: qo'l –kaft.

Semantik-stilistik sinonimlar ma'no jihatdan ham, uslubiy jihatdan ham farqlanadi, masalan: sayr qilmoq – salanglab yurmoq.

Maqollarda sinonimiya bilan darajalanish bir-biri bilan uyg'unlashadi. Ayni bir ma'noning turli birliklar orqali ifodalanishi sinonimiya, ayni bir ma'no xususiyatining so'zma-so'z oshib borishi darajalanish.

Tilshunos olim B.M.Jo'rayevaning “O'zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimlar lug'ati”[6]ni kuzatish jarayonida sinonim maqollardagi quyidagi ikki holat aniqlandi:

Darajalanishni shakllantiruvchi leksemlarga ega sinonim maqollar qatori:

Chigirtkadan qo'rqqan ekin ekmas. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.

Kuchukdan qo'rqqan gado bo'lmas. Ilondan qo'rqqan olachilvirdan hatlamas.

Tulkidan qo'rqqan tovuq boqmas. Bo'ridan qo'rqqan to'qayga kirmas.

Ayiqdan qo'rqqan o'rmonga kirmas.

Ushbu sinonim maqollardagi chigirtka → chumchuq → kuchuk → ilon → tulki → bo'ri → ayiq leksemlarida hajm hamda xavflilik darajasining oshib borishi kuzatiladi. Ammo “O'g'ridan qo'rqqan mol ekmas”, “Uchqundan qo'rqqan temirchi bo'lmas” maqollari ham yuqoridagi sinonim maqollar qatoridan joy olgan bo'lsa-da, ular tarkibidagi o'g'ri, uchqun leksemlari butunlay boshqa semantik ma'noga egaligi bois darajalanishni yuzaga keltiruvchi leksemlar yonidan joy ololmaydi (keyingi misollarda ham lug'atdagi sinonim maqollarlardan faqat darajalanish xususiyatini namoyon qiluvchi leksemlarga egalari tahlilga tortildi).

Qulochingga qarab ketmon chop. Bo'yingga qarab to'n bich.

Bunda quloch→bo'y leksemlarida uzunlik belgisining oshib borishi daraja uchun asos bo'lgan.

Tikanni o'zingga sanch, og'rimasa boshqaga.

Birovga juvoldiz suqmoqchi bo'lsang, oldin o'zingga igna ur.

Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa birovga.

Maqollardagi tikan→igna→pichoq leksemlarida inson hayoti uchun xavflilik belgisiga ko'ra darajalanish kuzatilgan.

Ayrim hollarda sinonim maqollar tarkibida birdan ortiq darajalanish qatori kuzatiladi:

Yaxshi so'z filni ham yo'lga solar.Yaxshi gapga ilon inidan chiqar. Yaxshi muomalaga tuya ham cho'kadi.

Ushbu maqollar tarkibida dastlabki darajalanish qatorini fikr ifodalashda hajm jihatdan farqlanadigan nutq birliklari: so'z → gap → muomala leksemalari tashkil etsa,

Yaxshi gapga ilon inidan chiqar. Yaxshi muomalaga tuya ham cho'kadi. Yaxshi so'z filni ham yo'lga solar.

Ayni shu maqollardagi ikkinchi darajalanish qatorini hajm belgisi nuqtayi nazaridan farqlanadigan ilon → tuya → fil leksemalari yuzaga keltirgan.

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra o'zbek adabiy tilining leksik me'yorlarini tavsiflovchi indikator - "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga so'nggi yillarda ommalashgan ayrim birliklar kiritildi. Bu o'zgarishlarni yaqqol kuzatish uchun "A" harfi bilan boshlanuvchi so'zlarning so'nggi (2022-yildagi) nashrga kiritilganlarini (oldingi nashrlarga qiyosan) e'tiboringizga havola qilamiz: ajdarsifat [12], ajinabuta (b.65), ajriqbosh (b.68), arabzabon (b.129), arslonquloq (b.141), assalomalaykum (b.161), atir-upa (b.167), ayiqquloq (b.192), ayiqo't (b.192), ayritayog (b.201), ayg'irqiyoq (b.205), angishvonagul (b.220), a'lonav (b.222). Bu so'zlardan tashqari akvapark (b.77), akvabog' (b.77), audiodarslik (b.171), audiofayl (b.171), audiokasseta (b.171), audiokitob (b.171), audiomatn (b.171), audiopleyer (b.171), audiovizual (b.171), aviabozor (b.174), aviahalokat (b.174), aviakerosin (b.174), aviakorxona (b.174), avialayner (b.174), aviatashuv (b.175), aviaqatnov (b.175), avtobekat (b.180), avtogol (b.180), avtohalokat (b.180), avtokach (b.181), avtokredit (b.181), avtomaktab (b.181), avtoturargoh (b.184), avtoulav (b.184), avtoxo'jalik (b.185), avtoyuklagich (b.185) kabi o'zlashma komponentli qo'shma so'zlar ham lug'atga kiritilgan. Audio-, avto-, avia- komponenti yordamida hosil qilingan so'zlar ham

tildagi tegishli leksik bo'shliqlarni nomlash ehtiyojidan yuzaga kelgan va ularni ham til ichki imkoniyatlari va qonuniyatlari doirasida adabiy tilda ommalashayotganligini e'tirof etish joiz. Qiyosiy o'rganishlar ko'rsatadiki, til ichki imkoniyatlari asosida so'nggi davrda paydo bo'layotgan kompozitsion yasalmalar miqdori va ularning leksikografik tavsiflari til taraqqiyotiga mos rivojlanish tendensiyasiga ega.

Xulosa va takliflar. Shuni alohida qayd etish kerakki, adabiy tildagi tegishli leksik bo'shliqni to'ldirish bilan bog'liq tadqiqot va o'rganishlar natijasida tavsiya etiladigan yangi so'zlarning ilmiy asoslanishi, tilshunoslar tomonidan ma'qullanishi ularning ommalashuvi hamda adabiy til leksikasida barqarorlashuviga katta ahamiyatga ega. Shuningdek, mazkur jarayonda mas media va OAVning ham faol ishtiroki va tashabbuskorligi tavsiya etiladigan so'zlarning til egalari orasida ommalashishiga katta imkoniyat yaratadi. Shu bois bu kabi ishlarda tavsiya etilgan birliklarni ilmiy jamoatchilik tomonidan muhokama qilish va ma'qullangan so'zlarning keng ommalashishini va qo'llanishini ta'minlash maqsadida ularni o'z vaqtida normativ lug'atlarga kiritish, OAV va yozma manbalarda keng istifoda etilishini ta'minlash lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. Til tilisimi tadqiqi. – Tashkent: Mumtoz so'z, 2017. – B. 178.
2. Оруджев А. А. Теоретическое обоснование к "Толковому словарю азербайджанского языка Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Баку, 1962.
3. Сковорцов Л. Взаимодействие литературного языка и социальных диалектов (на материале русской лексики послеоктябрьского периода): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1966.
4. Кайдаров А. Т. Уйгурские диалекты и диалектная основа литературного языка: Дисс... докт. филол. наук. – Баку, 1969.
5. Сат Ш. Формирование и развитие тувинского национального литературного языка. – Кызыл: Тувкнигоиздат, 1973.
6. Безносикова Л. М. Роль диалектной лексики в формировании словарного состава Коми литературного языка. – М.: Наука, 1985.
7. Ладисова О. Лексическая лакунарность диалекта (на материале словаря современного русского народного говора д. Деулино): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Красноярск, 2006.
8. Мусаева Ф. Лакуна ходисаси ва уни бартафат этишда шева лексикасининг аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти 2020. – Б. 97.
9. Hasanov A. Filling the lexical lacunas in uzbek language with dialectisms (on the example of agricultural vocabulary) // Scientific Bulletin of Namangan State University, no. 5. – 2021. – pp. 408-412.
10. Hasanov A. O'zbek tilidagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish masalalari (so'nggi yuz yillik misolida) // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2023, 1-son 3(50). – B. 7-15.
11. Ҳожиёв А. А. Ўзбек тили сўз ясашиш тизими. – Т.: О'qituvchi, 2007. – B. 161.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom. – Т.: G'afur G'ulom, 2022. – B. 340.
13. Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти. – Т.: Nodirabegim, 2020. – Б. 17.
14. Lutfullayeva D., Tojiboyev B. Association of National and Cultural Units in Uzbek Language // ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 2018, 7(6). – pp. 49-59.
15. Majidovich A. Methods of filling the lexical gap using word derivation // Scienceweb academic papers collection, 2023.
16. Llach P.A. Lexical gap-filling mechanisms in foreign language writing // System, 2010, No.1, Vol. 4. – pp. 529-538.



UDK: 81.423.3(575)

Zarnigor XAYATOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, f.f.d
E-mail: khayatovazarnigor@gmail.com

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, f.f.d U.Buriyeva taqrizi asosida

**PERIFRAZ GENERATSIYA QILISH ALGORITMLARI TAHLILI (O'ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARI
MISOLIDA)**
Annotatsiya

Ushbu maqolada perifraz generatsiyasi algoritmlarining texnik va uslubiy asoslari o'zbek, ingliz va rus tillari misolida taqqoslab tahlil qilinadi. Tadqiqotda seq2seq, Transformer (BERT, T5) hamda ko'p tilli modellar (mBART, XLM-R) asosidagi yondashuvlar o'rganildi. Har bir tilning sintaktik va morfologik xususiyatlari, ularning algoritmik moslashuvga ta'siri misollar orqali ko'rsatildi. O'zbek tilining agglutinativ tuzilmasi tufayli uni modelga moslashtirishdagi muammolar hamda transfer learning asosida yechimlar taklif qilindi.

Kalit so'zlar: Perifraz generatsiyasi, tabiiy tilni qayta ishlash, Transformer, BERT, o'zbek tili, stilistik qayta ifodalash, ko'p tilli model.

**АНАЛИЗ АЛГОРИТМОВ ГЕНЕРАЦИИ ПАРАФРАЗОВ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО, АНГЛИЙСКОГО И
РУССКОГО ЯЗЫКОВ)**

Аннотация

В статье представлен сравнительный анализ алгоритмов генерации парафраз на примере узбекского, английского и русского языков. Рассматриваются методы на основе seq2seq, Transformer (BERT, T5), а также многоязычные модели (mBART, XLM-R). Проанализированы морфологические и синтаксические особенности каждого языка и их влияние на генерацию парафраз. Также предложены решения адаптации моделей под узбекский язык с помощью технологии transfer learning.

Ключевые слова: Генерация парафраз, обработка естественного языка, Transformer, BERT, узбекский язык, переформулировка, многоязычные модели.

**ANALYSIS OF PARAPHRASE GENERATION ALGORITHMS (ON THE EXAMPLE OF UZBEK, ENGLISH, AND
RUSSIAN LANGUAGES)**

Annotation

This article presents a comparative analysis of paraphrase generation algorithms using Uzbek, English, and Russian languages as case studies. The paper focuses on seq2seq, Transformer-based (BERT, T5), and multilingual models (mBART, XLM-R). It evaluates how each language's morphological and syntactic structure impacts paraphrasing. The study highlights challenges specific to the agglutinative structure of the Uzbek language and offers transfer learning as a solution.

Key words: Paraphrase generation, natural language processing, Transformer, BERT, Uzbek language, stylistic rephrasing, multilingual models.

Kirish. Zamonaviy tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) sohasida perifraz generatsiyasi eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Perifraz – bu bir fikr yoki ma'lumotni boshqa so'zlar bilan, lekin mazmunini o'zgartirmagan holda qayta ifodalash jarayonidir [1]. Ushbu jarayon mashinaviy tarjima, avtomatik savol yaratish, matn soddalashtirish, plagiat aniqlash va kontent yaratish kabi turli amaliy sohalarda keng qo'llaniladi [2]. Perifrazlashda kompyuter modelining asosiy vazifasi – mazmunni saqlagan holda so'zlar, tuzilma yoki uslubiy elementlarni o'zgartirishdan iborat bo'ladi [3].

Tadqiqotlar ko'rsatmoqda-ki, ingliz tilida perifrazlash yuzasidan keng ko'lamli korpuslar va ilg'or modellar yaratilgan: ParaNMT-50M, Quora Question Pairs, PAWS (Paraphrase Adversaries from Word Scrambling) kabi to'plamlar asosida o'qitilgan modellar yuqori samaradorlikka ega [4]. Rus tilida esa SberQuAD, RuPar va ruGPT kabi loyihalar orqali so'nggi yillarda sezilarli taraqqiyot kuzatilmoqda. Bu modellar rus tilining flektiv tuzilmasiga qaramay, semantik tenglikni saqlagan holda sintaktik o'zgarishlar kiritishda muvaffaqiyatli ishlamoqda [5].

O'zbek tiliga kelganda esa, ushbu yo'nalish hali yetarlicha rivojlanmagan. O'zbek tili – agglutinativ til bo'lib, uning grammatik va morfologik tizimi ingliz va rus tillaridan tubdan farq qiladi [7]. So'zlarga qo'shimcha va affiksalar orqali ma'no berilishi, sintaktik moslashuvchanlik va uslubiy ifodaning boyligi tufayli perifrazlashni avtomatlashtirish bu til uchun alohida yondashuvni talab etadi [8].

Ushbu maqolada perifraz generatsiyasi algoritmlarining uch til – o'zbek, ingliz va rus tillari – misolida taqqoslov tahlili beriladi. Model yondashuvlari, semantik izchillikni saqlashdagi qiyinchiliklar, morfologik murakkabliklar va NLP vositalarining har bir tilga moslashuv darajasi o'rganiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – til tipologiyasiga asoslangan holda periferik generatsiya algoritmlarini chuqur tahlil qilish, o'zbek tili uchun samarali yondashuvlar va ehtiyojlarni aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) doirasida perifraz generatsiyasi alohida yo'nalish sifatida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, bu sohada ingliz tiliga oid tadqiqotlar asosiy markazga aylangan. Chen va hammualliflar [1] tomonidan olib borilgan tadqiqotda

seq2seq (sequence-to-sequence) arxitekturasiga asoslangan model yordamida mazmunga mos, lekin so'z jihatdan yangilangan jumlar yaratish mexanizmlari tavsiflab berilgan. Ushbu yondashuv ayniqsa LSTM (Long Short-Term Memory) hujayralari va e'tibor (attention) mexanizmlari orqali samarali ishlagani ko'rsatib o'tilgan.

Prakash va boshqalar[6] "Stacked Residual LSTM" modelini ishlab chiqib, ko'p bosqichli dekodlash orqali perifrashlash sifati va stilistik silliqqligini oshirishga erishgan. Aynan shu yondashuv ingliz tilida plagiat aniqlash, test savollari yaratish va til o'rgatish ilovalarida keng qo'llanila boshladi. Shu bilan birga, Transformer asosidagi modellar – xususan, BERT va T5 – perifrashlashdagi aniqlik va semantik izchillik bo'yicha yangi bosqichni boshlab berdi[4]. Transformerlar parallel ishlov berish imkoniyati, chuqur kontekst anglash va stilistik moslashuvlari sababli keng tadbiiq etilmoqda[3].

Ko'p tilli modellar ham ushbu sohada sezilarli o'sishga ega bo'ldi. Mallinson va boshqalar[2] tomonidan yaratilgan ParaNMT-50M korpusi nafaqat ingliz tilida, balki boshqa tillarda ham umumiyashtirilgan perifrash generatsiyasi imkonini taqdim etdi. Ayniqsa, mBART va XLM-R modellarining ko'p tilli korpuslarda o'qitilgan versiyalari o'rta darajadagi resursli tillar uchun samarali yechim bo'lib xizmat qila boshladi[5].

Rus tilida esa RuPar va ruGPT kabi modellar yordamida perifrashlash yondashuvlari shakllana boshlagan. Bu modellar rus tilining flektiv tuzilmasi va boy sintaktik variantlari asosida yaratildi. Ayniqsa, ruGPT modeli kontekst asosidagi paraphrasingda ijobiiy natijalar ko'rsatgan[9].

O'zbek tili uchun esa hali keng ko'lamli korpuslar mavjud emas. Biroq, Chelikiyilmaz va hammualiflar[11] tomonidan turk tilida amalga oshirilgan perifrash generatsiyasi tajribalari agglutinativ tillarga mos yondashuvlar ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbek tili bilan grammatik jihatdan yaqinligi bois, turk tilida tuzilgan model strukturasii transfer learning orqali o'zbek tiliga moslashtirilishi mumkin.

Umuman olganda, adabiiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, perifrash generatsiyasi algoritmlarining rivoji aynan resurs mavjudligi, til strukturasii va stilistik murakkabliklarga bevosita bog'liq. O'zbek tilida bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar endigina boshlanayotgan bo'lib, mavjud ilmiy tajriba va metodlardan foydalanib, milliiy til modelini yaratish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda perifrash generatsiyasi algoritmlarining o'zbek, ingliz va rus tillari misolida qiyosiiy tahlili amalga oshirildi. Metodologik asos sifatida sifatli (qualitative) va eksperimental yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Tadqiqot uch bosqichda olib borildi: (1) tilga xos sintaktik va morfologik xususiyatlarni aniqlash; (2) uchta til uchun turli modellar yordamida perifrashlar generatsiyasi; (3) yaratilgan perifrashlar sifati va semantik mosligini baholash.

Tadqiqot uchun dastlab har bir tilda o'ziga xos grammatik strukturalar, sinonimik resurslar, stilistik ifodalar o'rganildi. O'zbek tilida o'zbekcha yangilik matnlari va darsliklar korpusi; ingliz tilida Quora Question Pairs va ParaNMT-50M; rus tilida esa RuPar va SberQuAD to'plamlaridan foydalanildi.

Quyidagi jadvalda natijalar umumlashtirildi:

Til	Model	BLEU	ROUGE-L	Semantik o'xshashlik
Ingliz	T5	0.82	0.88	0.84
Rus	ruGPT	0.76	0.81	0.80
O'zbek	mBART (tr)	0.63	0.74	0.70

Eksperimental bosqichda open-source modellar – T5 (ingliz), ruGPT (rus) va mBART (uchala til uchun) ustida fine-tuning (qayta o'qitish) amalga oshirildi. O'zbek tilining past resursli maqomini inobatga olib, transfer learning asosida turk tilidagi modeldan o'zbek tiliga kontekst o'tkazish yondashuvi tanlandi.

Yaratilgan perifrashlar baholash uchun quyidagi metrikalardan foydalanildi: BLEU – sintaktik o'xshashlikni baholash; ROUGE-L – asl va yangi jumladagi uzluksiz mos keluvchi ketma-ketliklar; Semantic Similarity Score – semantik tenglik darajasini aniqlash uchun SBERT modeli yordamida.

Metodologiya asosida til tipologiyasi va morfologik tahlil ustuvor bo'ldi. Ayniqsa, o'zbek tilidagi affiksali ko'rinishlar, so'z tartibidagi moslashuvchanlik va sinonimik qamrovni hisobga olgan holda model generatsiyasiga kirishildi. Har bir til uchun perifrashlash namunalarini alohida kuzatish asosida sifatli baholash ham olib borildi.

Tadqiqotda foydalanilgan yondashuvlar hozirgi zamonaviy tendensiyalarga mos bo'lib, ayniqsa, sun'iiy intellekt asosida tilga moslashtirilgan algoritmik qarorlar ishlab chiqish imkonini beradi. Aynan periferik ifodaning stilistik rang-barangligi, semantik aniqligi va foydalanuvchi kontekstiga mosligi asosiiy baholash mezonlari sifatida belgilandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida o'zbek, ingliz va rus tillarida perifrash generatsiyasi uchun turli algoritmlar asosida yaratilgan natijalar qiyosiiy jihatdan tahlil qilindi. Har bir til uchun alohida generatsiya modellari ishlab chiqildi va baholash metrikalari orqali ularning samaradorligi o'rganildi. Tahlil jarayonida asosiiy e'tibor semantik aniqlik, stilistik xilma-xillik va grammatika to'g'riligiga qaratildi.

Ingliz tilida Transformer asosidagi T5 modeli eng samarali natijalarni ko'rsatdi. ParaNMT-50M korpusi asosida o'qitilgan model test to'plamida 0.82 BLEU ball, 0.88 ROUGE-L va 0.84 semantik o'xshashlik (SBERT) natijasini berdi. T5 modelining kuchli tomonlaridan biri – bir fikrni kontekstga mos ravishda bir nechta uslubiiy shaklda qayta ifodalay olishi bo'ldi.

Rus tilida ruGPT modeli sinovdan o'tkazildi. Rus tilining flektiv morfologiyasiga moslashgan bu model semantik jihatdan aniq va stilistik jihatdan boy perifrashlar yaratishga muvaffaq bo'ldi. BLEU ko'rsatkichi 0.76, ROUGE-L 0.81 va semantik o'xshashlik 0.80 atrofida bo'ldi. Biroq uzun va murakkab gaplarda ba'zan grammatika xatolari kuzatildi.


O'zbek tilida transfer learning asosida mBART modelining turk tilida o'qitilgan versiyasi qayta moslashtirildi. Dastlabki natijalarga ko'ra, BLEU (0.63), ROUGE-L (0.74) va semantik o'xshashlik (0.70) biroz past bo'ldi, ammo stilistik jihatdan mazmunni saqlagan holda ifodalash darajasi qoniqarli bo'ldi. Murakkab fe'lii birikmalar va qo'shimchalar ishlatilgan jumalarda modelning barqarorligi tushdi.

Tillararo taqqoslash shuni ko'rsatdiki, resurs darajasi yuqori bo'lgan ingliz tili uchun model ancha mukammal ishlaydi. Rus tili uchun ruscha o'qitilgan modellar semantik chuqurlikni ta'minlagan. O'zbek tili uchun esa asosiiy muammo – resurs tanqisligi, leksik bazaning cheklanganligi va morfologik ko'rinishlarning murakkabligidir.

Chizma 1. Perifraz generatsiyasi samaradorligi (tillar kesimida)

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida samarali perifrazlash uchun birinchidan, sifatli va keng ko'lamli korpuslarni yaratish; ikkinchidan, morfologik tahlilga asoslangan yondashuvlarni modellarga kiritish zarur. O'zbek

tilida generatsiya qilingan perifrazlar semantikani saqlagan bo'lsa-da, stilistik va morfologik xatolarni kamaytirish uchun modelni yanada chuqurroq o'qitish talab etiladi.



Chizma 2. Perifraz generatsiyasi samaradorligi (tillar kesimida)

Ushbu diagramma perifraz generatsiyasi algoritmilarining Ingliz, Rus va O'zbek tillarida ko'rsatgan natijalarini BLEU, ROUGE-L, va Semantik o'xshashlik mezonlari bo'yicha rangli ustunlar orqali solishtirib beradi.

Ko'k rang (BLEU) – sintaktik moslikni bildiradi

Qizil rang (ROUGE-L) – mazmunli ketma-ketliklar o'xshashligini

Yashil rang (Semantik o'xshashlik) – umumiy ma'no saqlanishini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Chen, Q., Zhu, X., Ling, Z., Wei, S., Jiang, H. (2018). Enhancing Sentence Embedding with Generalized Pooling. ACL, pp. 448–457.
2. Mallinson, J., Sennrich, R., Lapata, M. (2017). Paraphrasing Revisited with Neural Machine Translation. EACL, pp. 400–410.
3. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., et al. (2017). Attention Is All You Need. NeurIPS, pp. 5999–6009.
4. Raffel, C., Shazeer, N., Roberts, A., et al. (2020). Exploring the Limits of Transfer Learning with a Unified Text-to-Text Transformer. JMLR, 21(140), pp. 1–67.
5. Al-Shameri, F., Al-Khalifa, H. (2024). Paraphrasing Approaches for Arabic and Related Morphologically Rich Languages. LREC, p. 6.
6. Prakash, A., Hasan, S. A., Lee, K., et al. (2016). Neural Paraphrase Generation with Stacked Residual LSTM Networks. COLING, pp. 1243–1252.
7. Sharipov, S. (1978). O'zbek tilining grammatik qurilishi. Toshkent: Fan.
8. Rahmatullayev, A. (2022). O'zbek tilining morfologik xususiyatlari va kompyuter lingvistikasi. Tashkent: O'zMU nashriyoti.
9. Gerasimov, V. (2015). Zadachi Voennoy Nauki, Obzor voyenno-politicheskoy obstanovki v mire. http://dokwar.ru/publ/novosti_i_sobytiya/mnenie/zadachi_voennoj_nauki/9-1-0-681 (retrieved 02.02.2015)
10. Carr, J. (2012). Inside Cyber Warfare. Mapping the Cyber Underworld. O'Reilly, 2nd edition.
11. Çelikyılmaz, A., Bosselut, A., He, X., Choi, Y. (2021). Deep Language Generation for Agglutinative Languages: The Case of Turkish. ACL Anthology, pp. 88–96.



UDK:821.512.133

Nigora SHARIPOVA,

Navoiy davlat universiteti doktoranti, Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, PhD

E-mail: nigora-sharipova29@gmail.com

SamDU professori, f.f.d. I.Sulaymonov taqrizi asosida

РОЛЬ МИРАДЖНАМЕ В СТРУКТУРЕ ПЕРВЫХ ДАСТАНОВ “ХАМСЫ” (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ “МАХЗАН УЛЬ-АСРОР,” “ХАЙРАТ УЛЬ-АБРОР” И “ГУЛЬШАН УЛЬ-АНВОР”)

Аннотация

В статье анализируется место наатов мираджнаме, следующих за басмалой, хамдом, мунаджатом и васф-наатами, в композиции первых поэм “Хамсы” на примере структуры произведений “Махзан уль-асрор” Низами Гянджеви, “Хайрат уль-аброр” Алишера Навои и “Гульшан уль-анвор” Ташлиджали Яхьябея. Рассматривается индивидуальный стиль выражения каждого автора в описании ночи Мирадж. Особое внимание уделяется вопросу художественного мастерства авторов в создании образа Мухаммада Мустафы (с.а.в.), объединяющего мираджнаме в этих поэмах, созданных в разные периоды и на разных языках.

Ключевые слова: Поэма, структура, Мухаммад (с.а.в.), первая поэма, ночь вознесения, божественная любовь, традиция, художественное мастерство, своеобразие.

“XAMSA” ILK DOSTONLARI STRUKTURASIDA ME’ROJNOMALARNING O’RNI (“MAXZAN UL-ASROR”, “HAYRAT UL-ABROR” VA “GULSHAN UL-ANVOR” ASARLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Toshlijali Yahyobeyning “Gulshan ul-anvor” dostonlari strukturasida basmala, hamd, munajat va vasf-na’lardan keyin keluvchi me’rojnoma na’tlarning “Xamsa” birinchi dostonlari kompozitsiyasida tutgan o’rni, Me’roj tuni tasvirida har muallifning individual ifoda uslubi tahlilga tortilgan. Turli davr va turli tillarda yaratilgan mazkur dostonlardagi me’rojnomalarni birlashtirib turuvchi Muhammad mustafo (s.a.v.) siymosini yaratishda muallif badiiy mahorati masalasiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlar: Doston, struktura, Muhammad (s.a.v.), birinchi doston, Me’roj tuni, ilohiy ishq, an’ana, badiiy mahorat, o’ziga xoslik.

THE ROLE OF MIRAJNAMA IN THE STRUCTURE OF THE FIRST POEMS OF “KHAMSA” (USING THE EXAMPLES OF “MAKHZAN UL-ASRAR”, “HAYRAT UL-ABROR”, AND “GULSHAN UL-ANVAR”)

Annotation

The article analyzes the place of mirajnama naats, following basmala, hamd, munajat, and vasf-naats, in the composition of the first poems of “Khamasa” using the examples of “Makhzan ul-asrar” by Nizami Ganjavi, “Hayrat ul-abror” by Alisher Navoi, and “Gulshan ul-anvar” by Tashlijali Yahyabey. Each author's individual style of expression in describing the Night of Miraj is examined. Special attention is paid to the authors' artistic mastery in creating the image of Muhammad Mustafa (peace be upon him), which unites the mirajnama in these poems, created in different periods and in different languages.

Key words: Poem, structure, Muhammad (peace be upon him), first poem, night of ascension, divine love, tradition, artistic mastery, originality.

Kirish. Mumtoz adabiy asarlarda na’tlarning kiritilishi an’ana talabi bo’lish bilan birga payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga yuksak muhabbat ifodasi ham sanalgan. «Xamsa» ilk dostonlarida basmala, hamd va munajotlardan keyin vasf va me’rojnoma na’tlar kelishi islomiy iymon-e’tiqodning insoniyat hayotida buyuk burilish yasaganligi, johiliyatga, butparastlikka qarshi tinimsiz, mashaqqatli kurashlarga yetakchilik qilgan payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ni e’zozlash bilan ham aloqadordir.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunos M.Muhiddinov doktorlik dissertatsiyasining «Hazrati payg’ambar tasviri» nomli bobida «Hayrat ul-abror»dagi na’tlarni «Matla’ ul-anvor»dagi na’tlar bilan qiyoslab tahlil etadi. Olimning fikricha, Amir Xusrav «Matla’ ul-anvor»dagi na’tlarda payg’ambar haqidagi umumiy yo’sinda fikr yuritisa, Navoiy

payg’ambar siymosini tarixiy voqealar ichida gavdalanitiradi, tadrijiy tus beradi[5;21]. Adabiyotshunos U.Qobilovning «O’zbek adabiyotida nubuvvat motivi va obrazlari talqini» (XIV-XV asrlar) mavzusidagi tadqiqotida o’zbek mumtoz adabiyotida nubuvvat motivi va obrazlari orqali ifodalangan ma’rifiy g’oya va mazmun, janriy va shakliy rang-baranglik ilmiy asoslangan[10]. Tadqiqotch O.Davlatov tadqiqotidagi «Navoiy she’riyatida Muhammad payg’ambar (s.a.v.) siymosi» nomli uchinchi bobda payg’ambarimiz Muhammad mustafo (s.a.v.)ning Qur’onda zikr etilgan va o’zgarishsiz kelgan ism va sifatleri, Navoiyning Muhammad payg’ambar (s.a.v.) siymosini tasvirlashda hadislardan foydalanish mahorati, shuningdek, Rasuli Akramning eng ulug’ mo’jizalaridan biri – Me’roj hodisasi badiiy talqin etilgan[3].

Asosiy qism. Mazkur ilk dostonlarda na’tlar quyidagi tartibda joylashtirilgan:

1-rasm

Bob nomi	“Maxzan ul-asror”	“Hayrat ul-abror”	“Gulshan ul-anvor”
Vasf na’t	5 ta	4 ta	2 ta

Me'rojnoma na't	1 ta	1 ta	1 ta
-----------------	------	------	------

Na'tlar masalasida "Maxzan ul-asror"da Nizomiy prinsipi boshqalardan farq qiladi. Munojotlardan so'ng "Rasuli Akram na'ti" nomli bir vaf-na't bob kelib, undan so'ng bir bobda Me'roj tuni ta'rifi keladi. Keyin birinchisi "Avvalgi na't" nomi ostidagi ketma-ket yana to'rt vaf-na't bobga o'rin ajratiladi. "Maxzan ul-asror"dagi na'tlar ketma-ketligi an'anaviy qurilishdan farqlangan holda ma'lum maqsadga yo'naltirilgan maxsus strukturaviy yondashuvga ega bo'lib, shoirning aniq badiiy-kompozitsion strategiyasi zahirida shakllangan. "Rasuli akram (s.a.v.) zikrida" deb nomlangan birinchi na't mohiyatan ham vaf, ham me'roj xarakteridadir. Bobning asosiy qismi payg'ambarimiz (s.a.v.) madhiga bag'ishlanib, so'nggi besh baytda Me'roj tuni va u bilan bog'liq tafsilotlar yodga olinadi. Bu bobni keyingi Me'rojnoma va vaf boblar uchun muqaddima sanash mumkin. Chunki unda Rasululloh (s.a.v.)ning umumiy sifatleri, insoniyat uchun nur manbayi ekanliklari muqaddimaviy xarakterda taqdim etilgan. Bu bob o'quvchida Rasululloh (s.a.v.)ning buyukligi haqidagi dastlabki tasavvurni shakllantiradi.

Keyingi bob – Me'rojnoma muborak zotning maqom va martabalarini alohida e'tirof etish, ma'rifiy komillikning oliy bosqichiga erishgan Rasuli akramning bu ilohiy darajaga muvassar bo'lganini urg'ulash maqsad qilindi. Ko'rinadiki, Nizomiy ketma-ketlikdagi na't boblarining birinchisida Muhammad (s.a.v.)ning zamindagi risolatini tasvirlasa, ikkinchisida osmondagi oliy maqomini ochib beradi. Avval fazilat, keyin Me'roj, keyin yana to'rt bob doirasida fazilatlar bayon etiladi. Struktura puxta o'ylangan. Bir vaf + bir Me'rojnoma yuksak maqomdan so'ng ul tabarruk zotning fazilatlarini batafsilroq yoritish uchun, tabiiyki, shoirida imkoniyat kengroq bo'lgan. Bundan tashqari, me'rojnomaning markazida berish unga na'tlarning kulminatsion cho'qqisi sifatida qarash va undan keyingi vaf-na'tlar uchun ma'naviy asos bo'lishi ko'zlangan. Bunda me'rojnomalarning qasidaviy xarakterdan ko'ra aniq rivoyaviy-poetik sujetga ega bo'lishi ham muhim asos bo'lgan. Shu sababdan shoir uni markazga qo'yishni lozim topgan.

Nizomiydan keyin u tanlagan na'tlar strukturasi Navoiydan tashqari salafar Xusrav Dehlaviy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida ham takrorlanmaydi. Ularda na'tlar soni bir xil: uchtdan. Mazmun-mundariyasi ham ayni: ikkita vaf va bir me'rojnoma na't. Navoiyda Nizomiydan ham, Dehlaviydan ham o'zlashtirish bor. Nizomiyga mushtaraklik na'tlar sonida (to'rt vaf-na't va bir me'rojnoma na't) ko'rinsa, Dehlaviyga izdoshlik na'tlar tartibida (avval vaf na'tlar, so'ng me'rojnoma keladi) aks etadi. Demak, Navoiydagi novatorlik Nizomiydagi strukturani o'zgartirib, Dehlaviydagi mazmun-mundariyani boyitish bilan kechadi.

Navoiyda ham Nizomiydagi singari na'tlarning joylashuvi va kompozitsiyasi muallifning ma'lum badiiy niyati, badiiy-estetik qarashlari bilan bog'liq. Navoiydagi me'rojnoma bo'lgan dastlabki to'rt na'tda Payg'ambar (s.a.v.) hayoti va faoliyati xronologik ketma-ketlikda tadrijiy aks ettiriladi. Vaf na'tlar tayyorgilik bosqichi bo'lib, ulardan so'ng keluvchi me'rojnoma esa nubuvvat kamolotining cho'qqisi. Ya'ni, Nizomiydan farqli ravishda insoniy fazilat → ilohiy maqom strukturasi muvofiq ish ko'rilgan. Navoiy na'tlarida voqelik quyidan yuqoriga harakatlanishiga ko'ra tasavvuf bosqichlariga muvofiq keladi: shariat → tariqat → ma'rifat → haqiqat. Tizimli va tartibli ketma-ketlik. Haqiqatga olib boruvchi uzun yo'l tasviri yoki haqiqatni birdan ko'rsatib keyin uni tasvirlash. Ikki xamsanavisda ikki holat tasvirlangan. Nizomiyda ikkinchisi va shu struktura o'zgachaligi mohiyatga ham ta'sir qilgan. Me'rojnoma so'ng vaf na'tlar kelishi ilohiy maqomdan so'ng uni insoniy fazilat tasvifi orqali ochish kuzatiladi.

"Maxzan ul-asror"dagi ilk na't bobda Rasuli akram (s.a.v.) zikrida kitobat san'ati orqali arab harflari vositasida betakror tasvir yaratiladi. Me'roj tuni ta'rifidagi bobgan keyingi to'rt bob biri ikkinchisi bilan uzviy aloqador bo'lib, mohiyat birinchi na't bobga ulanadi va ularning barchasini Hazrati payg'ambar (s.a.v.)ning nurli siymolari birlashtirib turadi. Shu bobdagi talqin bilan "Hayrat ul-abror"dagi "Avvalgi na't"da o'xshashliklar uchraydi. Nizomiyda payg'ambarimiz (s.a.v.)ning Ahmad ismlaridagi harflar sharhlanadi: "Тахтаи аввал, ки «алиф» нақш баст, Бар дари маҳҷубаи Аҳмад нишаст. Ҳалқаи «хе»-ро к-«алиф» иқлим дод, Таваққи «дол»-у камар аз «мим» дод" [6;24]. Bu o'rindagi "ho" harfining doirasimon shakliga ishora qilinib, ilohiyligiga urg'u berilsa, "alif" tavid va Allohning yakalligi ramzi sifatida harorat beruvchi, "dol" ham taviddan olinib, u bilan vobastalik hosil qiladi. "mim" Muhammadning ibtidosidir. (tojikcha bayt)

Allohning Rasuli akram (s.a.v.)ga "mim"u "dol"ning berishi ul tabarruk zotga nubuvvat (mim – Muhammad, payg'ambarlik ma'nosida) va davlatning (dol-davlat, mulk) ato etilishiga qiyoslanib, shu orqali komillikka musharraf bo'lgani urg'ulanadi. Yana bir o'rinda "Ahmad"dagi "alif"da Odam Atoga, "Muhammad"dagi "mim"da Masih alayhissalomga mushtaraklik mavjudligi ta'kidlanib, "ا" singari vafoda sobit-u, nabiyalar ichra avval-u oxir ekanliklari aytiladi. "Hayrat ul-abror"da ham Ahmad" so'zi sharhiga bag'ishlangan baytlarda zimdan Nizomiyga mushtaraklik sezilsa-da, Navoiyda talqin ancha chuqur shakllantirilgan. Odam va Ahmad ismlari yozilishidagi o'xshashlikka e'tibor qaratiladi. Ammo bu bog'liqlik Nizomiydagi singari shunchaki harflar o'rtasidagi aloqadorlik bo'lmay, Odam Ato va Muhammad (s.a.v.) o'rtasidagi "ato-o'g'illik" munosabatini ham qamrab oladi:

"O'zga dalil istasa tab'i saqim,

Basdurur Odamda "alif", "dol"u "mim".

Borchasi Ahmadda topib izzu shon,

O'g'lida uch harf atodin nishon" [1].

"Gulshan ul-anvor"dagi ikki vaf na'tning birinchisida payg'ambarimiz (s.a.v.) barcha payg'ambarlarning so'ngisi; ilm va donishmandlik manbayi; mehr, shafqat, saxovat va adolatda yuksak namuna; insonlarning gunoh va xatolaridan xabardor va afv etishga tayyor zot, nafaqat insoniyat, balki malakut va koinotda ham rahbar sifatida ulug'lanadi: "Server-i ashāb-i melek-ma'delet, Rehber-i ahhāb-i felek-menzilet" [9].

Toshlijali ilk na'tida Nizomiydan ko'ra ko'proq Navoiyga izdoshlik ko'rinadi. Xususan, Nuri Muhammadiya talqinida ham buni ko'rish mumkin.

Navoiyda:

"Ey qilibon lam'ayi nurung zuhur, Andaki ne soya bor erdi, ne nur" [1].

Toshlijalida:

"Nūr-i nūbūvvet gezūp enhārvār, Eyledi zātī deñizinde qarār" [9].

Toshlijali dostonidagi ikkinchi na'tda payg'ambarimiz Muhammad mustafo (s.a.v.)ning ko'rsatgan mo'jiza va jasoratlariga urg'u beriladi. Xususan, o'ying ikkiga bo'linishi, butlarning yo'q qilinishi, g'ayridinlarning mag'lubiyati, inoyatlari sababidan insonlarning jaholatdan najot topishi singari masalalar talqinini uchratish mumkin. Mo'minlarga qiyomat kuni shafaotchi bo'lishlari ham poetik mukammal tasvir hosil qilgan.

E'tibor qaratilsa, "Hayrat ul-abror"da to'rt vaf na't xarakteridagi bobda qalamga olingan masalalar "Gulshan ul-anvor"dagi ikki shu tipdagi bobda qamrab olingan. Voqealar tadrijiy aks ettirilib, aniq tarixiy fakt va dalillarga asoslanadi. Xususan, «Nuri Muhammadiya»ning yaralishi, Rasuli Akramda nubuvvat nishonalarining yuz berishi, islom dinining

paydo bo'lishi, butparastlarga qarshi kurash, payg'ambarlik mo'jizalari, islomning qudrati, Qur'oni karim va hadisi sharifning shuhrati, xalifalar ibratlari xususida jihatlar shular jumlasidandir. Nizomiydagi bunday na'tlarda esa aniq tarixiy voqealardan ko'ra ulug'lash, madh etish, qasida elementlari muallifning badiiy-estetik qarashlari, falsafiy mushohadalari bilan uyg'unlikda aks ettiriladi.

Me'rojnomaga na'tlar uch ijodkor ilk dostonida ham teng kiritilgan: bittadan. Hajmi Nizomiyda 68 bayt, Navoiyda 53 bayt, Toshlijalida esa 74 baytdan iborat. Me'roj tuni ta'riflangan na'tlarda ham ba'zi mushtarakliklar, shu bilan birga o'ziga xosliklar ko'rinadi. Nizomiyda mazkur bob safar avvalida Allohdan mujda kelishi aytilib, keyingi baytlarda muqaddas safar tasviri misralarda birin-ketin go'zal ifoda topadi. Navoiyda esa biroz boshqacha. Shoirda bobning birinchi qismida Me'roj kechasining poetik mukammal tasviri yaratiladi. "Obi hayot bulog'idek yashiringan Quyosh", "Xizr ko'k uzra qatralarini sochgan buloq", "anbar misol yumaloq shakldagi xushbo'y idishga aylangan Yer", "Yer idishi ostida o't yoqayotgan Quyosh", "bu idishni etagi bilan yopib turgan Oy", "do'stlik xonasining shamini yanada ravshanroq qilgan do'stlik sarvi" singari betakror obrazlar vositasida go'zal peyzaj yaratiladi. Toshlijali Me'rojnomasida Nizomiyga mushtaraklik mavjud bo'lib, bob ibtidosida Alloh taolo bu safar orqali payg'ambarimiz (s.a.v.)ning darajalarini eng yuksak martabalardan ham balandroq – oliy osmonlarga yo'l ko'rsatuvchi qilgani ta'kidlanib, keyingi baytlar safar voqealariga ulanib ketadi. Nizomiyda bob boshidan oq "Нимшабон к-он малики Нимрӯз, Кард равон машғали гетифурӯз" [6] deya tun yarmida Allohdan mujda kelishi aytilsa, Toshlijalida ham shu tasvirni aynan uchratamiz (bob o'rtarog'ida): "Bir gice dun yarisi idi meger, Yār diyārından irişdi haber" [9].

Nizomiy me'rojnomasidagi tasvir ketma-ketligi voqealar rivojlanishiga emas, balki ruhiy-irfoniy yuksalish bosqichlarini ham ifoda etadi. Bu tartib ziyorat – safar – visol poetik qurilishiga asoslangan bo'lib, zohiran zamon tadrijini ifoda etsa-da, mohiyatan irfoniy bosqichlarni anglatadi.

"Nimshabon" – (yarim tun) me'roj boshlanishidagi zamon va makonni tasviri ham jisman, ham ruhan sokinlikni bayon etadi. Osmon jismlaridan: Zuhra, oy, to'qqiz falak, yetti chiziq mukammal makonni yaratishning asosiy vositalari sanalsa, burjlardan: Saraton, Sunbula, Asad, Javzo – Haqqa yetishish yo'lidagi ruhiy kamolot bosqichlarini ifoda etadi. "Сидра шуда судраи пероханаш, Арш гиребон зада дар доманаш" [6] baytidagi Sidrat ul-Muntaho – Rasululloh (s.a.v.)ning Me'roj kechasida ko'tarilgan eng yuqori nuqta bo'lib, Qur'oni karimda Alloh huzuriga eng yaqin joy, tasavvufda dunyoviylik va ilohiylik o'rtasidagi oxirgi chegara ma'nolarini ifodalaydi. Arsh esa bu ruhiy va ma'naviy safarning eng oliy nuqtalaridan bo'lib, Arshni ko'rish Alloh nuriga yaqinlashishni anglatadi. Baytdagi tasvir jo'g'rofiy muhit ifodasi bo'lmay, balki Alloh Taologa yaqinlashish natijasida kechadigan ilohiy-ma'rifiy yuksalishdir. "Парда дарандохта дасті висол, Аз дари таъзими сарон чалол" [6] misralarida "parda" – Alloh va banda o'rtasidagi ma'naviy va moddiy to'siqlarni anglatadi, "dasti visol", "saroyi jalol" Baytdagi mohiyat esa, moddiyatdan chekinib, ilohiy haqiqat bilan yuzma-yuzlik. Bu tasavvufdagi fano holatiga yaqin holat bo'lsa, keyingi baytda fano holatining aniq tasviri ham beriladi: "Дидани он парда маконе набуд, Рафтани он роҳ замоне набуд" [6]. Parda, lekin unda makon yo'q; yo'l, lekin unda zamon mavjud emas. Zamon va makonning nomavjudligi – Me'rojning eng yuqori nuqtasi, ifondagi fano holati. "Fena – fani olmak, yok olmak manasına gelir. Bu durumda kul, bütün nefsi arzularını terkeder ve kendini Allah'ın iradesine teslim eder" [8].

Bundan tashqari, Nizomiy, Navoiy, Toshlijali "Me'rojnomalaridagi ba'zi o'ziga xosliklarga e'tibor qaratsak:

Payg'ambarlar obrazi:

Nizomiyda – payg'ambarimiz (s.a.v.)dan boshqa payg'ambar siymosi tilga olinmaydi;

Navoiyda – Yusuf (a.s.) va Yunus (a.s.) nomlari baytda ramziy mohiyat kasb etib, hazrat Navoiy ularning sabr-toqat hamda tavba bilan bog'liq fazilatlarini Me'roj manzarasiga estetik jihatdan qo'shgan.

Toshlijalida – payg'ambarimiz (s.a.v.) Sidrat ul-Muntahogacha bo'lgan yetti osmonda birinchi bo'lib, Ibrohim (a.s.)ga duch keldi. Aniqrog'i, Allohning do'sti – Ibrohim u zotni samimiy kutib oladi. Shundan so'ng yana to'rt payg'ambar: Muso, Iso, Dovud va Sulaymon bilan ko'rishiladi.

Allohning muborak Hu ismi:

"Gulshan ul-anvor"da Me'rojnomaga na't shunday bayt bilan boshlanadi:

İstedi açılmağa esrâr-ı Hû,

Ya'ni hüveydâ ola didâr-ı Hû. [9]

Bob Me'roj tunida payg'ambarimiz (s.a.v.)ning Allohni ko'rish va ilohiy sirlarini bilishni istab, muborak safarga otlangani ta'kidlangan bayt bilan boshlanadi. Baytdagi Hu – Allohning ismlaridan biridir. Toshlijali dostonining ikki vasf na'tida bir martadan jami ikki o'rinda tilga olingan bu so'z me'rojnomasining o'n to'rt o'rinida ko'zga tashlanadiki, bu bevosita muqaddas ismning mohiyati bilan aloqadordir.

"Hu" – tasavvufda Allohning zoti (o'zligi)ni ifodalovchi ism sifatida kelib, dastlabki tasavvuf manbalarida, birlashish (jam') holatini boshdan kechirayotgan solikning tavid tushunchasini ifodalagan. Bu ibora, solikning o'zini Allohdan ajratmasdan, faqat Alloh bilan birligini anglatib keladi"[7]. Tavhidda solik uchun bundan boshqa barcha narsalar yo'qlikka teng moddiyatdir. Shuning uchun, asosan, me'rojnomalarda uchraydigan bu muborak ism faqat Allohning yodi bilan bo'lishni, muntazam Allohni zikr qilishni anglatadi:

"Қıldи қібāб-ı felegi toptolu,

Hālet-i Hū shōhbet-i Hū zikr-i Hū" [9].

Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" va Navoiyning

"Hayrat ul-abror" me'rojnomalarda bu ism uchramaydi.

Yo'lning yakkaligi

Nizomiy me'rojnomasida payg'ambarimiz (s.a.v.) bilan birga Me'rojga ko'tarilayotgan hamroh farishtalar so'nggi pallada "бол шикастанду пар андохтанд". Yo'lni davom ettirmaydi — "qanoti sinadi". Chunki keyingi manzilga yetish hamma uchun emas.

Navoiyda esa bu pallaga kelib, "hamrahu rahravga xayrbod etilib", Rasuli akramning yakka o'zlari manzilda davom etadilar.

Toshlijali me'rojnomasida Rasuli akramning hamrohlari haqida chuqur tafsilotlar mavjud emas, chunki muallif, asosan, Rasul va Alloh o'rtasidagi munosabatga e'tibor qaratadi.

Burj, yulduz va sayyoralar

Nizomiyda sayyoralaridan: Zuhra, Oy; burjlardan: Saraton, Sunbula, Asad; yulduzlar turkumi: Surayyo uchraydi.

Navoiyda sayyoralaridan Yer, Oy, Atorud (Merkuriy), Zuhra (Venera), Zuhul (Saturn), Mushtariy (Yupiter), Bahrom/Mirrix (Mars); burjlardan: Hamal, Sarv, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Aqrab, Qavs, Jady, Dalv, Hut kabilar tilga olingan.

Toshlijalida Quyosh, barcha yulduzlar. Sayyora, burj va yulduzlar nomi maxsus tilga olinmaydi.

Ko'rinib turibdiki, Me'roj tunida burj va sayyoralarning barchasiga ramziy ma'no yuklab, ular vositasida mukammal galaktika tasvirini Navoiy yaratgan.

Zero, navoiyshunos S.Azizov talqinicha, "Alisher Navoiyning astronomik dunyoqarashi aynan Samarqandda takomillashgan va u ana shu bilimlar bilan ma'lum darajada o'z astronomik muhitiga ega bo'lgan Hirotda qaytgan"[2].

Xulosa. İlk dostotlardagi na'tlarda payg'ambarimiz Muhammad mustafo (s.a.v.)ning bola davrlaridan tortib, to Me'roj kechasida buyuk maqsadning hosil bo'lishigacha bo'lgan buyuk davrni haqqoniy yoritib beruvchi muhim tarixiy-badiiy manbalardir.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Oltinchi jild. Hayrat ul-abror.– T.: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Азизов С. Алишер Навоий асарларида фалакиёт сирлари. – Т.: O'zbekiston, 2018. –Б.13.
3. Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадий талқини. Филол.фан.буйича фал.док.дисс. ... автореферати. – Самарқанд, 2017.
4. İsmail Taşpınar. Refref. İslam ansiklopedisi, 34.cilt. İstanbul, 2011. – S. 534.
5. Мухиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси ("Хамса"ларнинг биринчи дostonлари асосида). Филол.фан.док.дисс. ... автореф. – Т.,1995. – Б.21.
6. Низомии Ганҷавӣ Ҳамса: Махзану-л-асроп, - Душанбе: «Адиб», 2012. – С.38.
7. Osman Türer. HÜ (هو). İslam ansiklopedisi, 18.cilt. İstanbul, 2011. – S. 260.
8. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. Hazırlayan Prof.Dr.Ethem Cebecioğlu, 2005. – S. 218.
9. Taşlıcalı Y. Gülşen-i envar'ın karşılaştırmalı metni (Karşılaştırmalı metin hazırlanırken mesnevînin şu nüshaları kullanılmıştır: 1- Millet Kütüphanesi (Ali Emiri Efendi Manzum Eserler) 993; 2- Milli Kütüphane 60 Hk 1/1 (1b-81a); 3- Râşid Efendi Kütüphanesi 1124). – S. 627.
10. Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV-XV асрлар). Филол.фан.док.дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2019.
11. Ömer Zülfe. Refref. İslam ansiklopedisi, 34.cilt. İstanbul, 2011. – S. 535.



Maftuna ESHQUVATOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM mustaqil tadqiqotchi
E-mail: odilovnamaftuna2@gmail.com

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori X.Narxodjayeva taqrizi bilan

DOSTOEVSKIYNING "TELBA" ROMANINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SEMANTIK O'ZGARISHLAR

Annotation

Mazkur maqola Fyodor Dostoevskiyning "Telba" romanining ingliz tiliga tarjimalarida yuzaga keladigan semantik o'zgarishlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida tarjima jarayonida yuz beradigan leksik-semantik siljishlar, stilistik transformatsiyalar va madaniy konnotatsiyalarning o'zgarishi ko'rib chiqilgan. Qiyosiy-tahliliy metod asosida original ruscha matn va uning mashhur inglizcha tarjimalari o'rganilib, tarjimonning talqini, madaniy kompetensiyasi va estetik qarashlarining semantik mazmunga ta'siri aniqlangan. Maqola tarjima nazariyasi, adabiyotshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida Dostoevskiy asarining tarjimada qanday talqin qilinishini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Dostoevskiy, "Telba", tarjima, semantika, semantik siljish, tarjima nazariyasi, madaniy tafovut, ingliz tili, qiyosiy tahlil, leksik transformatsiya.

SEMANTIC SHIFTS IN THE ENGLISH TRANSLATION OF DOSTOEVSKY'S NOVEL "THE IDIOT"

Annotation

This article analyzes the semantic shifts that occur in the English translations of Fyodor Dostoevsky's novel *The Idiot*. The research explores lexical-semantic deviations, stylistic transformations, and the modification of cultural connotations arising during the translation process. Through a comparative analysis of the original Russian text and several prominent English translations, the study reveals the influence of the translator's interpretation, cultural competence, and aesthetic choices on semantic content. The article offers insight into how Dostoevsky's novel is perceived and reinterpreted within the frameworks of translation theory, literary studies, and intercultural communication.

Key words: Dostoevsky, *The Idiot*, translation, semantics, semantic shift, translation theory, cultural difference, English language, comparative analysis, lexical transformation.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ПЕРЕВОДЕ РОМАНА ДОСТОЕВСКОГО «ИДИОТ» НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

Эта статья анализирует семантические сдвиги, возникающие в английских переводах романа Фёдора Достоевского «Идиот». В исследовании рассматриваются лексико-семантические отклонения, стилистические трансформации и изменения культурных коннотаций, происходящие в процессе перевода. Посредством сравнительного анализа оригинального русского текста и нескольких известных английских переводов работа выявляет влияние интерпретации переводчика, его культурной компетенции и эстетических предпочтений на семантическое содержание. Статья позволяет глубже понять, как роман Достоевского воспринимается и переосмысливается в контексте теории перевода, литературоведения и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: Достоевский, «Идиот», перевод, семантика, семантический сдвиг, теория перевода, культурные различия, английский язык, сравнительный анализ, лексическая трансформация.

Kirish. Tarjima san'ati bugungi global axborot almashinuvi va madaniyatlararo muloqot sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, jahon adabiyotining buyuk namoyandalari ijodini turli tillarga tarjima qilish jarayonida til, madaniyat va mentalitetlar o'rtasidagi murakkab aloqadorlik yuzaga chiqadi. Bunday tarjimalar nafaqat til o'zgarishi, balki ma'no, kontekst va estetik talqinlar darajasida chuqur tahlilni talab etadi.

Fyodor Mixaylovich Dostoevskiy rus va umuminsoniy adabiyotda inson qalbining falsafiy va axloqiy qatlamlarini tahlil etish borasida beqiyos ijodkor sifatida tan olingan. Uning "Telba" romani, ayniqsa, insoniy poklik, e'tiqod, muhabbat va jamiyatdagi adolatsizliklar muammosini ko'tarib chiqadi. Asarda bosh qahramon - knyaz Mishkin obrazi orqali "ideal odam" g'oyasi yoritilgan bo'lib, bu obraz g'arb o'quvchisi uchun har doim ham tushunarli yoki mazmunan teng keladigan formatda qabul qilinavermaydi. Bu esa tarjimada semantik o'zgarishlar ehtimolini oshiradi.

Mazkur maqola Dostoevskiyning "Telba" romani ingliz tiliga tarjima qilinganda yuzaga keladigan semantik siljishlarni o'rganishga qaratilgan. Tarjimadagi semantik tafovutlar, ularning mazmuniy va badiiy ta'siri, shuningdek, tarjimonning interpretatsion roli tahlil qilinadi. Asarda asosiy e'tibor tarjima jarayonida ma'no yo'qotilishi (semantic loss), o'zgarishi (semantic shift) yoki transformatsiyasi (semantic transformation) holatlariga qaratiladi.

Maqola natijalari tilshunoslik, tarjima nazariyasi, adabiyotshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarga hissa qo'shadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod asosiy ilmiy usul sifatida tanlandi. Bunda original ruscha matn va bir nechta mashhur inglizcha tarjimalar (jumladan, Constance Garnett (1913), David Magarshack (1955), Richard Pevear va Larissa Volokhonsky (2002)) o'rtasidagi leksik, stilistik va semantik tafovutlar aniqlab,

tizimli tahlil qilindi. Har bir tarjimada muayyan epizodlar, iboralar va fe'l birikmalari original bilan solishtirilib, semantik konnotatsiyalar darajasida farqlar ko'rsatib o'tildi.

Tadqiqot doirasida quyidagi tahlil mezonlari asosida semantik o'zgarishlar tasniflandi:

Leksik-semantik siljishlar – sinonimlarning tanlanishi, so'z ohangining o'zgarishi;

Bahoviy va emotsional nuanslarning o'zgarishi – ijobiy yoki salbiy ohangning susayishi yoki kuchayishi;

Madaniy-realiyalarning transformatsiyasi – rus madaniyatiga xos tushunchalarning ingliz tilida anglanmasligi;

Stilistik soddalashtirish yoki murakkablashtirish – matnning stilistik yukida farqlar.

Tahlilda E. Nida (dynamic equivalence), P. Newmark (communicative vs. semantic translation) va V.N. Komissarov kabi tarjima nazariyotchilarining asosiy konsepsiyalariga tayanildi. Shuningdek, tarjimonning sub'ektiv roli, madaniy kompetensiyasi va estetik qarashlari tarjima natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishi alohida yoritildi.

Metodologiya, shuningdek, kontekstual va diskursiv tahlil uslublarini ham o'z ichiga oladi, bu esa semantik o'zgarishlarni nafaqat so'z darajasida, balki mantiqiy, psixologik va badiiy kontekstlarda tahlil qilish imkonini berdi.

Muhokama

Dostoevskiyning "Telba" romanining ingliz tiliga tarjimalari tahlili shuni ko'rsatadiki, semantik o'zgarishlar nafaqat til strukturasi darajasida farqlar bilan, balki tarjimonning estetik tanlovi, madaniy kontekstdan xabardorligi va manbaga bo'lgan munosabati bilan ham bevosita bog'liq. Tarjimada yuzaga kelgan semantik siljishlar ayrim hollarda original matnning chuqur ma'naviy qatlamlarini to'liq yetkazishda qiyinchiliklar tug'dirgan.

Misol tariqasida, knyaz Myshkinning obrazini yoritishda qo'llanilgan fe'llarning (masalan, «умиляться», «растеряться», «разволноваться») tarjimasida Garnett versiyasida soddalashtirilgan shakllar tanlangan ("to be touched", "to be confused"), bu esa obrazning psixologik nozikliklarini pasaytirgan. Pevear va Volokhonsky tarjimasida esa murakkab tuzilmalar va konnotativ ma'nolarni saqlab qolishga intilish seziladi, lekin bu o'quvchiga og'irlik qilishi mumkin.

Bundan tashqari, rus madaniyatiga xos diniy va falsafiy konnotatsiyalarning ingliz tilidagi ekvivalentlarini topishda tarjimonlar har xil yondashuvlarni tanlagan. Masalan, «страдание» va «смирение» kabi tushunchalar G'arb madaniyatida boshqa semantik maydon bilan bog'liq bo'lib, ularning tarjimasida g'arb o'quvchisi uchun Dostoevskiyning axloqiy-estetik konsepsiyasini to'liq ochib bera olmaydi. Bu holat semantik moslikning cheklanganligini ko'rsatadi.

Original (ruscha)	Garnett tarjimas	Pevear & Volokhonsky	Izoh
Он умилялся	He was touched	He was overcome with gentle emotion	Garnett versiyasida emotsional rang susaygan
Он растерялся	He was confused	He became visibly distraught	Pevear versiyasida dramatik kuch saqlangan
Юродивый	Not translated / "a fool"	holy fool	"Holy fool" — konnotativ mazmunni anglatadi, ammo cheklangan

Xulosa. O'tkazilgan tahlil Dostoevskiyning "Telba" romani ingliz tiliga tarjima qilinganda yuzaga keladigan semantik o'zgarishlar turli darajalarda - leksik, stilistik va madaniy - namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Ushbu o'zgarishlar tarjima jarayonining tabiiy elementi sifatida qaraladi, biroq ularning har biri asar semantikasiga, mualliflik pozitsiyasiga va qahramonlar obraziga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Romanning original matnida ifodalangan hissiy-estetik qatlamlar, ma'naviy-axloqiy baholar va ijtimoiy realiyalarning o'ziga xosligi tarjimada ba'zan soddalashtiriladi, ba'zan esa to'liq anglashilmaydi. Natijada matnning semantik tuzilmasi o'zgaradi, bu esa o'quvchining asarni qabul qilishiga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, bahoviy fe'llar, ekspressiv leksik birliklar, diniy va madaniy konnotatsiyalarning to'liq aks

Shuningdek, muhim jihatlardan biri shuki, tarjimada intonatsion, ritmik va sintaktik strukturalar ham semantik yukni o'zida olib yuradi. Asl matnda uzoq, murakkab gaplar orqali obraz va fikrlar chuqur ochib berilsa-da, ayrim tarjimalarda bu gaplar soddalashtirilgan yoki qisqartirilgan. Natijada, Dostoevskiyga xos "ichki monolog" texnikasi va ruhiy ziddiyatlar kuchi zaiflashgan.

Barcha ushbu holatlar tarjimaning qabul qiluvchiga ta'sir qilish imkonini o'zgartiradi va yangi kontekstda matnning semantik, emotsional va badiiy yukini o'zgartirib yuboradi. Shu jihatdan tarjima faqat til almashtiruvchi emas, balki madaniy va ideologik interpretatsiya hamdir. Har bir tarjimon — bu muallif bilan teng ijodkor sifatida maydonga chiqadi.

Asosiy qism

Tarjimada semantik o'zgarishlar quyidagi shakllarda yuz beradi:

Leksik o'zgarishlar: Dostoevskiy foydalanadigan so'zlar ko'pincha qadimiy, stilistik jihatdan yukli yoki emotsional ranglarga ega. Masalan, «кроткий» (kamtarin, muloyim) so'zining "meek" deb tarjima qilinishi ingliz tilida diniy konnotatsiyani oshiradi va ba'zan ortiqcha dramatismga olib keladi.

Bahoviy-emotsional siljishlar: Personajlar orasidagi suhbatlarda ohang, kinoya va passiv tajovuz holatlari tarjimada soddalashtiriladi yoki yo'qoladi. Masalan, Mishkinning samimiyligi bilan aytilgan iboralar ingliz tilida ba'zida sun'iy yoki seremoniyal ohangda eshitiladi.

Madaniy-realiyaviy kontekstlar: rus muhitiga xos bo'lgan diniy iboralar, ijtimoiy lavhalar ingliz tiliga mos ekvivalentlar topilmaganda semantik qisqartirishlarga uchraydi. Masalan, «юродивый» (dinsizlarga darg'azab, ammo ruhoniy ahamiyatga ega odam) kabi tushunchaning tarjimada yo'qolishi Mishkin obrazining chuqurligini pasaytiradi.

Tarjima - bu nafaqat til o'zgarishi, balki interpretatsiya hamdir. Har bir tarjimon o'z dunyoqarashi, estetik didi, madaniy saviyasi asosida matnga yondashadi. Masalan, Constance Garnettning tarjimasida ko'proq soddalashtirishga moyil bo'lib, Dostoevskiyning falsafiy og'ir matnlarini o'quvchiga tushunarliroq qilishga intilgan. Pevear va Volokhonsky esa matnga maksimal sadoqat prinsipiga asoslanib, hatto uslubiy og'irlikni ham saqlab qolgan.

Dostoevskiy stilistik jihatdan murakkab yozuvchi bo'lib, uning matnlarida parataxis, dialogik kuchlanish, ichki nutq, kinoya va falsafiy fikrlar qorishmasi mavjud. Ushbu elementlar tarjimada aks ettirilishida stilistik darajadagi siljishlar yuzaga keladi. Masalan, «он сказал с грустью» iborasi "he said sadly" tarzida soddalashtirilsa, bu emotsional gradientni to'liq ochib bera olmaydi.

ettirilmasligi personajlarning ichki dunyosi va mualliflik g'oyasining anglanish darajasini pasaytiradi.

Shu bois, Dostoevskiy asarlari tarjimasida faqat tillararo o'tkazma emas, balki murakkab interpretativ jarayondir. Tarjimon lingvistik jihatdan ekvivalent vositalarni tanlash bilan birga, muallifning estetik idealini, madaniy kontekstni va psixologik nozikliklarni ham inobatga olishi zarur. Bu esa tarjimonning filologik saviyasi, madaniyatlararo kompetensiyasi va stilistik sezgiriligini talab etadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun "Telba" romanining turli tarjimalarini (masalan, Constance Garnett, David Magarshack, Alan Myers, William A. F. Pevear va Richard Avsey tarjimalarini) qiyosiy semantik tahlil qilish, semantik yo'qotish va o'zgarishlarning xususiyatlarini aniqlash,

ularning funksional yukini baholash dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu esa tarjima nazariyasi va amaliyotida semantik sadoqat va interpretatsion erkinlik muvozanatini belgilashga xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, Dostoevskiyning "Telba" romani tarjimasi lingvistik transformatsiya bilan birga madaniy va

estetik konversiyani ham ifodalaydi. Tarjimada yuzaga keladigan semantik o'zgarishlar bu jarayonning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali asar yangi madaniyatda qayta talqin qilinadi, bu esa uni xalqaro adabiy muomalada yashovchan qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Dostoevsky, F.M. (1869). *Idiot*. Moskva: Russkaya kniga.
2. Dostoevsky, F.M. (1913). *The Idiot* (tr. Constance Garnett). New York: Macmillan.
3. Dostoevsky, F.M. (1955). *The Idiot* (tr. David Magarshack). London: Penguin Classics.
4. Dostoevsky, F.M. (2002). *The Idiot* (tr. Richard Pevear & Larissa Volokhonsky). New York: Everyman's Library.
5. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall.
6. Nida, E.A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: Brill.
7. Бархударов, Л.С. (1975). *Язык и перевод*. Москва: Международные отношения.
8. Комиссаров, В.Н. (1990). *Теория перевода*. Москва: Высшая школа.



UDK: 398.2

Baxtiyor YAKUBOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti

F.f.d., professor U.Sattorov taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalq dostonlarida mavjud bo'lgan mifologik obrazlarning kelib chiqishi, funksiyasi va epik syujetdagi roli tahlil qilinadi. Mifologik obrazlar xalqning arxaik tafakkurini, diniy e'tiqodlarini va axloqiy qarashlarini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Mifologiya, xalq dostonlari, epik tafakkur, arxaik obrazlar, animizm, totemizm, xalq ijodi

МИФОЛОГИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ БЫЛИНАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются происхождение, функции и роль мифологических образов в узбекских народных дастанах. Эти образы отражают архаическое мышление, религиозные верования и нравственные представления народа.

Ключевые слова: Мифология, народные былины, эпическое мышление, архаические образы, анимизм, тотемизм, народное творчество.

MYTHOLOGICAL IMAGES IN UZBEK FOLK EPICS

Annotation

This article analyzes the origins, functions, and narrative roles of mythological images in Uzbek folk epics. These mythological figures reflect the archaic worldview, spiritual beliefs, and moral values of the people.

Key words: mythology, folk epics, epic thought, archaic images, animism, totemism, folk art.

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi qadimdan boy mifologik qatlamni o'zida mujassam etgan. Ayniqsa, xalq dostonlari tarkibida mavjud bo'lgan mifologik obrazlar o'zbek xalqining arxaik tafakkuri, diniy-estetik qarashlari va ijtimoiy ongining mahsuli sifatida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada xalq dostonlarida uchraydigan mifologik obrazlarning manbalari, funksiyalari va shakllanish jarayoni tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ilmiy manbalarda folklordagi barcha janrlar ichida miflar eng qadimgi stadial bosqich sifatida shakllanganligi alohida ta'kidlanadi. Bu bosqichda inson tafakkuri voqelikni tushuntirishga emas, uni idrok etishga, tushunib yetishga uringan bo'lib, bu urinishlar abstrakt emas, balki obrazli, simvolik vositalar orqali ifodalangan. Shuning uchun ham mifologik tafakkurda inson personajining mavjud emasligi, voqealarning bevosita inson emas, balki mifologik obrazlar (xudo, ajdarho, ilon, qush, dev, tog', suv, daraxt va boshqalar) orqali yoritilishi kuzatiladi. Bu holat miflarning boshqa epik janrlardan tubdan farq qilishini anglatadi.

O'zbek miflarining syujet tuzilmasi turkiy va boshqa qadimiy xalqlar mifologiyasi bilan umumiyliklarga ega bo'lib, bu ularning genetik ildizlarining mushtarakligidan darak beradi. Miflar syujeti ko'pincha oddiy, faqat bir yoki ikki epizod asosida quriladi, bu esa ularning soddaligi va qadimiyligidan dalolat beradi. Voqealar ko'pincha bevosita muammoli vaziyat – tugundan boshlanishi bilan ham xarakterlidir. Bu xususiyat miflarni murakkab syujetli dostonlar va afsonalardan tubdan farq qiladigan yana bir belgi hisoblanadi.

O'zbek folklorshunosligida miflarni o'rganish borasida bir qator salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular xalq og'zaki ijodidagi mifologik qatlamni chuqur tahlil etishga yo'naltirilgan. Jumladan, o'zbek xalq dostonlari syujet qurilishi, obrazlar tizimi va badiiy strukturasida

mifologiyaning tutgan o'rmini chuqur tahlil etgan yetuk tadqiqotlardan biri G'.Akramovning 1980-yilda yozilgan "O'zbek xalq dostonlarida mifologiya" nomli monografiyasidir. Mazkur asar mif va epos munosabatlarini o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqish hamda ularning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga egadir.

G'.Akramov o'z tadqiqotida ayniqsa "Go'ro'g'li" turkumiga mansub dostonlardagi mifologik obrazlar, ularning kelib chiqishi, funksional vazifasi va xalq tafakkuridagi ildizlari bilan bog'liq masalalarga alohida to'xtalgan. Tadqiqotchi e'tiborini xalq dostonlaridagi mifologik qatlamlarning doimiyligi, ularning badiiy ifoda vositasi sifatidagi o'rniga qaratib, ertak va dostonlarda mifologik elementlarning saqlanib qolishini, bir tomondan, bu janrlarning qadimiyligi, ikkinchi tomondan esa xalqning ongida yashovchan mifologik qarashlar mavjudligi bilan asoslaydi.

G'.Akramovning yana bir muhim yondashuvi shundaki, u o'zbek xalq eposida mavjud bo'lgan totemistik, animistik va manistik (ya'ni ajdodlarga sig'inish, ularning ruhiy homiylik qilishiga ishonish) qarashlarning tasvirini nazariy asoslar bilan birga folkloriy manbalar – afsona, ertak va dostonlar asosida misollar orqali o'rganadi. U totemizmga oid timsollar (masalan, ot, bo'ri, burgut kabi hayvonlar), animistik tafakkurning qoldiqlari (inson ruhi, jonzotlar bilan mulqot qilish, jonning tanadan ajralib boshqa joyda saqlanishi) va manizmga oid elementlarning (xalq qahramonlariga ajdodlar ruhi ko'maklashishi) xalq eposidagi namoyon bo'lish shakllarini batafsil tahlil qiladi.

Ushbu yondashuv orqali G'.Akramov xalq eposining mifologik qatlamini nafaqat poetik vosita sifatida, balki xalq dunyoqarashi, diniy-estetik tafakkurining mahsuli sifatida ko'rsatishga erishgan. Shu tariqa, u o'zbek xalq eposidagi mifologik qatlamlarning faqatgina tarixiy yoki badiiy

xususiyatini emas, balki ularning axloqiy, falsafiy va sotsiokulturning ko'rinishlarini ham yoritgan. Bu esa mazkur tadqiqotni o'zbek folklorshunosligida mifologiyaning o'rganilish tarixida muhim bosqich sifatida baholash imkonini beradi.

O'zbek adabiy tafakkuri taraqqiyotining asosiy qonuniyatlaridan biri bo'lmish tarixiy-folkloriy jarayonlar uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga asoslanadi. Bu jarayonlar ichida janrlararo diffuziya – ya'ni turli janrlarning o'zaro aralashuvi, bir janrdan ikkinchisiga o'tib ketishi, ular orasidagi chegaralarning noaniqlashuvi alohida e'tiborga loyiq. Mazkur masala o'zbek folklorshunosligida keng muhokama etilib, uni ilmiy asosda o'rganan yirik tadqiqotchilardan biri B. Sarimsoqov hisoblanadi. U o'z izlanishlarida mifning epik janrlar tizimidagi o'rnini mif va ertak, mif va doston munosabatlari orqali tahlil etib, janrlararo bog'liqlik va o'zaro singish holatlarini aniqlashga harakat qilgan.

B. Sarimsoqov o'zbek mifologiyasini uch asosiy qatlamga ajratgan holda tahlil etadi: arxaiik miflar (eng qadimgi davrga oid mifologik tasavvurlar), klassik miflar (Avesto, zardushtiylik, qadimgi sharq mifologiyasi bilan bog'liq syujetlar) va o'rta asr miflari (islom davri e'tiqodlari, sufiylik, xalqona diniy-mistik qarashlar bilan bog'liq mifologik obrazlar). Uning fikricha, bu qatlamlar o'zbek og'zaki ijodi va yozma adabiyotida izchil tarzda aks etib kelgan bo'lib, ular o'zaro o'ta murakkab tipologik va funksional bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Mifologik syujet va obrazlarning yozma adabiyotga ta'siri masalasi o'zbek adabiyoti va folklorshunosligi doirasida ko'plab yetuk olimlar tomonidan keng miqyosda tadqiq etilgan. Xususan, N. Mallayev, M. Saidov, O. Madayev, T. Xo'jayev, M. Rajabova hamda M. Narziqulovlar o'z asarlarida mifologik motivlarning, arxaiik obraz va tasavvurlarning badiiy adabiyotda qayta ishlanish jarayonlarini tahlil qilganlar. Ularning ilmiy izlanishlarida folkloriy qatlam bilan yozma adabiyot o'rtasidagi uzviy aloqalar ochib berilgan bo'lib, mifologik elementlarning zamonaviy adabiy tafakkurda yangi badiiy-falsafiy mazmun kasb etgani ko'rsatiladi.

Mazkur yo'nalishda salmoqli iz qoldirgan yana bir muhim tadqiqotchi — M. Jo'rayev hisoblanadi. Uning tadqiqotlari mif va mifologiya, "Avesto"dagi mifologik qatlam, qadimgi turkiy mifologiya, kosmogoniya va mifologik dunyoqarashlar, shuningdek, mifologik obrazlarning o'zbek folkloridagi talqini kabi dolzarb masalalarni qamrab oladi. Jo'rayev o'z tadqiqotlarida xalq taqviimi, tabiat hodisalari (masalan, shamol, yomg'ir, chaqmoq), osmon jismlari bilan bog'liq astromifologik tasavvurlar, qadimgi urf-odatlar va ularning mifologik ildizlari, shuningdek, arxeomifologik elementlarning o'zbek og'zaki ijodidagi in'ikosi va transformatsiyasini tizimli ravishda tahlil qiladi.

Tadqiqotchining e'tibor qaratgan yana bir jihati — bu mif va epos munosabatidir. U eposdagi syujetlarning ko'p

qismi aynan mifologik asoslarga tayanishini, qahramonlar timsolida arxaiik mifologik funksiyalarning saqlanib qolganini ko'rsatadi. Jumladan, epik qahramonning osmon yoki yerosti olamiga safar qilishi, ajdarho bilan kurash, sehrli yordamchilar, qahramonning favqulodda tug'ilishi yoki bolaligida boshidan kechirgan sinovlari kabi motivlar qadimiy mifologik tasavvurlarning eposda davom etayotganini isbotlaydi.

Folklorshunoslik fani tilshunoslik, xususan, onomastika yo'nalishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu yo'nalish orqali qadimgi insonlarning ibtidoiy tafakkuri, mifologik tasavvurlari, diniy-estetik qarashlari, e'tiqodiy dunyoqarashlari ifoda topgan. Ayniqsa, mifologik obrazlar nomlarini o'rganish orqali xalq tafakkurining tarixiy qatlamlari, semantik o'zgarishlar va lingvomadaniy kodlar tahlil qilinadi. Ushbu obrazlar nomlari va ularni ifodalovchi tushuncha va atamalar onomastik tizimda turli terminlar ostida birlashtiriladi:

Mifonimlar – umuman olganda, mifologik obrazlarni anglatuvchi barcha nomlar;

Teonimlar – tangri va ma'budlar nomlari (masalan, Mira, Hurmuz);

Demononimlar – demonologik personajlar nomlari (shayton, pari, dev, jin);

Mifoantroponimlar – afsonaviy qahramonlar ismlari (Xizr, Jamshid, Kayumars, Odami Od);

Mifotoponimlar – mif bilan bog'liq joy nomlari (Ko'hi Qof, Bogi Eram);

Mifozoonimlar – hayvon ko'rinishidagi mifologik mavjudotlar (ajdar, ilon);

Mifoornitonimlar – qush ko'rinishidagi mifologik mavjudotlar (Semurg, Humo, Anqo, Jestimoq, Samandar);

Mifofitonimlar – afsonaviy o'simlik nomlari (mehrigiyo, hayot daraxti).

Bu terminlar mifologik til birligi doirasida shakllanib, xalq og'zaki ijodining, ayniqsa afsonaviy, ertak va rivoyatlarning semantik asosini tashkil etadi.

Mifonimlar so'z – konsept – obraz uchlik paradigmasi asosida vujudga keladi. Ya'ni, har bir mifonim bir vaqtning o'zida til birliklari (so'zlar), ma'no doiralari (konseptlar) va badiiy obrazlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bu uchlik tizim xalq og'zaki ijodi mahsulida jonli ifodasini topgan.

Xulosa. Umuman olganda, o'zbek folklorida va xalq dostonlarida mavjud mifologik qatlamlarning o'rganilishi, ularning janrlararo xususiyatlari, xalq dunyoqarashi bilan bog'liqligi, zamonaviy adabiy tafakkur bilan uyg'unlashuvi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ushbu sohada boy ilmiy maktab shakllanganini ko'rsatadi. Bu maktab vakillarining yondashuvlari nafaqat mifologiyaning o'zbek adabiyotiga ta'sirini aniqlashga, balki xalqning qadimiy tafakkurini, e'tiqodlarini va estetik didini chuqur anglashga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.90.
2. Баймырадов А. Туркмен фольклор прозасынинг тарихи эволюцияси. – Ашхабад: Ўлим, 1982. – Б.33.
3. Каскабасов С. Казахская сказочная проза. – Алмата: Наука, 1990. – С.74-110.
4. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент, 1981. – Б.103.



UDK:811.512

Shahzoda YASHNARBEKOVA,
Uzbekistan State World Languages University Phd doctorant
E-mail: shahzoda.yashnarbekova.96@mail.ru

PhD F.Sharipova taqrizi asosida

UZBEK ANTHROPNOMY AND ITS SIGNIFICANCE IN LINGUISTICS

Annotation

This article discusses anthroponymy, a significant macro-scale component of the proper nouns category within onomastics, including its definition, relevance in linguistics, its study in global and Uzbek linguistics, linguistic characteristics, and the diachronic factors influencing the formation of anthroponyms.

Key words: Anthroponymy, diachronic method, name, surname, patronymic, nickname, pseudonym, mansab (status).

O'ZBEK ANTROPONIMIYASI VA UNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqola onomastika atoli otlar bo'limining katta makroko'lamni tashkil qiluvchi antroponimiya, mazkur termin tushunchasi, uning tilshunoslikda tutgan o'rnini, dunyo miqyosida hamda o'zbek tilshunosligida o'rganilganlik darajasi, lisoniy xususiyatlari va antroponimlarning diaxron shakllanish omillari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Antroponimiya, diaxron metod, ism, familiya, sharif, laqab, taxallus, mansab.

УЗБЕКСКАЯ АНТРОПОНИМИЯ И ЕЕ РОЛЬ В ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье представлена информация об антропонимии, которая составляет крупный макромасштаб раздела имен собственных в ономастике. Рассматриваются понятие этого термина, его место в лингвистике, уровень изученности в мировом и узбекском языкознании, лингвистические особенности и факторы диахронического формирования антропонимов.

Ключевые слова: Антропонимия, диахронический метод, имя, фамилия, отчество, псевдоним, должность.

Introduction. Currently, in contemporary linguistics, the examination of interconnected topics such as the representation of reality across various languages, the analysis of worldview through language, and the exploration of national-cultural characteristics of language is among the most pertinent fields. The distinctive features of a language are inseparable from the cultural characteristics and social structure of the corresponding nation.

This dissertation aims to conduct a scientific and critical analysis of significant research in English and Turkic nomenclature, particularly focusing on Uzbek anthroponymy. It will assess the current state and challenges within the fields of English and Uzbek anthroponymy, identify the principles governing their sources of enrichment, and outline the necessary scope of future work in this area. Anthroponyms evolve in conjunction with the progression of language. New terminology emerges related to social issues, with some terms becoming obsolete and ceasing to be utilized. Anthroponyms, as linguistic and cultural entities, provide a substantial resource for the examination of human personality. Anthroponyms hold a unique position within the lexical framework of the language. Until recently, linguists regarded all proper nouns, including anthroponyms, as distinct words; however, from the 1950s and 1960s onward, the discipline of onomastics has been examined rigorously by linguists and scholars. A component of an individual's name, which may alter due to legal or cultural practices, is utilized throughout one's lifetime. The name serves as a distinct identifier of an individual within the family, applicable across several domains, including official documentation [Stepanov, 2002:

172-179]. An anthroponymic system denotes a collection of personal names aligned with linguistic and national identity [R. A. Komarova, 1985].

Anthroponymy examines anthroponyms, derived from the Greek words *anthropos* meaning "human" and *onyma* meaning "name" or "title." In contemporary linguistics, the term "anthroponym" refers to any proper name associated with an individual or group, encompassing personal names, patronymics, surnames, nicknames, pseudonyms, and cryptonyms [ibid: 30]. Consequently, an anthroponym is a comprehensive notion that encompasses any method of designating an individual in both formal and informal contexts. The selection of a specific form of anthroponym is contingent upon multiple factors: national-cultural traditions, age, geographic location, literacy, aesthetic education, social milieu, and general common sense. Another characteristic of this onomastic category is that each form of anthroponym is utilized exclusively in particular linguistic contexts. Moreover, some nations have distinct anthroponymic models. There exist analogous naming conventions: monomial (utilizing solely a personal name), binomial (comprising a personal name and surname, or a name and nickname), trinomial (including a personal name, middle name, and surname, or a personal name, patronymic, and surname), and polynomial models (including a personal name, several middle names, and a surname).

A personal name emerged to differentiate an individual from the collective. Identification, specifically, constituted his principal function. The name was selected for each individual and served not only as a practical means of

identification but also fulfilled a mystical or religious purpose. In numerous cultures and tribes, a personal name functioned as an amulet, providing protection for an individual throughout their entire life journey.

Upon examining the foundations of personal names throughout many cultures, one may observe typological similarities, possibly stemming from borrowing, the reciprocal influence of names from diverse linguistic systems, and the effects of analogous independent evolution. This similarity is manifested in two aspects: the utilization of same components of speech in their construction and the incorporation of terms from specific lexical domains for this purpose.

Methods and materials. The historical technique utilized substantial historical, archaeological, and anthropological material, together with the analysis of onomastic vocabulary within its historical context. The essential characteristics of anthroponyms cannot be ascertained without considering the historical context of their formation. The concept of a personal name is complex, historically significant, and contradictory. The significant historical backdrop of its inception and growth inevitably influenced the specific framework of this linguistic entity. Consequently, when analyzing an anthroponym, it is essential to consider this matter not only synchronically but also diachronically, since historical events frequently exert significant influence on the development of a name.

A diverse array of themes influences the stylistic approach, encompassing the reliance of name construction and functions on literary direction, the nuances of name selection and usage in prose, poetry, theater, and the various forms of literary anthroponyms. Nonetheless, the extensive array of names in fiction is fundamentally sourced from the rich and diverse stylistic features present in spoken language. A wide variety of informal anthroponyms exists that differ from their formal counterparts through stylistic markers. Such varied and exceptionally fragile materials require a stylistic methodology.

Result and discussion. For centuries, scientific inquiry in the domain of anthroponymy has remained pertinent. In this context, Russian scientists have made considerable progress. A.M. Sobolevsky, N.M. Tupikov, V.M. Solntsev, L.V. Uspensky, V.N. Nikonov, A.V. Superanskaya, V.D. Bondaletov, S.I. Zinin, M. Morozov, and more linguists undertook scholarly research in this domain. These scholars extensively researched and developed Russian anthroponymy. Several scholarly publications concerning Russian onomastics have been released.

S.I. Garagulya observes that "the subclass of personal names is open, continually replenished, and subject to the same dynamic developmental processes, reinterpretation, and metaphorization as the class of names in general" [Garagulya 2010: 126]. The anthroponymicon of a specific populace is not established permanently; rather, it functions akin to a living organism, continuously renewing and eliminating obsolete names. This process is perpetual. However, from another perspective, V.V. Oshchepkova asserts that certain features of anthroponymy are characterized by a predilection for the prevalent utilization of specific systems [Oshchepkova 2004:195].

In Turkology, several publications focus on the examination of onomastic concerns. Notable scientists include A.N. Samoilovich, V.V. Radlov, N.A. Baskakov, S.A. Tokarev, A. Jafarog'li, G'F. Sattorov, T. Jonuzoqov, among others, have conducted significant research. [Nikonov, 1974, 85-86]

Uzbek anthroponymy. The examination of anthroponymic matters and their scholarly investigation in Uzbek linguistics possesses a distinct historical background. S.Ibrohimov, E.Begmatov, R.Kungurov, A.Mukhtorov,

G.Sattorov, and other scholars have significantly contributed to Uzbek anthroponymy through many scientific papers, treatises, and works. At this juncture, we shall examine numerous of their concepts.

The scholarly examination of the anthroponymic system within Turkic languages commenced in the 1960s. For the first instance in Turkic linguistics, Kazakh linguist T. Zhanuzakov undertook scholarly research on anthroponymy. In 1960, he defended his candidate dissertation titled "Personal Proper Nouns in the Kazakh Language." This research, focused on personal names in Turkic linguistics, offers insights into the idea of proper nouns, the transition of common nouns into proper nouns (onomasia), the motivations for naming a child, and the development and grammatical structure of names. T. Zhanuzakov furthered his research on anthroponyms and ethnonyms in the Kazakh language and defended his doctoral dissertation in 1976 on the subject "Fundamental Issues of Onomastics in the Kazakh Language." T. Zhanuzakov categorized the stages of anthroponymy development in the Kazakh language into four distinct periods. This periodization exhibits several deficiencies. In 1973, Tatar linguist G. Sattorov conducted a study on the anthroponyms of the Tatryston region and subsequently released a monograph detailing his findings. Subsequently, he disseminated his doctoral dissertation. In 1981, he published an explanatory dictionary titled "The Meaning of Tatar Names," furthering his research on anthroponymy. In Uzbek linguistics, specific studies have been conducted on the system of proper nouns. Research focused on Uzbek anthroponymy utilizing contemporary scientific methodologies commenced in the 1960s. By that time, studies on popular science pertaining to personal names had been published

The inaugural scientific treatise on the significations of Uzbek names was authored by Y. Menazhiev and Kh. Azamatov. This booklet presents several deficiencies concerning the significance of names and the motivations that underpin their meanings. Notable scientific research in Uzbek anthroponymy is linked to the distinguished Uzbek linguist Ernest Begmatov. E. Begmatov's 1965 dissertation, "Anthroponymy of the Uzbek Language," is the inaugural scholarly inquiry in this domain. This research examines the historical-ethnographic and linguistic characteristics of Uzbek anthroponyms in depth. The research focuses on the linguistic analysis of anthroponyms while also exploring them from historical, ethnolinguistic, and sociolinguistic viewpoints. E. Begmatov's following research extensively addressed the orthography of names and surnames, the identification of the lexical foundation of names, and the transcription of Uzbek names into other languages. E. Begmatov has authored numerous scientific and popular science publications that significantly contribute to the advancement of Uzbek anthroponymy.

The contributions of A. Ishayev, F. Abdullayev, N. Khusanov, S. Rakhimov, G. Sattorov, R. Khudoyberganov, Y. Avlakulov, and others to the field of Uzbek anthroponymy are substantial. E. Begmatov's research constitutes a significant theoretical resource in the examination of this subject.

Anthroponymy is a subfield of onomastics that examines anthroponyms—proper names of individuals—previously excluded from onomastic research in the 1960s and 1970s of the 20th century. In contemporary linguistics, the term "anthroponymy" encompasses two concepts: 1) The compilation of names of individuals within a specific linguistic group in a designated region; 2) The subdivision of onomastics that examines the origin, structure, semantics, usage, evolution, and distribution of personal proper names [ESSLTP, 2008: 25]. The term "anthroponym" is utilized in the initial context as well. Among anthroponyms, the

following categories are identified: personal names, patronymics, surnames, nicknames, pseudonyms (individual or collective), and cryptonyms (concealed names). Anthroponymy differentiates between literary and dialectal, as well as formal and informal variants of a same name [Podolskaya, 1998: 37].

At this juncture, the Uzbek linguist Khudoynazarov Ikrom also references the following ideas in his doctoral dissertation: "Anthroponyms may possess a shared speech or dialect based on their nature." Nonetheless, it is challenging to ascertain whether numerous names are literary or dialectal versions based on their structure. It is essential to gather and conduct a scientific analysis of the names exclusively present in the dialects of the Uzbek language.

The lexicon of Uzbek anthroponymy is categorized into two layers: the indigenous layer of names and the borrowed layer of names. In 1990, G. Sattorov defended his candidate dissertation titled "Turkic Layers of Uzbek Names." The research categorized the Turkic component of Uzbek names based on the underlying causes, therefore classifying Uzbek names into three categories: names of dedication, descriptive names, and names of aspiration. Researcher S. Rakhimov successfully defended his candidate dissertation titled "Khorezm Regional Anthroponymy," which focuses on the significance and inspiration behind historical and legendary names. This dissertation elucidates the rationale behind the utilization of Arabic names, historical Hebrew names, and personal names linked to many rituals and customs that emerged under the influence of Islam.

Another Uzbek linguist, R. Khudoyberganov, elucidated the notion of variability in anthroponyms and endeavored to ascertain the correlation of these variants with synonymy and onomastic parallelism. He recognized and meticulously examined the lexical and dialectal variations of anthroponyms, abbreviated forms of names, affectionate and diminutive forms of names, and orthographic variants of anthroponyms supported by substantial evidence.

N.A. Khusanov's PhD dissertation and several scholarly papers focus on the history of Uzbek anthroponymy. The researcher, examining anthroponyms in the language of 15th-century Uzbek literary works, categorizes them into creative and actual anthroponyms.

In her dissertation "Nominative and Motivational Foundations and Characteristics of Anthroponyms of the Uzbek Language," S. Kenjayeva undertook substantial scholarly research on the nominative and motivational foundations, lexical and semantic attributes, and classification of the Uzbek language, with a focus on the regional anthroponymy of the Kashkadarya region. During the 1970s, researchers examining the anthroponymy of Turkish languages, including V.A. Nikonov and Samarkand scholars L.I. Roysenzon, E.B. Magazanik, A.I. Isaev, among others, authored several articles utilizing quantitative methods to analyze naming trends for children in Samarkand.

Anthroponyms differ from other common nouns in that they convey the notion of denotation. While common nouns convey the notion of direct objectivity, anthroponyms lack this characteristic. They are frequently derived from common nouns and evolve into personal names influenced by parental preferences, societal desires, diverse customs, and religious beliefs.

The primary principle of anthroponymy, as with all branches of onomastics, is historicity. Historicity encompasses more than merely the presence of a specific set of names labeled as "names derived from historical figures"; it also entails the process of personal selection, referred to as classification.

Russian linguist Nikonov asserts that personal names exist solely within the context of society and for societal purposes; although appearing to be individually chosen, such choices are ultimately dictated by societal norms. He proposes that personal names invariably possess social meaning.

The primary objective of anthroponymic research is to identify the societal rules governing the assignment of individual names. This includes the principles by which naming categorizes individuals based on various criteria such as gender, clan affiliation, generation, and locality. It also encompasses the laws regulating the naming system, whereby an individual may receive multiple names shortly after birth or throughout their life. Additionally, it examines the syntagmatic characteristics that differentiate these nouns from other noun classes, as well as the public norms that prescribe or prohibit their usage in discourse [Bromberge 2012: 117].

Determining the semantic characteristics of anthroponyms is unfeasible without considering the history of their emergence. A personal name is a multifaceted, archaic, and paradoxical concept. The extensive history of its genesis and growth inevitably influences the structure of this linguistic unit. Consequently, while examining anthroponyms, it is essential to address this matter from both a synchronic and a diachronic perspective, as historical processes are significant factors. On certain instances, the primary influence on the creation of the name. Historically, Turkish anthroponym system are similarly founded on Arabic anthroponymic structures.

The late medieval Arabic anthroponymic system is arguably the most advanced. It comprises numerous components:

1. *Ism-alam* - a designation assigned at birth.
2. *Kunya* - the practice of naming children after their parents: Abu-Ahmed meaning 'father of Ahmed', Umm-Ibrahim meaning 'mother of Ibrahim', and Abu-Burdah literally translating to 'father of the cloak', which figuratively signifies "master of the cloak." *Kenu* lacks the designation of "place" following the birth of a child, referring to "mother of a son" or "mother of a daughter," and for multiple offspring, "mother of children"; the woman refers to her husband as "father of a son," "father of a daughter," or "father of children" [Ketz collection - II: 235].
3. *Nasab* - a designation originating from one's paternal or maternal lineage (infrequently): Ibn Sina, known in Europe as Avicenna, is the son of S.ina. In Iranian and Turkic languages, the term "son" functions as a postposition, exemplified by Mardan-zade and Temir-ogly, respectively. Present! This pertains to the patronymic in its contemporary forms: -icht, -ovich, -inich for males, and -ovna, -inichna for females, which were used until the last century. In shorter adjectival forms, -ov and -in were used, and even earlier, -s was employed, derived from the term 'son.'
4. *Laqab* is typically rendered as "nickname": Siddiq meaning 'truthful', Akhtab meaning 'toothless'; they are characterized as insulting, narrative, and descriptive under this category. Additionally, incorporate names by profession and titles (both official and honorary) such as shah, khan, bek, mirza, seid, etc., as well as names with components like -din meaning 'faith,' among others.
5. *Nisba* - a name derived from genealogy (patronymic ancestor's name - authentic, assumed, or invented), ethnicity, and subsequently geography (Moslavi 'from MOD Sula', Basrawi 'from Basra'); designations based on dependency and social affiliation.
6. *Mansab* - title based on profession.
7. *Takhallus* (Mahlas) pseudonym, also varies according to different sources: by birthplace - Ruda-Yaki, by occupation - Hafiz, by patronage - Saadi in tribute to Caailj

ben Zangi. All these species engage in diverse combinations. kunya and lakab, kunya and nisba, lakab and nisba, etc. [Belgorodsky: 222].

Names have evolved over an extended duration and are influenced by the cultural, historical, and linguistic characteristics of specific regions or nations. In our research, the anthroponym is regarded as the primary personal noun, a designation that facilitates the initial identification of an individual.

Conclusion. The anthroponymic systems of various cultures exhibit certain commonalities, attributable to the mutual influences across languages and cultures. The openness of the anthroponymic system facilitates the seamless borrowing of personal names from alternative systems. Various approaches are employed in the creation of new personal names. Formation of onomastic units: onymization of

common nouns, linguistic borrowing, and the artificial creation of names through vocabulary.

Anthroponyms, like all proper nouns, are primarily words that form part of the language's vocabulary. Simultaneously, they are not merely words, but lexical units possessing a variety of distinct characteristics. Anthroponyms are the most ancient legacy of a people's language, culture, and spirituality, encapsulating their historical narrative, linguistic characteristics, ethnographic identity, ancestral lifestyles, and their religious and philosophical perspectives, beliefs, aspirations, and goals.

The anthroponymic system must be examined from both synchrony and diachrony perspectives, as anthroponyms possess historical significance, and their contemporary relevance should be analyzed through etymological scrutiny.

REFERENCES

1. Begmatov E. Антропонимика узбекского языка: Avtoref. diss., Toshkent: Fan, 1965. - Ташкент: Фан, 1965.
2. Menajiyev Y. Azamatov X. Ismingizning ma'nosi nima? Toshkent: Fan, 1964.
3. Sattarov F.F. Антропонимия Татарской АССР: Avtoref. dis ... Qozon, 1975.
4. Sattorov G'.H. O'zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. Toshkent, 1990.
5. Xudoynazarov Ikrom. Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantic –uslubiy xususiyatlari (Ergash Jumanbulbul dostonlari asosida) filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Buxoro, 1998.
6. Белгородский — Н. А. Белгородский, Социальный элемент в персидских именах,— «Записки Института востоковедения», 1, Л., 1932.
7. Гарагуля, С.И. Антропонимия в лингвокультурном и исторических аспектах [Текст] / С.И. Гарагуля. — М.: Книжный дом ЛИБРОКОМ, 2010. — 136 с.
8. Джанузакон Т. Лично-собственные имена в казахском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. — Алма-Ата, 1960. — С. 19.
9. Комарова Р. А. Семантическое преобразование антропонимов: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Л., 1985. — 22 с.
10. Никонов, В.А. Имя и общество [Текст] - М.: Наука, 1974. 8 с
11. Никонов, В.А. Имя и общество [Текст] - М.: Наука, 1974. 85-86 с
12. Ощепкова, В.В. Язык и культура Великобритании, США, Канады, Австралии, Новой Зеландии [Текст] / В.В. Ощепкова. — М./СПб.: ГПОССА/КАРО, 2004. —336 с.
13. Подольская Н.В. Антропонимика // Большой энциклопедический словарь «Языкознание» / Под ред. В.Н.Ярцевой. М.: «Большая российская энциклопедия», 1998. С.36-37.